

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
"ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI, FALSAFA"
KAFEDRASI**

Husen Xayrulloevich JO'RAYEV

**ISLOM TARIXI VA
MANBASHUNOSLIGI**

**60220300 – Tarix: Islom tarixi va manbashunosligi bakalavr
yo'nalishi talabalari uchun
O'QUV QO'LLANMA**

**"Durdona" nashriyoti
Buxoro - 2024**

УДК 28-9-632(075.8)

86.38ya73

J 80

Jo'rayev, H.X.

Islom tarixi va manbashunosligi [Matn] : o'quv qo'llanma / H.X.

Jo'rayev. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – 124 b.

KBK 86.38ya73

Mas'ul muharrir:

Shodmon Ahmadovich HAYITOV

Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:

Ilhomjon BEKMIRZAYEV, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, tarix fanlari doktori

Bobur Bahriyevich NAMOZOV, Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori (DSc) professor.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Buxoro davlat universitetining 2024-yil 3-fevraldagi 60-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami 60-14.

ISBN 978-9910-04-568-4

**ANNOTATSIYA:**

Mazkur o'quv qo'llanma Islom tarixi va manbashunosligiga bag'ishlangan bo'lib, Islom olamida Markaziy Osiyoning o'rta asr manbalarida arabiy, forsiy, turkiy qo'lyozma va toshbosma nusxalari hamda kutubxonalaridagi nodir qo'lyozma manbalar va hujjatgohlarning vujudga kelishi va faoliyatini tahlil qilishi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishga ko'maklashadi. O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlaridagi "Islom tarixi va manbashunosligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchimutaxassislar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ:

Данное учебное пособие посвящено истории ислама и источниковедению, появлению в исламском мире арабских, персидских, турецких рукописей и литографических копий средневековых источников Центральной Азии, а также редких рукописных источников и архивов в библиотеках и поможет приобрести теоретические и практические знания по анализу деятельности. Учебное пособие предназначено для студентов обучающихся по направлению «История ислама и источниковедение» в высших учебных заведениях, профессор-преподавателей, исследователей-специалистов и широкого круга читателей.

ABSTRACT:

This textbook is devoted to the history of Islam and source study, the appearance in the Islamic world of Arabic, Persian, Turkish manuscripts and lithographic copies of medieval sources in Central Asia, as well as rare manuscript sources and archives in libraries and will help to acquire theoretical and practical knowledge of activity analysis. The textbook is intended for students studying in the field of "History of Islam and Source Studies" in higher educational institutions, professors, teachers, specialist researchers and a wide range of readers.



SO'ZBOSHI

O'zbekiston istiqloli yurtimizga ijtimoiy fikr erkinligi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Biz islom tarixi va uning qo'lyozma manbalarini qaytadan kashf etish imkoniyatlariga ega bo'ldik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Shavkat Mirziyoyevning "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida: "Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug' alloma va mutafakkirlarimizning ko'plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni saqlash, o'rganish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi."¹ – deya, ta'kidlab o'tgan so'zlari, hozirda islom tarixi haqidagi manbalarini ilmiy tadqiq etishga bizlarni undaydi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan islom dinining qabul qilinishi munosabati bilan bu o'lkaga Qur'oni karim nozil qilingan arab yozuvi kirib keldi. Islom tarixi va manbashunosligi fani, tarixi ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo'lib, turli yozma, bosma va boshqa manbalarni o'rganish hamda ularni ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Sharqning Turkiya, Eron va Yaponiya kabi mamlakatlari, shuningdek, Rossiya Federatsiyasidagi bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalarida nodir qo'lyozma manbalarni guruhlash, kataloglashtirish, tadqiqot qilish, ta'mirlash, ma'naviyat xazinasi sifatida kelajak avlodga yetkazish yo'nalishlarida ko'plab ilmiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 10.02.2022 йилдаги ПҚ-126-сон.



tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shubhasiz, bugungi kunda islom tarixi va manbashunosligini tadqiq qilish, birlamchi manbalar orqali izlanishlar olib borish, ma'naviy va madaniy merosni bugungi avlod orasida targ'ib qilish bilangina muammoning nazariy jihatlarini to'liq asoslash mumkin.

Husen JO'RAYEV

“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

DURDONA



MUQADDIMA

O'quv qo'llanma muqaddimasida Islom tarixiga oid ayrim yozma manbalarning ilmiy o'rganilish tarixini ochib berish, sohaga doir ilmiy va o'quv adabiyotlarini tahlil qilishga harakat qilindi.

Islom tarixi deganda Islom davlatlarining va musulmon xalqlarning Islom dinining ilk davrlaridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan muddatdagi tarixi ko'zda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu tarix dunyo boshlanganidan to hozirgi, biz yashab turgan paytgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Jug'rofiy ma'noda aytiladigan bo'lsa, bu tarix aks etgan hududning bir tarafi Atlantika okeani, ikkinchi tarafi esa Tinch okeani bilan chegaralanadi. Ushbu mintaqalarda Islom dini keng tarqalgan bo'lib, bu yerlarda yashovchi xalqlarning ko'pchiligi musulmon xalqlar deb tan olingan.

Tarix va unga oid ma'lumotlarning yozilishi ma'nosiga keladigan bo'lsak, albatta, musulmonlarning tarixga oid narsalarni yozish ishlari birinchi o'rinda Qur'oni karimni qalamga olish, qayd etishlari bilan boshlangan. Avvallari Qur'on yozma ravishda tarqatilmagan. Uni o'rganish asosan yodlash orqali kechgan. Keyinchalik Qur'onni yodlagan kishilar vafot etib, kamayib ketayotgani bois Abu Bakr roziyallohu anhuning davrlarida hazrati Umar ibn Xattob roziyallohu anhuning maslahatlari bilan Qur'on oyatlari jamlanib, bitta mushaf shakliga keltirib yozib qo'yishga kelishilgan va bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Musulmon tarixchilar dunyoning yaratilishi, insonning dunyoga kelib, rivojlanishi va shu kabi qadimda sodir bo'lgan tarixiy hodisalarning eng ishonchli manbai bo'lmish Qur'oni karim asosida qadimgi dunyo tarixini bitdilar. Shuning uchun ham ular o'z zamonlarida yetakchi tarixchilarga aylanishdi.



Keyinchalik ba'zi bir guruh va shaxslar chiqib, o'zlaricha dunyo tarixini "ilmiy" ravishda qayta ko'rib chiqdilar. Ular dunyoda eng ishonchli tarixni bitganlarini aytib, ayyuhannos soldilar. Boshqalarni, jumladan, musulmon tarixchilarni ilmsizlikda, afsonalarga berilishda aybladilar. Ammo vaqt o'tib, ilm rivojlanishi bilan bu guruhlarining "ilmiy" ishlari jaholatdan boshqa narsa emasligi ayon bo'ldi. Oqibatda hammasi muz kabi eridiketdi. Qur'ondan bahra olgan musulmon tarixchilarning aytganlari esa to'g'ri bo'lib chiqdi. Ya'ni ularning o'z ishlarida Qur'ondan foydalanishlari eng to'g'ri yo'l ekani ma'lum bo'ldi.

Islom tarixiga qiziqish o'rta asrlardayoq mahalliy doiradan chiqib, musulmon muarrixlari ilmiy, tarixiy, geografik qiziqishlari obektiga aylandi va voha tarixi ular asarlari sahifasiga ko'chdi. Lekin bu hali Islomni ilmiy o'rganish emas, balki Islom to'g'risidagi ma'lumotlarni tavsifiy mazmunda ifoda etish edi. Biroq, shu ma'lumotlar ham bugungi kunga kelib manbaviy ahamiyat kasb etmoqdaki, Islom tarixini o'rganishda samarali foydalanish mumkin. Islom tarixini yozish uslubi, ayrim o'zgarishlarni hisobga olmaganda, XX asrning 20 yillarigacha, ya'ni yangi ilmiy uslub shakllangunga qadar davom etdi.

Ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'lgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ikki jildli "Islom tarixi" asari o'z davrida islomshunos va sharqshunoslarida ham katta qiziqish uyg'otgan. Asardagi ijtimoiy-siyosiy tarix masalalaridan tashqari, tarixiy geografiya, Islom tarixiga doir ma'lumotlar olimlar diqqatini tortgan edi. Asarni o'rgangan har bir olim o'z qiziqish doirasidan kelib chiqib unga murojaat qilgan.

Manbashunoslik tarix ilmining asosiy va fundamental sohasi bo'lib, turli manbalar – moddiy, etnografik, arxeologik va yozma yodgorliklarni qidirib topish, ulardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti ustida tadqiqot olib boradi.



Hozirgi tarixiy meros va yozma yodgorliklarga e'tibor kuchaygan davrda manbalarni o'rganish va ularni nashr ettirishga ehtiyoj katta.

Islom manbashunosligi va jahon sharqshunoslik fanida manbashunoslik qadimdan mavjud bo'lsada, ammo bu sohaga oid B.A. Axmedovning "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" – T.: O'qituvchi. 1991. dan boshqa qo'llanma hamda kitoblar kataloglaridan iste'foda etildi.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlari uchun qabul qilingan Davlat Standartlariga muvofiq tayyorlangandir.

Har bir ma'ruza boshida mavzu nomi, darsning mazmuni, uning rejasi va asosiy tushunchalar beriladi.



1-MAVZU. KIRISH. FANNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

Дарсинг мазмуни: Islom tarixi va manbashunosligida fanning o'rne, uning asosiy xususiyatlari, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot beradi.

Reja:

1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad
2. Islom tarixi va manbashunosligi faning maqsad va vazifalari

3. Islomshunoslikning asosiy vazifalari

4. Islom tarixi va manbashunosligi mustaqillik yillarida

Asosiy tushunchalar: Islom tarixi, tarixy manba, qo'lyozma yozma manba, birlamchi manba, manbashunoslik, Qur'oni karim, hadisi sharif, nodir asarlar, qo'lyozma fondlar, kutubxona.

1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad.

Islom tarixi va manbashunosligi fanini o'rganishdan asosiy maqsad talabalarga ushbu fan sohasi to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg'otish va Islom tarixini manbalar asosida mustaqil o'rganish malakasini hosil qilish qilishdan iborat.

Islom dini tarixiy fakt va voqealar bayoni inson xarakteri, ma'lumot beruvchi shaxs, guruh, firqa, sulola, mazhab va mamlakatlar manfaati yo'lida turlicha talqin qilish mumkin.

Masalan, yurtimizda – muqaddas Islom dinining XX asr oxiriga qadar siyosiy voqealar turli davrlarda, manbalarda va turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bu o'z davrida yaratilgan yozma yodgorliklar, tarixiy hujjatlar va solnomalarda qanday bayon qilingan? Sho'ro davrida qanday tushuntirildi?



Mazkur qator savollarga tarix fanlari doktori, professor Abdumajid Madraimov va tarixchi olim Gavhar Fuzailovalarning hammualliflikda yozgan darsliklarida, javoblar topish mumkin: “Va nihoyat mustaqillik sharoitida tarixiy adolatni tiklash, manbalarga xolis va obyektiv yondoshib, bo‘lib o‘tgan voqealarni bilishimiz mumkin va kerak. Bu esa manbashunoslik fanisiz, manbalarga ilmiy yondoshuvsiz mumkin emas. Chunki, o‘sha davrdagi yozma yodgorliklarning aksariyati arab alifbosi asosidagi yozuvimizda, bir qism rus tilida ham bitilgan va o‘sha davrga xos tarixiy xususiyatlarga ega edi.”²

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, islom tarixi va manbashunosligi fani islom tarixi to‘g‘risidagi xolis, obyektiv bilim olishga, o‘zligimizni anglashga, islom tarixi va boy ma‘naviy madaniyati bilishga xizmat qiluvchi tarix fanining muhim sohalaridan biridir.

2. Islom tarixi va manbashunosligi faning maqsad va vazifalari.

Islom tarixi va manbashunosligi fanini o‘rganishdan maqsad talabalarda ushbu fan sohasi to‘g‘risida umumiy tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg‘otish Islom tarixini manbalar asosida mustaqil o‘rganish malakasini hosil qilishdan iborat.

Tarixiy fakt va voqealar bayoni inson xarakteri, ma‘lumot beruvchi shaxs, guruh, firqa, sulola, mazhab va mamlakatlar manfaati yo‘lida turlicha talqin qilinishi mumkin.

Masalan, Islom tarixi XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi siyosiy voqealar turli davrlarda, manbalarda va turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bular o‘z davrida yaratilgan yozma yodgorliklar, tarixiy hujjatlar va

² Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2008. – b 4-5.



solnomalarda qanday bayon qilingan? Sho'ro davrida qanday tushuntirildi?

Va nihoyati mustaqillik sharoitida tarixiy adolatni tiklash, manbalar asosida xolis va obyektiv bo'lib o'tgan voqealarni bilishimiz mumkin va kerak. Bu esa manbashunoslik fanisiz, manbalarga ilmiy yondoshuvsiz mumkin emas. Chunki, o'sha davrdagi yozma yodgorliklar aksariyati arab alifbosi asosidagi yozuvimizda, bir qismi rus tilida ham bitilgan va o'sha davrga xos tarixiy xususiyatlarga ega.

Manbashunoslik fani tarix ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo'lib, turli (moddiy, etnografik, yozma va boshqa) manbalarni o'rganishni tadqiq etish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi.

Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz?

Tarixiy manba deganda uzoq o'tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichdagi kechmishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz.

Moddiy yodgorliklarga - qadimiy obidalar, manzilgohlar va mozorlar, shaharlar, qasrlar va qal'alar xarobalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar kiradi.

Ma'naviy yodgorliklar deganda qadimgi yozuvlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, afsonalar, yozma yodgorliklar – bitik, qo'lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari tushuniladi.

Umuman, tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan va uning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklardan iboratdir. Ularni o'rganadigan fanni biz manbashunoslik deymiz.

Manbashunoslik fani ijtimoiy fan sohasida asosan ikki xil bo'lishi mumkin – Islom tarixiy manbashunoslik va adabiy manbashunoslik. Bizning maqsadimiz tarixiy manbashunoslikni o'rganishdir.

Manbashunoslik fanining vazifalariga kelsak tarixiy manbalarni qidirib topish, ularni ro'yxatga olish, turkumlash,



chuqur va atroflicha tadqiq etish, manbada o'z aksini topgan yoki bayon etilgan voqealar, keltirilgan faktlarni to'la va obyektiv ligini aniqlash, manbaning tarix fani taraqqiyotini o'rganishdagi ahamiyatiga baho berish, manbashunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Xulosa, manbashunoslik fani muqaddas Islom dini va yurtimiz tarixi to'g'risida xolis va obyektiv bilim olishga, o'zligimizni anglashga, boy va qadimiy madaniyatimizni bilishga xizmat qiluvchi tarix fanining muhim sohalaridan biridir.

3. Islomshunoslikning asosiy vazifalari.

Islom tarixi, manbalari, aqidalari, marosimlari, Qur'oni karim, Muhammad (s.a.v) hayoti va faoliyati, payg'ambar hadislarini o'rganish, tadqiq qilish Islomshunoslik fanining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu sohadagi tadqiqotlar Islom tarqalgan mamlakatlarda, xususan, Movarounnahrda Islom va uning yozma manbalari paydo bo'lgandan buyon olib boriladi. Musulmon dini tarixi va Qur'onni o'rganish Amerikada (G. Grunebaum, X. Gibb, M. Vott va b.), Yevropada (I. Goldsiyer, L. Kaetani, A. Masse, R. Sharl), jumladan, Rossiyada (A.E. Shmidt, V.V. Bartold, Islom Krachkovskiy va b.) 19-a. o'rtalaridan keng tus oldi. Sho'rolar davridagi tadqiqotlarda Islomga, asosan, yagona marksistik mafkura nuqtayi nazaridan kelib chiqib yondoshildi. Islomning insoniyat tamadduni tarixidagi ahamiyatini ommaga tushuntirishda, Turon zaminida yetishib chiqib islomiy ilmlar xazinasini boyitgan ulug' allomalarning merosini xalqqa yetkazishda Eshon Boboxon Abdumajidxon o'g'li, mufti Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon, Alixonto'ra Sog'unliy, marhum shayxlar Ismoil Maxdum (1893-1976), Abdug'ani Abdullo (1928-1999) va Yusufxon Shokirov (1926-2000)larning xizmati kattadir. 20-a. oxirlaridan boshlab mamlakatimizda Islom bo'yicha obyektiv tadqiqotlar olib borish



imkoniyati tug'ildi. O'zbekistonlik olimlar Islom manbashunosligi, Qur'on tarjimasi va tafsiri, Islomdagi mazhablar, oqimlar, mashhur muhaddis va faqihlar, xalqaro Islom tashkilotlari, diniy bag'rikenglik, diniy ekstremizmga oid bir qancha asarlar yozdilar (marhum M.A. Usmonov, shuningdek, N. Ibrohimov, H. Karomatov, A. Mansurov, A. Hasanov, 3. Husniddinov, 3. Islomov, U. Uvatov, B. Eshonjonov, B. Abduhalimov, A. Juzjoniy, A. Mo'minov, A. Azimov, R. Obidov va b.).

Islom Turkiston mustamlakachilik davrini boshdan kechirgan paytda, ayniqsa, sho'rolar davrida turli ta'qib va har tomonlama cheklashlarga duch keldi, ulamolarning taqdiri ayanchli bo'ldi. Islomga oid bebaho kitoblar yo'qotildi, muborak yodgorlik va qadamjolar oyoqosti qilindi, din peshvolari eng xavfli yov, muxolif sifatida mahv etildi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, Islom dini hayotda munosib o'rnini egallay boshladi. Musulmonlarning diniy ibodat va marosimlarni ado etishlari uchun sharoit yaratib berildi.

O'zbekiston musulmonlari idorasida «Movarounnahr» nashriyoti faoliyat ko'rsatadi, «Islom nuri» gaz., «Hidoyat» jur. nashr etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu ishlarni o'tmish qo'lyozmalarni ilmiy-tanqidiy o'rganish va nashr qilish bilan shug'ullanuvchi matnshunoslik bilimlarisiz, arabiy imlo malakasisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Ushbu o'quv fani talabalarda filologik bilimning tarkibiy qismi bo'lgan qo'lyozma manbalar ustida ishlash malakasini hosil qilishlariga yo'naltirilgan. Mazkur o'quv fanini o'rganish uchun talabalardan avvalo, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, xususan adabiyot tarixi, yozuv tarixi, arab yozuvi, xattotlik san'ati va arab yozuvi turlaridan ma'lum darajada tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak.



4. Islom tarixi va manbashunosligi mustaqillik yillarida.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida, ayniqsa, so'nggi ikki yilda jamiyat hayotining turli jabhalarida tubdan yangilanishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yurtimizda diniy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar tahsinga loyiq. Buni ajdodlarimizning boy milliy-ma'naviy merosini, xususan, milliy qadriyatlarimiz darajasiga ko'tarilgan qo'lyozma merosimizni o'rganish borasida yaqqol ko'rish mumkin. Ma'lumki, O'zbekiston islom dini, ta'limoti va madaniyatini dunyoga yoygan qadimiy yurt hisoblanadi. Yurtimizdan jahon fani va madaniyatiga o'zining serqirra ilmiy merosi bilan ulkan hissa qo'shgan minglab allomalar yetishib chiqqan. Ularning nodir qo'lyozma asarlari dunyoning turli mamlakatlari fondlariga tarqalgan va hozirda o'sha fondlarning ko'rki darajasidagi ma'naviy boyligiga aylangan. Yurtimizda mustaqillikdan so'ng dinshunoslik, islomshunoslikka yondashuv tubdan, keskin o'zgardi. Ushbu yangilanish, o'zgarishga Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning olib borgan har tomonlama oqil siyosati, shaxsan u kishining islom dini va qadriyatlariga, shuningdek, islom madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan madaniy, ma'naviy merosimiz durdonalariga bo'lgan e'tiborlari turtki bo'ldi. Shu bois, dinshunoslik, islomshunoslikka to'laqonli ilmiy soha sifatida qarala boshlandi, ham dunyoviy, ham diniy mazmunda umumlashtirilgan ilmiy yondashuv shakllana boshladi. Ushbu sohalarni ilmiy jihatdan to'g'ri shakllantirish uchun birinchi navbatda asl manbalarni hozirgi zamon o'zbek tilida, zamondoshlarimiz tushunadigan tarzda nashr etilishi lozim edi. Qur'oni karim matnining o'zbekcha izohli tarjimasining yaratilishi islomshunoslik, xususan, qur'onshunoslik fanining sezilarli yutuqlaridan bo'ldi. Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan ushbu tarjima ajdodlarimiz hamda hozirgi kunda biz e'tiqod qilib kelayotgan islom dini ta'limoti asoslarini



to'laqonli anglashga xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar bugungi kunda jadal davom etmoqda. Buning ta'kidi sifatida Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilayotgan Qur'oni karimning yangi to'ldirilgan izohli tarjimasini keltirish mumkin. 2018-yil ushbu izohli tarjimaning yangi nashri amalga oshirildi. Islomshunoslikning eng muhim, dolzarb muammolaridan biri Qur'on mavzulari hisoblanadi. Bu mavzular qadimdan u yoki bu ko'rinishlarda adabiyot, ilmu fanning turli sohalariga oid asarlarda o'z aksini topgan. Shuningdek, keyingi yillarda islomshunoslikka oid ko'plab manbalar o'zbek tilida nashr etildi. Ular sirasiga Imom Buxoriyning 16 yillik mehnati samarasi bo'lgan, Qur'ondan keyingi mo'tabar, ishonchli manba hisoblanmish «Sahih» hadislar to'plamining 4 jildli hamda 2 jildli, Imom Termiziy «Sunan»ining I jildi, hanafiy mazhabi huquqshunosligining asosiy manbasi Burhonuddin Marg'inoniy «Hidoya»sining I jildi hamda shariat qonunlariga qisqacha sharh tarzida bitilgan «Muxtasar» kitobi, islomshunoslik, dunyo dinlari tarixiga bag'ishlangan qator asarlarni kiritish mumkin. Mustaqillik yillarida islomshunoslik sohalarida tubdan sifat o'zgarishlari amalga oshmoqda.

Yaqin o'tmishda o'rganilishiga ruxsat etilmagan Abu Mansur Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Lays Samarqandiy, Abu Mu'in Nasafiy, Hakim Termiziy, Nizomiddin Shoshiy, Imom Dorimiy kabi yuzlab olimlarning ilmiy laboratoriyasi aniqlandi va ularga oid ilmiy tadqiqotlar o'zining dastlabki natijalarini bermoqda. Bular sirasiga Abu Mansur Moturidiyning «Kitabu-t-tavhid», Mahmud Zamaxshariyning «Maqomot», «Rabi'u-l-abror va nususu-saxyor», «Atvoqu-z-zahab fi-l-mavo'iz val-xutab», Imom Dorimiyning «Sunan», Abu Mu'in Nasafiyning «Tabsiratu-l-adilla», Hakim Termiziyning «Navodiru-l-usul», Abu-l-Barakot Nasafiyning «Madoriku-t-tanzil», Abu Hafs Nasafiyning «Aqoid», «Kitabu-l-qand», Burhonuddin Marg'inoniyning



«Hidoya», Alovuddin Samarqandiyning «Tuhfatu-l-fuqaho», Alovuddin Buxoriyning «Hayratu-l-fuqaho», Lutfulloh Nasafiyning «Fihi Kaydoniy», Burhonuddin Buxoriyning «Muhit» kabi asarining tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar kiradi. Ilmiy izlanishlarning kattagina qismini Qur'oni karim va uning tafsirlariga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Bu yo'nalishda Qur'oni karim ma'nolarining o'zbek tilidagi tarjima va tafsiri bilan bir qatorda ularning ilmiy tahlili ham amalga oshirilmoqda. «Qur'on, tafsir va mufassirlar», «Qur'on oyatlarining mazmuniy mundarijasi va uning ma'naviy ahamiyati», «Abu Lays Samarqandiyning «Bahru-l-ulum» tafsiri va uning Movarounnahr ma'naviy-ma'rifiy hayotida tutgan o'rni» mavzularidagi tadqiqotlar asl manbalarga tayanganligi bilan ajralib turadi. Hadis manbalarini ilmiy tahlil qilish ham islomshunoslikning muhim yo'nalishlaridan bo'lib, soha bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Mana shu maqsadda Samarqandda Abu Mansur Moturidiy nomidagi hadis ilmiy maktabining ochilishi soha rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, hadisshunoslik manbalari, hadis to'plamlaridagi matnlarni tahlil qilish, hadis ma'nolarini to'g'ri talqin qilish hozirgi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur sohada «Abdulloh Subzomuniyning «Kashfulosor» asari hadis ilmiga oid manba», «Abu Hafs Nasafiyning «Kitobu-l-qand fi ma'rifat ulamo Samarqand» asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo'yicha muhim manba», «Hakim Termiziyning «Navodiru-l-usul» asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba», «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Buxoriy, Muslim, Termiziy)», «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi» mavzularidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Islom huquqshunosligiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham kattagina hajmni tashkil etadi. «Movarounnahr fiqh ilmi rivojida Alouddin Samarqandiyning o'rni va «Tuhfat al-fuqaho» asarining



ahamiyati», «IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom Buxoriyning mavqei va uning «Jomiu-s-sahih» asaridagi fiqhiy masalalar», «Majduddin Ustrushaniyning Movarounnahr fiqh ilmi tarixida tutgan o'рни», «Abu Zayd Dabusi merosining Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida tutgan o'рни», «Burhonuddin Mahmud Buxoriyning «Muhit» asari va uning Movarounnahr qoziligida tutgan o'рни», «Islom huquqshunosligi va hanafiy mazhabi taraqqiyotida O'rta Osiyo faqihlarining o'рни», «Lutfulloh Nasafiyning «Fihi Kaydoniy» asari va unga yozilgan sharh va hoshiyalar tahlili», «Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asari – muhim huquqiy manba», «X–XIII asrlar Movarounnahr ijtimoiy munosabatlari o'ld protsessual va notarial hujjatlar», «Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fihi». «Alovuddin Buxoriy «Hayratu-l-fuqaho» asarining islom manbashunosligida tutgan o'рни» mavzularidagi dissertatsiyalar va ular asosida yaratilgan monografiyalar sohaga o'ld muhim tadqiqotlardan sanaladi.

Xullas, mustaqillik yillarida Yurtimizda muqaddas Islom dini tarixi, qo'lyozma manbalarni o'rganish va tadqiq etish uchun hattoki qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'bekiston³ Respublikasining Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BERILADIGAN SAVOLLAR:

1. Islom tarixi va manbashunosligi fanini o'rganishdan asosiy maqsad nima?
2. Islom tarixi va manbashunosligi faninining vazifalarini nimalardan iborat?
3. Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz?

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 10.02.2022 йилдаги ПК-126-сон



4. Islomshunoslikning asosiy vazifalari sanab o'ting.
5. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida Islom tarixi va manbalarni o'rganishda qanday ishlar olib borildi?
6. Islom tarixi va qo'lyozma manbashunosligini o'rganishda, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qaysi farmon va qarorlarni bilasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Тошкент ислом университети. нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2018.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги “Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5416-сонли Фармони.
3. Ислomшunoslik қомусий луғати. – Т.: 2014. Мовароуннаҳр. 1 жилд. 2013; 2 жилд.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ислom тарихи. – Т.: Hilol-Nashr. 2017. 1-китоб 512 бет, 2-китоб 544 бет.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. – Т.: 1999.
2. Каримов Ислom. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркамоллик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: 1997.
3. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: 1999.
4. Соғуний А. Тарихи Муҳаммадий (1-2-китоб). – Т.: 1997.
5. Ҳадис (Ал-Жомий ас-Саҳиҳ), 1-4-жилдлар (2 наشري). – Т.: 1997.
6. Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва илк ислом (1-китоб: Жоҳилия асри). – Т.: 2001.
7. Ҳидоя (1-ж.). – Т.: 2000.



8. Ҳусниддинов 3. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. – Т.: 2000.

2-MAVZU. MANBASHUNOSLIK FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Darsning mazmuni: Tarix ilmida manbashunoslik fanining tutgan o'rnini, uning asosiy xususiyatlari, predmeti, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot, mavjud ilmiy adabiyotlar qisqacha tahlili beriladi.

Reja:

1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad
2. Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari
3. Manbalar turlari
4. Manbashunoslikka oid adabiyotlarni tahlili

Asosiy tushunchalar: manba, tarixiy manba, birlamchi manba, asl nusxa, avtograf, bitik, bitma, yozma yodgorlik, qo'lyozma, qo'lyozma kitob, toshbosma, litografik kitob, nashr, ommaviy nashr, ilmiy akademik nashr, faksimile, arxeografiya, asosiy arab yozuvlari, ro'yxatga olish, tavsifga olish, tasniflash – kataloglashtirish, fihrist – katalog, kartochka, annotatsiya, monografik tavsif.

1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad.

Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad talabalarda ushbu fan sohasi to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg'otish va O'zbekiston tarixini manbalar asosida mustaqil o'rganishga harakat qildirishdan iborat.

Tarixiy fakt va voqealar bayoni inson xarakteri, ma'lumot beruvchi shaxs, guruh, firqa, sulola, mazhab va mamlakatlar manfaati yo'lida turlicha talqin qilinishi mumkin.

Masalan, O'zbekiston yaqin tarixi mamlakatimizning XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi siyosiy voqealar turli



davrlarda, manbalarda va turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bular o'z davrida yaratilgan yozma yodgorliklar, tarixiy hujjatlar va solnomalarda qanday bayon qilingan? Sho'ro davrida qanday tushuntirildi?

Va nihoyati mustaqillik sharoitida tarixiy adolatni tiklash, manbalar asosida xolis va obyektiv bo'lib o'tgan voqealarni bilishimiz mumkin va kerak. Bu esa manbashunoslik fanisiz, manbalarga ilmiy yondoshuvsiz mumkin emas. Chunki, o'sha davrdagi yozma yodgorliklar aksariyati arab alifbosi asosidagi yozuvimizda, bir qismi rus tilida ham bitilgan va o'sha davrga xos tarixiy xususiyatlarga ega.

Xulosa, manbashunoslik fani yurtimiz tarixi to'g'risida xolis va obyektiv bilim olishga, o'zligimizni anglashga, boy va qadimiy madaniyatimizni bilishga xizmat qiluvchi tarix fanining muhim sohalaridan biridir.

2. Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari.

Manbashunoslik fani tarix ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo'lib, turli (moddiy, etnografik, yozma va boshqa) manbalarni o'rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi.

Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz?

Tarixiy manba deganda uzoq o'tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichdagi kechmishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz.

Moddiy yodgorliklarga - qadimiy obidalar, manzilgohlar va mozarlar, shaharlar, qasrlar va qal'alar xarobalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar kiradi.

Ma'naviy yodgorliklar deganda qadimgi yozuvlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, afsonalar, yozma yodgorliklar – bitik, qo'lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari tushuniladi.

Umuman, tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan va uning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan



moddiy va ma'naviy yodgorliklardan iboratdir. Ularni o'rganadigan fanni biz manbashunoslik deymiz.

Manbashunoslik fani ijtimoiy fan sohasida asosan ikki xil bo'lishi mumkin - tarixiy manbashunoslik va adabiy manbashunoslik. Bizning maqsadimiz tarixiy manbashunoslikni o'rganishdir.

Manbashunoslik fanining vazifalariga kelsak tarixiy manbalarni qidirib topish, ularni ro'yxatga olish, turkumlash, chuqur va atroflicha tadqiq etish, manbada o'z aksini topgan yoki bayon etilgan voqealar, keltirilgan faktlarni to'la va obyektiv ligini aniqlash, manbaning tarix fani taraqqiyotini o'rganishdagi ahamiyatiga baho berish, manbashunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi.

3. Manbalar turlari

Tarixiy manbalarni ularning umumiy xarakteri, o'tmishni o'zida aks ettirishiga qarab quyidagi olti asosiy guruhga bo'lish mumkin.

Moddiy (ashyoviy) manbalar

Ma'lumki, kishilik jamiyati tarixi qariyb 40 ming yillik davrni o'z ichiga oladi, lekin yozuv paydo bo'lganiga esa ko'p vaqt o'tganicha yo'q.

Masalan, sivilizatsiyaning ilk o'choqlaridan biri bo'lmish Markaziy Osiyoda dastlabki yozuv arameycha xat negizida taxminan eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida paydo bo'lgan. Xat tarixchisi Erkin Oxunjonovning ma'lumotiga ko'ra, yurtimizda arab istilosiga qadar o'n sakkiz yozuv turi mavjud bo'lgan ekan. Lekin, afsuski, ko'hna tariximizni o'zida aks ettirgan yozma yodgorliklarning katta qismi bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Ularning ko'pchiligi bosqinchilik urushlari vaqtida, qolaversa tabiiy ofatlar oqibatida yo'q bo'lib ketgan.



Ilk tarixning ayrim lavhalari o'tmishdan qolgan va insonning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan moddiy yodgorliklarda, aniqrog'i ularning bizgacha saqlangan qoldiqlari yetib kelgan.

Xullas, moddiy (ashyoviy) manba deganda ibtidoiy odamlar istiqomat qilgan va dafn etilgan joylar, ularning mehnat va urush qurollari, bino va turli inshootlar (qal'a va qasrlar, hammomlar va karvonsaroylar, hunarmandchilik ustaxonalari hamda suv inshootlari va boshqalar)ning qoldiqlari, uy-ro'zg'or buyumlari va zeb-ziynat taqinchoqlari tushuniladi.

Moddiy yodgorliklarni qidirib topish va o'rganish ishlari bilan arxeologiya ilmi (yunon, arxeo – qadimiy, logos – ilm; o'tmish haqidagi ilm; kishilik jamiyatining uzoq o'tmishni o'rganuvchi ilm, qadimshunoslik) shug'ullanadi.

Etnografik manbalar

Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan material va ma'lumotlar etnografik manba hisoblanadi. Masalan, xalq, qabila va urug' nomlari, inson qo'li va aql -zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, kishilar ongida, shuningdek, og'zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan o'tmish urf-odat va an'analari, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Bularning barchasini etnografiya (yunon, etnos – xalq, grapxo – yozaman, xalq haqida ma'lumotlar; xalqshunoslik) ilmi tekshiradi va o'rganadi.

Lingvistik manbalar

Lingvistik manbalar deb tilimizdagi, aniqrog'i uning leksik-so'z boyligi tarkibidagi uzoq o'tmishdan qolgan, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'muriy va yuridik atamalar, masalan, xiroj - o'rta asrlarda aholidan, asosan dehqonlardan olinadigan asosiy soliq; daromad solig'i; ushr – daromadning o'ndan bir qismini tashkil etgan soliq; zakot – chorva va mulkdan kambag'allar uchun yiliga bir marta olinadigan soliq; suyurg'ol – shahzodalar va amirlarga toju taxt oldida ko'rsatgan katta xizmatlari uchun



beriladigan yer-suv; tansuqot – kamyob, e'tiborga molik buyum, mato; podshohlar, xonlar va nufuzli kishilarga qilinadigan tortiq; cherik - qo'shin; qorovul - qo'shinning oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus harbiy bo'linma; xalifa – Muhammad payg'ambarning o'rinbosari, o'rta asrlarda arab musulmon feodal davlatining boshlig'i; mirishkor – to'g'risi – miri shikor, podshoh va xonlarning ov qushlari va ov hayvonlarini tasarruf etuvchi mansabdor; mirob – suv taqsimoti bilan shug'ullanuvchi mansabdor; qozi – shariat asosida ish yurituvchi sudya; yorlig' -o'rta asrlarda hukmdor tarafidan beriladigan rasmiy hujjat; vaqfnoma –masjid, madrasa, xonaqoh va mozorlarga in'om e'tilgan yer - suv haqidagi tuzilgan maxsus hujjat va boshqa atamalar juda ko'p uchraydi. Bu va shunga o'xshash atamalar shubhasiz qimmatli tarixiy material bo'lib, ajdodlarimizning ijtimoiy – siyosiy hayotini o'rganishga yordam beradi. Ularning kelib chiqishi va etimologiyasini lingvistika (lotin, lingua – til) fani o'rganadi⁴.

Xalq og'zaki adabiyoti

Og'zaki adabiyot madaniyatning eng qadimgi qismi bo'lib, uning ildizi ibtidoiy jamoa va ilk feodalizm tuzumiga borib taqaladi. Og'zaki adabiyotning ayrim namunalari qadimgi yunon tarixchilari, shuningdek, Tabariy, Mas'udiy, Beruniy, Firdavsiy, Ibn al-Asir kabi sharq olimlarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Kayumars, Jamshid va Siyovush haqidagi afsonalar, Amort va Sparetra, To'maris va Shiroq haqidagi qissalar shular jumlasidandir.

Urug'chilik davri tarixini, ayniqsa, patriarxal – munosabatlarini o'rganishda “Alpomish”, “Go'ro'g'li” kabi dostonlar, shuningdek, xalq ertaklari, marosim qo'shiqlari, matal va topishmoqlarning roli ham benihoya kattadir. Bu xalq

⁴ Тарихий манбашунослик. Электрон ўқув қўлланма. (бакалаврлар учун.) – Т. Низомий номидаги ТДПУ Тарих факультети “Манбашунослик ва тарих ўқитиш методикаси” кафедраси. 2007. – Б 5-11.



durdonalari turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarning turish – turmushi, ma’naviy qiyofasi, urf-odati, ayniqsa, uzoq o’tmishda hukm surgan ijtimoiy munosabatlar haqida qimmatli ma’lumot beradi. Tarixiy manbalarning bu turi bilan folklor (nem. Folk – xalq, lore – bilim; donishmandlik, xalq donoligi) fani shug’ullanadi.

Yozma manbalar

Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog’i kishilarning o’zaro munosabatining natijasi o’laroq yaratilgan va o’sha zamonlarda sodir bo’lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o’zida aks ettirgan manba sifatida o’rta asr (VI-XIX asrlar) tarixini o’rganishda muhim o’rin tutadi. Yozma manbalar o’z navbatida ikki turga bo’linadi:

1. Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar).

Ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarga oid masalalarni o’rganishda rasmiy hujjatlar, moliyaviy - hisobot daftarlari va yozishmalarning ahamiyati benihoya kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma’lum yuridik shaklda bevosita va ko’p hollarda aynan qayd etishi bilan qimmatlidir. Lekin ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishmalarda soxtalari ham uchrab turadi. Shuning uchun ham ulardan foydalanilganda diqqat-e’tibor va zo’r ehtiyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borganda, undan biron ijtimoiy-siyosiy voqea yoki fakti talqin etish uchun foydalanish jarayonida, bittasi bilan kifoyalanmasdan, o’xshash bir necha hujjat, manbalarni qo’shib o’rganmoq zarur. Chunki bitta hujjatda faqat bir kelishuv yoki fakt ustida gap boradi. Shuning uchun faqat bir hujjat bilan ma’lum ijtimoiy-siyosiy masala ustida qat’iy fikr yuritib, umumlashtirib qat’iy xulosaga kelib bo’lmaydi.



2. Tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar.

Tarixiy, geo-kosmografik, hamda biografik asarlar to'g'risida shuni aytish kerakki, ular hukmron sinfning topshirig'i bilan yozilgan va shu tufayli ularning sahifalarida ko'proq podshohlar va xonlarning, amirlar va yirik ruhoniylarning hayoti va faoliyati yoritilgan, moddiy boylik yaratuvchi mehnatkash xalqning tarixi esa ko'p hollarda chetlab o'tilgan.

Xullas, bu asarlarda, ya'ni yozma manbalarda hukmron feodal sinfning dunyoqarashi o'z ifodasini topgan, o'sha sinfning maqsad va manfaatlari ifoda etilganligi bilan ajralib turadi⁵.

Mo'jaz rasm-miniatyuralar

X-XIX asrlar davomida qo'lyozma kitoblarni ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo'jaz rasmlar ham tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Yurtimiz tarixi va moddiy ashyolar, hunarmandchilik, kiyim-kechak, me'morlik obidalari va umuman moddiy madaniyatimiz xususiyatlarini o'rganmoqchi bo'lsak, nafis mo'jaz tasviriy san'at namunalari- miniatyura rasmlar qimmatli manba rolini o'taydi. Chunki ularda tarixiy ashyolar tasviri aynan, ba'zan badiiy ijod xususiyatlariga moslashtirilgan holda aks ettiriladi.

Masalan, buyuk musavvir ustod Kamoliddin Behzodning "Samarqanddagi Bibixonim masjidining masjida qurilishi" nomli mashhur rasmini eslatish kifoya. Bu rasmda XV asrdagi qurilish jarayoni, unda ishtirok etayotgan ustalar to'g'risida mukammal tasavvur beriladi.

Bunday rasmlardan tarixni o'rganishda tasviriy vosita sifatida unumli foydalanish mumkin. Biz so'nggi yillarda chop

⁵ Тарихий манбашунослик. Электрон ўқув қўлланма. (бакалаврлар учун.) – Т. Низомий номидаги ТДПУ Тарих факультети "Манбашунослик ва тарих ўқитиш методикаси" кафедраси. 2007. – Б 5-11.



etilgan manbalarda ulardan shunchaki befarq foydalanishlarini ko'rishimiz mumkin.

Umuman, bizgacha yetib kelgan qadimgi devoriy rasmlar va qo'lyozma kitoblarga ishlangan hamda alohida muraqqa'lardagi rasmlar ahamiyati juda katta.

Ko'rib chiqqanimizdek, manbashunoslik fani tadqiqot manbalari juda ko'p va xilma-hil bo'lib, biz eng asosiylari to'g'risida ma'lumot berdik. Shu kunlarda texnika taraqqiyoti munosabati bilan yana tovushli manba, foto manba, kino-televideniye manbalari va internet materiallari ham paydo bo'lib, ular an'anaviy manbalarni inkor etmaydi, balki qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa kompakt disklarni yaratilishi turli yangi pedagogik vositalarni qo'llash imkonini yaratadi.

Manbashunoslik fani tarix ilmining fundamental yo'nalishi bo'lib, bu sohada faoliyat olib borish uchun bir necha til va yozma manbalar to'g'risida katta bilim va tajribaga ega bo'lish talab qilinadi.

4. Manbashunoslikka oid adabiyotlarni tahlili.

Bizning tariximiz juda boy, yozma yodgorliklarimiz ko'p bo'lishiga qaramay, o'z madaniy merosimizni butun boyligini namoyish etadigan, uning o'ziga xos xususiyatlari va jahon madaniyati xazinasiga hissa bo'lib qo'shilganlarini alohida ko'rsatadigan manbashunoslik fani sohasida yaratilgan mukammal darslik va qo'llanmaga ega emasmiz. Lekin yurtimizda tarix fani sohasida olib borilgan deyarli uch ming yildan uzoqroq davr davomida to'plangan tajriba umumlashtirilgani yo'q.

Hozircha mavjud darslik va qo'llanmalar ichida akademik B.Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" darsligi ikkinchi nashrini eng mukammal deb tan olishimiz mumkin. Qimmatli



ma'lumotlar jamlangani bilan ajralib turgan bu asar yanada mukammal darslik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

A.Habibullayevning "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" qo'llanmasida ham qator ijobiy xususiyatlar mavjud bo'lib, ulardan tarixiy manbashunoslik bo'yicha darslik tuzishda foydalanish mumkin.

A.A.Madraimov tomonidan tuzilgan "Manbashunoslikdan ma'ruzalar majmuasi" da ilk bor arab, fors va turk tilidagi tarixiy manbalar xususiyatlarini xarakterlashga harakat qilingan va manbalalar to'g'risidagi ma'lumotlar manba nomi ostida berilishi bilan ajralib turadi.

Manbashunoslik fani ko'p asrlik an'anaga ega bo'lsa-da, yurtimiz manbashunosligi yuqorida zikr etilgan asarlarda umumlashtirishga harakat qilindi. Manbashunoslikni o'rganish uchun birinchi galda tarixga oid ilmiy tadqiqotlar, yozma yodgorliklar nashrlari va birlamchi yozma manbalar bilan bevosita ishlashga to'g'ri keladi. Bu sohada Y.G'ulomov, B.A.Ahmedov, A.O'. O'rinboyev kabi yirik olimlar asarlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalar tavsifini o'z ichiga olgan 11 jildlik monografik katalog hamda maxsus katalog – fihristlar, tadqiqotlar bo'lg'usi manbashunoslar uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Talabalar yordamchi manba sifatida ensiklopedik qomuslardan foydalanish mumkin.

Manbashunoslikni yaxshi egallash uchun talaba bir necha til, ayniqsa arab yozuvidagi turkiy til va g'arb tillaridan ingliz, nemis va fransuz tillaridan birini yaxshi bilishi kerak. Bu sohada rus tili ham ma'lum mavqega ega.

Manbashunoslik tarix fanining bir qator yordamchi sohalari – paleografiya, diplomatika, geraldika, sfragistika, epigrafika,



numizmatika, metrologiya va xronologiya qo'dga kiritgan yutuqlariga tayanadi⁶.

Manbashunoslikni o'rganishda foydalanilgan izohli lug'at (Glossariy)

Paleografiya (yunon. Paleo - qadimiy, grapxo - yozaman; qadimiy yozuv) qadimiy qo'lyozma asarlarning qog'ozi, muqovasi, siyohi, yozuvi va yozish usullarini tekshiradi.

Diplomatika (yunon. Diploma - ikki buklangan qog'oz; hujjat) rasmiy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Geraldika (yunon. Gerald -gerb, belgi, nishon) qadimiy gerblar, turli-tuman nishon va belgilarni (masalan, qadimgi turkiy qabilalarning tamg'alari) o'rganadi.

Sfragistika (yunon. Spragis -muhr) qadimiy muhrlar (podshohlar, xonlar, amirlar va qozilar muhrlari) va ularning yozuvlarini tekshiradi.

Epigrafika - (yunon. Epi -ustida, tepasida, grapxo - yozuv; biron narsa; buyum ustidagi yozuv) tosh, metall buyumlar, yog'och va boshqa qattiq buyumlar ustiga o'yib yozilgan qadimgi bitiklarni o'rganadi.

Numizmatika (lotin. Numis -pul) qadimiy pullarni, ashyosi, shakli, vazni, yozuvlari, zarb etilgan joyi va vaqtini tekshiradi.

Metrologiya (yunon. Metron -o'lchov, logos - tushuncha - bilim; o'lchovlar haqida tushuncha) o'tmishda turli mamlakat va xalqlar orasida amalda bo'lgan og'irlik, masofa va sath o'lchovlarini o'rganadi.

Xronologiya (yunon. Xronos - vaqt, logos - tushuncha, bilim; vaqt haqida tushuncha) qadimgi xalqlar orasida va mamlakatlarda amalda bo'lgan yil hisobi va taqvimni o'rganuvchi soha. Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya"

⁶ Тарихий манбашунослик. Электрон ўқув қўлланма. (бакалавлар учун.) – Т. Низомий номидаги ТДПУ Тарих факультети "Манбашунослик ва тарих ўқитиш методикаси" кафедраси. 2007. – Б 5-11.



(“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) nomli asari turli taqvimlarni o‘rganishga bag‘ishlangani uchun Yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhur.

Talabalarga manbashunoslik fanining yo‘nalishlari va asosiy xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin, Sharq yozma manbalarni turkumlashning yagona aniq bir qoidasi hozirgacha ishlab chiqilmagan. Mavjud qo‘lyozma manbalar fihristi bir qismi asarlar tili nuqtayi nazaridan kelib chiqib tuzilgan. Masalan, Angliyaning Britaniya muzeyida saqlanayotgan sharq qo‘lyozmalari yirik sharqshunos Charlz Riyo tomonidan ularning qaysi tilda yozilganiga qarab, arab, fors va turkiy tildagi qo‘lyozmalarni alohida, alohida tavsifga olib fihrist tuzgan. Fransiya poytaxti Parijdagi Milliy kutubxonadagi saqlanayotgan sharq qo‘lyozmalari haqida Edgar Bloshe ham shu tartibda katalog tuzgan.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BERILADIGAN SAVOLLAR:

1. Manbashunoslik maqsadi nimadan iborat?
2. Manbashunoslikning asosiy mavzui va vazifalari nimadan iborat?
3. Qanday manba turlarini bilasiz?
4. Manbashunoslikka oid qaysi darslik va adabiyotlarni bilasiz?
5. Manbashunoslikka oid qaysi islomga doir adabiyotlarni bilasiz?

FOYDALANILGAN ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Аҳмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. Писменные памятники. – Т.: 1985.
2. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи. 2001. – Б 7-14.



3. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников географов и учених XVI перв. пол. Составител Луниин Б.В. – Т.: Фан. 1988.
4. Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая. – Москва.: Наука. 1987. – С 5-17.
5. Саидқулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тархнавислигидан лавҳалар. – Т.: Ўқитувчи. 1993. – Б 3-9.
6. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбеки и арабская рукописная традиция. – М.: 1985.

DURDONA



3-MAVZU. JOHILIYAT DAVRI MANBALARI TAHLILI

Darsning mazmuni: Mazkur mavzuda johiliyat (savodsizlik) davriga oid manbalar, undagi ashyoviy dalillar va Islom kelgandan keyin, tarixnavislikning boshlanishi haqida ma'lumot, mavjud ilmiy adabiyotlar haqida qisqacha tahlili beriladi.

Reja:

1. Yozma yodgorliklar, she'riyat va og'zaki ijod
2. Johiliyat davri
3. Islomgacha bo'lgan arablar
4. Qur'ondan keyin arablarda, yangi boshqa qo'lyozma kitoblar paydo bo'la boshladi

Asosiy tushunchalar: Arablar, johiliyat, savodsizlik, arab qabilalari o'rtasidagi urush-janjallar, qo'lyozma, eramizdan avval, turli tillar, yozma, Islom, Movarounnahr, Markaziy Osiyo, asrlar.

1. Yozma yodgorliklar, she'riyat va og'zaki ijod.

Ma'lumki, qadim arab tilidagi yozma yodgorliklar Arabiston va Suriyaning janubidagi qoyatoshlarga eramizning I asrlari atrofida bitilgan bitiktoshlardan iboratdir. Johiliya davri V—VII asrlar she'riyati ham og'zaki tarzda rivojlana borib, VIII—X asrlarga kelibgina xatga tushirildi. Yozma adabiyot arablarda VIII asrdan yuzaga keldi.

Yozma manbalarni yig'ish va tartibga solishdan tashqari, ularni qidirib topish ham manbashunoslikning zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir.

Bu jihatdan "**Al-osor ul-boqiya anal qarn ul-xoliya**" degan kitobini yozish uchun Abu Rayhon Beruniyning Markaziy Osiyo hududida islomgacha bo'lgan manbalardagi ma'lumotlarni bir



yerga to'plashi – o'lkamizda islom madaniyati yuzaga kelishi davrida o'tmish manbalarining borini yig'ib-terib, keyingi avlodlarni ularning mazmuni bilan tanishtirishi nihoyatda muhimdir. Beruniy bu asarini yaratishda, avvalo, bu manbalarni bir yerga yig'gan, ya'ni, ularning matnini qayta tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan bo'lsa ham, manbashunoslik faoliyati muallif ijodi jarayonida dastlabki bosqich bo'lib xizmat qilgan. Ko'rib turganimizdek, bu fan o'z rivojining dastlabki bosqichlaridayoq nazariy yo'nalishdan ko'ra amaliyotga yaqinroq holda shakllangan.

Ma'lumki, qadim arab adabiyoti og'zaki shaklda rivojlangan edi. Shoirlar she'rlarini xatga tushirishlari mavjud odatlarga ko'ra mumkin bo'lmagan (tarixchi olim Isaak Moiseyevich Filshtinskiy⁷, 13-bet). Faqat Qur'on xatga tushirilgandan keyingina, yozma manbalarining yuzaga kelishiga yo'l ochilgan. Islomgacha bo'lgan shoirlarning she'rlari yoki ulardan parchalar Ibn Qutaybaning "Shoirlarning she'rlar kitobi" asariga, Abul Farojning "Qo'shiqlar kitobi" tazkirasiga kiritilgan.

Markaziy Osiyoda xuddi shunday jarayonning davomi bo'lib, Abu Rayhon Beruniyning (973 – 1048) "Al-osor-ul-boqiya anal qarnul-xoliya" asari bo'ldi. Bu o'lkamizda islomgacha bo'lgan asarlar mazmunini tiklab qo'yishda juda muhim ish bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "O'tmish yodgorliklari" kitobida qadimiy sharq xalqlari – arablar, shomliklar (Suriya), yahudiylar, eroniylar, so'g'dlar, xorazmliklar va o'sha zamonda yashagan boshqa xalqlarning turmush qoidalari, urf odatlari, yil hisoblari, bayram va marosimlar, xullas nimaiki xalq hayotiga oid bo'lsa, shularning hammasini ilmiy asosda tadqiq etadi. Olim bu xalqlar turmushiga oid ma'lumotlarni haqiqat va

⁷ Фильштинский И.М. История арабской литературы. V- начало X века. (Истории литератур Востока). – Москва. Наука. 1985. – 528 б.



sog'lom fikr nuqtayi nazaridan tahlil qildi. Haqiqatga zid ko'rinishlarni qat'iy rad qildi⁸.

Bu davr yozma yodgorliklaridan ma'lum bo'lishicha, arab alifbosi bilan bir qatorda turkiy xalqlar islomgacha ishlatib kelgan uyg'ur yozuvi ham qo'llanilib kelgan ("Qutadg'u bilig"). Bu haqda Q.Sodiqovning "Qadimgi turkiy yozuvlar" (1995) va "Uyg'ur yozuvi tarixi" (- T.: 1997) kitoblarida batafsil ma'lumot olish mumkin.

Oromey – suriya yozuvi negzida avesta, xorazmiy, so'g'd, kushon, runiy, uyg'ur yozuvlari vujudga keldi.

1. Avesta yozuvi. Bu yozuv eramizdan 2000-yil avval yuzaga kela boshlagan va og'zaki tarzda saqlanib kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. Bu din Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo xalqlari orasida islomgacha asosiy diniy e'tiqod sifatida keng tarqalgan edi. "Avesta" kitobi Eronda sosoniylardan Anushervon (Xusrav I) davrida (531–578) yozuv madaniyatining yaxshi rivojlangan bir paytda xatga tushirildi. Bu davrda sosoniylarda pahlaviy yozuvi, oromiy-suriya yozuvi keng rasm bo'lgan bo'lsa ham, "Avesta" kitobidagi diniy ahkomlarning qiroatini o'rniga qo'yib o'qilishi talabiga javob berishi uchun "Avesta" tili fonetikasini yaxshi ifodalay oladigan maxsus yozuv ishlab chiqilgan⁹.

Mintaqamiz hududidagi qadimshunoslarning kashfiyotlariga tayangan holda islomgacha ajdodlarimiz ma'naviy kamolotining ikkinchi bosqichi bugungi kundan kamida 4-5 ming yil ilgari boshlanib, to Iskandar Maqduniy zamonigacha yoki, aniqrog'i, Eronda Haxomanishiylar (Axmoniylar) sulolasi imperiya tuzgan VI asrgacha davom etgani haqida taxmin qilish mumkin. Bu bosqich dunyoni asotir

⁸ Қаранг: "Ўтмиш ёдгорликлари"нинг ўзбек тилига қилинган таржимасини 1968 йили Тошкентда Фан нашриёти босиб чиқарган. Асарни араб тилидан таниқли арабшунос олим Абдуфаттоҳ Расулов (1893 - 1977) таржима қилган.

⁹ Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. / Қисқача курс. – Т.: — 2000. Қаранг: www.ziyouz.com kutubxonasi



tafakkur doirasida yaxlit tasavvur qila boshlash davri bo'ldi. «Avesto» kitobi ushbu tasavvurning mevasi, hosilasidir. Bu davrda qadim Dajla va Furot daryolari oralig'ida (Mesopotamiyada) hamda Nil daryosi quyi oqimida qudratli yozma madaniyat yaratildi, ilk davlat tizimi shakllandi. Ajdodlarimiz bir payt o'sha yirik davlatlar bilan turli munosabatlarga kirishganlar. Ular yaratgan «Avesto» madaniyati ma'naviy mazmuniga ko'ra, shumer va akkad tillarida Bobil va Ashshur davlatlari hududida yaratilgan asotir madaniyati yodgorliklaridan aslo kam emas, balki ortiq bo'lishi mumkin. Ammo, afsuski, Iskandar Maqduniy bosqini tufayli yurtimizning eng qadimgi yozma yodgorliklari shafqatsiz yo'q qilindi, bizgacha mukammal yetib kelmadi. Bizning bu davr haqidagi tasavvurlarimiz «Avesto» kitobidan bizgacha yetib kelgan juzvlar (qismlar), o'zga o'lkalar qadim yozma madaniyat yodgorliklari ichidagi ma'lumotlar va arxeologik topilmalarni qiyosiy o'rganish natijasidagina shakllanib bormoqda¹⁰.

Islomgacha butun bashariyat, jumladan, o'lkamiz xalqlari juda uzoq tarixiy jarayonni boshdan kechirdilar, buyuk ma'naviy kamolot yo'lini bosib o'tdilar. Ajdodlarimiz avvalo tabiat bilan munosabatda ma'lum urug', qabila jamoasi tarkibida o'zligini anglab yetgan bo'lsalar, so'ng mintaqa miqyosiga chiqdilar. «Avesto» ma'naviyati Hindistonning «Veda» madaniyati, qadim Shumer, Bobil va Ashshur madaniyatlari, qadim Yunon va Rum antik madaniyatlari mohiyatiga monand bo'lib, ular singari tosh asridan boshlab shakllanib kelgan asotir tafakkur asosidagi ma'naviyat edi, unda dunyoni, atrof-muhitni idrok etish o'ziga xos tarzda kechardi. Inson ma'naviy kamolotining dastlabki bosqichlarida bu idrok tarzi ancha-muncha ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan esa-da, keyinchalik uning cheklanganligi, ichki qusurlari bilinib qola boshladi. Bu

¹⁰ Имомназаров М. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи. (Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма) / - Т.: 2008.



ma'naviy kamolotda bo'hron holatini yuzaga keltirdi, mintaqaxalqlari taraqqiyotida ma'naviy turg'unlik xavfi paydo bo'ldi. Navoiy timsollaridan foydalanib ta'bir etganda, ajdahoni yengib o'tgan Farhod oldida endi Axriman-devni yengish zarurati paydo bo'ldi. Mazdayasna e'tiqodi asotir tafakkur qobig'idan chiqib keta olmadi¹¹.

Inson dunyoni, voqelikni, borliq mohiyatini to'liq va to'kis, muayyan va ravshan idrok etishi uchun yana bir ilohiy inoyat lozim bo'ldi. Insoniyat hayotidagi bu ulug' ma'naviy yangilanish Arabiston yarim orolidan dunyoga tarqaldi. Johiliya (ya'ni islomdan avvalgi davr) arablarini ba'zan yalpi ibtidoiy jamoa tuzumida yashagandek talqin etishadi. Bu to'g'ri emas. Arab tili qadim Bobil xalqi akkadlar va qadim yahudiylar tili bilan bir guruhdagi qardosh tillardan bo'lib, shuning o'zi arab xalqining qadimiyligiga ishoradir. Janubiy Arabistondagi Yaman va Xadramavt o'lkalarida miloddan avvalgi ming yillik boshida yozma madaniyat va davlatchilik an'analari yaxshi rivojlanganligi fanga ma'lum. Keyingi davrlarda ham Arabistonda turli podsholiklar mavjud bo'lgan. Faqat o'zgalar singari arablar ham Qur'oni karim nozil bo'lishidan oldin ma'naviy va ijtimoiy jihatlardan bo'hronli holatda edilar. Yana bir narsani qayd etib o'tmoq lozimki, arablarda to VII asrgacha «Avesto» yoki «Vedalar» singari mukammal shakllangan asotir dunyoqarash tizimi mavjud emas edi, bu holat, aytish mumkinki, yangi yaxlit e'tiqod tizimini qabul qilishni ma'lum darajada osonlashtirar edi. Aksincha, mintaqada va uning chegaralarida tavhid ta'limotiga asoslangan yahudiy va xristian e'tiqodlari keng tarqalganligi ham birmuncha jarayonni osonlashtirar edi. O'sha davrda arab qabilalarining holati turkiy qavmlarning Buyuk turk xoqonligi tuzilishidan biroz oldingi ahvoliga yaqin bo'lib, ular oldida ham qabilachilik ziddiyatlarini

¹¹ Имомназаров М. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи. (Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма) / - Т.: 2008.



yengib o'tib, yagona milliy davlat tuzish zarurati ro'y-rost ko'rinib qolgan payt edi¹².

Xullas, «Avesto» kitoblari majmui islomgacha bo'lgan madaniyatimiz va ma'naviyatimizning holatidan bizni ancha mukammal xabardor qiluvchi yozma manba sifatida beqiyos qiymatga egadir va biz uni jiddiy tadqiq va tahlil etmog'imiz juda zarur. Faqat undagi bayon va uslubning nihoyatda o'ziga xosligini unutmay, bu matnlar dastlab yaratilgan davr ruhini to'g'ri idrok eta bilmog'imizni taqozo etiladi.

Musulmonlik kelmasidan oldin Arab yarim orolida butparastlar, majusiylar (olovga sig'inuvchilar), yahudiylar (Muso dinida), xristianlar (Iso dinida), sobiylar (yulduzlarni ilohiylashtiruvchilar) bor edi. Hazrat Ibrohim davridan qolgan hanafiylar esa ozchilikni tashkil etardi. Bular Varaqa ibn Navfal, Abdulloh ibn Jaxsh, Usmon ibn Huvayris, Zayd ibn Amr, Quss ibn Saido kabilardir¹³.

Makka atrofidagi Ukoz savdo markazi ham yilda bir marta jang qilinishi taqiqlangan joylarda ochilar va bu yerda she'riy mushoiralar o'tkazilar edi.

Bu she'riy musobaqaga kibor shoirlardan Nabig'at az-Zubyoniy hakamlik qilar, u o'ziga teridan bir chodir qurdirib olgan edi. Musobaqada tomoshabinlarning tahsiniga sazovor bo'lgan eng yaxshi qasidalar oltin harflar bilan yozilib, Ka'ba devorlariga osib qo'yilardi.

Johiliyat davrining eng mashhur shoirlari najdlik Imriul Qays boshchiligidagi yetti shoir edi. Qur'oni karim nozil bo'la boshlashi bilan bu shoirlarning obro'-e'tiborlari o'z-o'zidan

¹² Имомназаров М. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи (Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма) / - Т.: 2008

¹³ Қаранг: «Асри саодат» муаллифи Мавлоно Шиблий (вафоти 1914 й.) ишонарли манбаларга суянган ҳолда Қусс ибн Саидога тегишли деб кўрсатилаётган нутқнинг уйдирма эканини айтади (1-жилд, 216-бет).



yo'qola boshladi va ularning asarlari ham Ka'ba devorlaridan birin-ketin olib tashlandi¹⁴

Qur'on va boshqa diniy asarlarda Islomdan avvalgi davr "johiliya" (nodonlik, johillik) deb ataladi. U davrdagi sanamlardan bizgacha yodgorliklar yetib kelmagan. Islomgacha makkaliklarning eng muqaddas tavof qiladigan joyi Ka'ba bo'lgan. Uning atrofiga ko'pchilik arab xudolarining sanamlari o'rnatilgan va bu Ka'bani umumarab muqaddas joyiga aylantirgan.

Islomdan keyin uning atrofidagi sanamlar yo'q qilib tashlangan va u musulmonlarning yagona tavof qiladigan va unga qarab namoz o'qiydigan muqaddas joyiga aylantirilgan.

2. Johiliya davri.

Johiliya (arab. — bilimsizlik holati, jaholat) — arablar tarixining islomdan ilgarigi davriga berilgan nom. Asosan, odamlar hayotida Iso (a.s) bilan Muhammad (s.a.v) oralig'idagi payg'ambarsiz o'tgan davr tushuniladi. Johiliya tushunchasi Qur'onning bir necha suralarida uchraydi. „J-h-l“ o'zakli „johiluna“, „yajhaluna“ shaklidagi so'zlar ham yana bir qancha suralarda keladi. Ularning barchasi Madina suralaridan ekanligi, Johiliya so'zi 622 yil (hijrat)dan oldingi zamon uchun ishlatilganiga dalildir. Johiliya atamasining paydo bo'lishiga obyektiv sabablar bor edi. Zero islomdan oldingi arablarning ko'pchiligiga „jahl“ tuyg'usi xos edi. Bu boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyona munosabatda bo'lishda o'z ifodasini topardi (qasos olish zarurati, go'dak qizlarni tiriklayin ko'mish, o'zga qabila vakiliga dushman sifatida qarash va b.). Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo'ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o'sha davrni haqli ravishda "Johiliya davri" deb atagan. Bundan tashqari Johiliya davri

¹⁴ Абдуррахмон Шараф (1925 йил 18 февралда вафот этган). «Зубдатул қисас», 1-жилд, 72-бет.



arablarining diniy tasavvurlari ham kam taraqqiy qilgan, sodda holda bo'lgani ma'lum. Ular asosan „vasaniya“da, ya'ni ko'pxudolikda bo'lganlar. Qadim zamonlardan beri barcha arablar uchun Makka shahridagi Ka'ba ibodatxonasi muqaddas hisoblangan. Xudolar panteoniga aylangan bu maskanda 360 ta sanam qo'yilgan edi. Bunga sabab esa har bir qabila o'z but-sanamini qo'yish odati edi ya'ni, but-sanamlar bir xil bo'lsa ham boshqa qabilaning but-sanamiga sig'nishmas edi. Xubal hamda „Alloh qizlari“ nomini olgan Lot, Manot va Uzzo, shu sanamlarning eng mashhurlari edi. Ba'zilar „Alloh“ sanamiga sig'inardilar. Ammo u islomdagi Allohdan farq qilar, maqomi jihatidan Yaxve, Zevs, Yupiter kabi bosh xudolarga teng qo'yilgan bo'lsada, mavhum va ko'z ilg'amas balandlikda deb tasavvur qilingani uchun uning ismi bilan bog'liq ibodat muntazam ado etilmas edi. Johiliya davrida arablarining ko'pchiligi narigi dunyoga ishonmasdilar: faqat bu dunyo bor, yashaymizu — o'lamiz. Bizning taqdirimizni dahr (vaqt) hal qiladi, deb fikr yuritardilar. Islom g'alabasidan so'ng „dahriy“ so'zining „mo'min“ga nisbatan antonim sifatida ishlatilganini shu bilan izohlash mumkin. Alloh to'g'risida muayyan tushunchaga ega bo'lgan holda unga boshqa xudolarni sherik qilganlari sababli Johiliya arablari „mushrik“lar degan nomni oldilar¹⁵.

Johiliyat davri arablari orasida xat-savodni biladiganlar juda oz edi. Biroq xatiblar, chiroyli she'r o'quvchilar anchagina bo'lgan. Arablar quvvayi hofizasi kuchli, tillari boy, zukko xalq edi. Tuya ustida taxtasiz shaxmat o'ynashar, uzoq o'ylanmasdan uzun va mukammal qasida aytadiganlar bor edi.

Arablar islomgacha davrni «johiliya» deb atashgan. Bunda ham «johillik» xat-savodi yo'qligini emas, yagona Allohni tanimaganlik, ilohiy kalomdan bahramand bo'lmaganlik

¹⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. Тошкент, ЎзМЭ. 2000 йил.



ma'nosida ishlatilgan. Xalq ichida «omi odam» degan ibora ishlatiladi. «Omi odam»ni - savodsiz, sodda odam ma'nosida talqin qilamiz. Bunday talqin birinchi qarashda «omilik»ni zararsiz qilib ko'rsatadi, aslida «omi odam» g'ofil bandadir, bunday avomdan iborat jamiyat hech qachon fuqarolik jamiyati, chinakam fuqarolar jamiyati bo'la olmaydi. Fuqarolik jamiyati ogoh odamlardan iborat bo'lmog'i kerak. Ogoh odam o'z insonlik burchini teran idrok etadi va unga aslo xiyonat qilmaydi.

Arab yozuvi masalasiga kelsak, eramizgacha minginchi yilning yarmidan boshlab janubiy arablarda yozuv madaniyati paydo bo'lgan. Arablarning o'z mustaqil yozuvi eramizning IV asridan boshlandi (lahmiylar podshosi Imruul Qays davrida an-Namarda 328 yili yozilgan yozuv), yana 515 va 563 yillardagi yozuvlar ham ma'lum. Makkaliklar o'zlarining diplomatik va savdo ishlarida arab tilidan foydalanganlar. Hech shubhasiz aytish mumkinki, arab yahudiylarida o'z muqaddas kitoblari – Tavrot va arab nasorolarida o'z Injillari bo'lgan, lekin Injilning arabcha tarjimasi VIII asrdan oldin bo'lmagan.

Ahli basharning islomgacha yaratgan yozma va og'zaki merosini jiddiy tadqiq etish natijasida ikki muhim yo'nalish vujudga keldi. Birinchisi, qadim Yunon falsafasi ta'sirida shakllangan mustaqil islom falsafasi bo'lsa, ikkinchisi, Sosoniylar davrida yaratilgan tarixiy yilnomalar – "Xudoynamak"lar (Hukmdorlar tarixi)ni jiddiy o'rganish va arab tiliga tarjima qilish natijasida islom mintaqasida avval arab, so'ng fors tilida mustaqil fan sifatida shakllanib, keng urf bo'lgan tarixshunoslik, ya'ni dunyo tarixiga oid ko'p jildlik asarlar yozish an'anasi edi.

3. Islomgacha bo'lgan arablar.

Islomgacha bo'lgan arablarda san'at obidaları deyarli yo'q desa bo'ladi. Ammo she'riyat keng quloch yoyganligi ma'lum.



Qasida, hajv, vasfiy she'rlardan juda ko'p namunalar saqlanib qolgan. Qasida arab she'riyatida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)dan 150 yillar ilgari paydo bo'lgan. Qasidalarda qabila boshliqlari maqtalgan, har bir shoir o'z qabilasining shuhratini oshirishga harakat qilgan. Dushman qabila boshliqlarini hajv tig'iga olgan, ba'zan o'z qabilasi va uning boshlig'ini ham qattiq hajv qilib, boshqa qabilalarga sotilib ketgan shoirlar ham bo'lgan. Qasidada shoirlar o'zining sahrodagi sayohati, ko'chmanchilar yashagan manzillari, u yerda o'z mahbubi bilan kechirgan hayoti haqida yozadi. Qasidaning vasf qismida esa o'z tuyasiga mingan holda sahroda sayohat qilib, ovchilik, sahro mo'jizalari haqida hikoya qiladi va tuyani maqtashga yuzlab baytlar bag'ishlaydi. Badaviy shoirlar yaratgan bunday qasidalar soni nihoyatda ko'p bo'lgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, Islomgacha bo'lgan she'riyatning yirik bir vakili arab alifbosining har bir harfiga qofiyalangan mingtadan — jami 28 ming qasidani yod bilgan. Ikkinchi bir kishi hammasining ismi Amr bo'lgan yuzta shoir qasidasini yod bilgan. Arab shoirlari o'z qasidalarini yozishda san'at va mahorat ko'rsatganlar. Masalan, arab alifbosining har bir harfiga qofiyalanadigan alohida-alohida qasida yozish, nuqtasiz harflardan iborat qasida yozish kabilar.

Johiliya davr she'riyatining eng durdonasi yettita shoir tomonidan yaratilgan va "muallaqot" nomi bilan shuhrat qozongan yettita yirik qasidadir. Bu shoirlar: Imruul Qays, Tarafa ibn al-Abd, Zuhayr ibn Abu Salmo, Labid ibn Rabi'a, Amr ibn Kulsum, al-Horis ibn Hallaza va Antara ibn Shaddodlardir.

Johiliyat davrida qo'lyozma arab tilida "maxtuta", ko'pligi "maxtutot" atalib, arabcha "xatta" (chiziq, yozish, ma'nolaridagi) fe'lining majhul sifat doshi bo'lib "yozilgan", "chizilgan" ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida qo'lyozma iborasi qabul qilingan. "Kitob" so'zi ham "yozilgan", "yozuv", "xat" ma'nolariga ega.



Arab qo'lyozma kitoblarining paydo bulishi VII asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Unga qadar arab yozma yodgorliklari toshlarga qisqa-qisqa yo'nilgan matnlar shaklida uchraydi.

Qadimgi arablar somiy xatining ikkita turidan foydalanganlar. Ulardan qolgan yozuvlar Arab yarimorolining shimoliy-garbiy va unga yondosh Suriya-Falastin mintaqalarida uchraydi. Tarixan eng qadimiy yozuvlar 29 belgidan iborat sobiiylar alifbosida bo'lib, u alifbo yozuvlar XIX–XX asr sharqshunoslari tomonidan kashf etilib, nashr etildi.

Arabistonning shimoliy-g'arbiy burchagida yashagan nabatiylar davlatida 22 belgidan iborat nabatiy alifbosi bo'lgan. Undan mustaqil arab alifbosi paydo bo'ldi va u hozirgacha ishlatilib kelmoqda. Janubiy Suriyadan IV–VI asrlarga oid nabatiy tilidagi yodgorliklar topilgan.

V–VI asrlarda nabatiy yozuvi shimoliy Arabistonning hammasida tarqalgan. U Dumat al-Jandala, Tam, Anbar, Hiro, Makka, Yasrib, Toif shaharlariga tarqalgan.

Arablarda, johiliya davri she'riyatining filolog Mufaddal ad-Dobbiy (VIII asr), shoir Abu Tammom, filolog Ibn Qutayba (828–889), Abul Faroj al-Isfahoniy (897–967) tomonidan xatga tushirilishiga, Rasululloh hadislar ustida olib borilgan ishlarga keng yo'l ochib berdi¹⁶. Rasululloh kotiblari Zayd bini Sobit tomonidan amalga oshirilgan Qur'oni karim suralarining xalifa Umar ko'rsatmasi bilan kitob holiga keltirilishi (VII asr) ham shunga misol bo'la oladi.

4. Qur'ondan keyin arablarda, yangi boshqa qo'lyozma kitoblar paydo bo'la boshladi.

VIII asrda anchagina kitoblar yozildi, IX asrda ular soni yuzlab sanalsa, keyinchalik minglab dunyoviy va diniy kitoblar

¹⁶ Қаранг: Ибн Қутайба. Книга поэзии и поэтов. Биографический словарь; Абул Фараж. Книга песен. Антология / пер.с араб. А.Б. Халидова. Б.Я. Шидфар. – М.: Наука, 1980.



paydo bo'ldi. Arab kitoblari, birinchidan, odamlar ongida saqlanib qolgan Islomgacha davr asarlari (ayniqsa she'riyat) asosida vujudga keldi. Ikkinchidan, boshqa tillardan tarjimalar, uchinchidan, ilk Islom davri ijtimoiy tafakkuri va adabiy ijod samarasi sifatida yuzaga keldi¹⁷.

Qur'onning yozma kitob tarzida yuzaga kelishi arab manbalarining xatga tushish jarayonini boshlab berdi. Johiliya davridan qolgan ko'pgina adabiy meros yozma shaklga kirdi. Bunda Qutayba¹⁸ning xizmatlari katta bo'ldi. Bu manbalarni yaratish sohasidagina emas, Ularni tartibga solish, saqlash, qadrlash ishlari ham ancha jadallashdi¹⁹.

Bizga ma'lumki, VII asr 30 yillari va VIII asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy voqealar, buyuk o'zgarishlar, istilolar davri arablar tarixida va Yaqin Sharq xalqlari hayotida juda ko'p o'zgarishlarga olib keldi.

Rum, Eron davlatlarining qo'shilishi buyuk davlatni vujudga keltirdi. Arablar ishg'ol qilgan mamlakatlarda til, madaniy va diniy sohalarida tub o'zgarishlar vujudga keldi. Janubiy-G'arbiy Osiyo, Shimoliy Afrika va Janubiy Yevropaning bir qismida arablar ozchilikni tashkil qilardi. Lekin arab tili asosiy til, ilm-fan tiliga aylandi. Bu tilni o'zlashtirib olgan xalqlar vakillari uning tez taraqqiy etishiga, fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisining o'zgarishlarga yuz tutishiga sababchi bo'ldilar. Arab tili boshqa tillardan kirgan so'zlarni turli yangi ma'nolarda ishlatish evaziga boyib bordi.

Arab fathidan keyin Markaziy Osiyo islomlashtirildi. Din bilan bir qatorda bu yerga arab yozuvi ham kirib keldi va u bu yerda Islomdan avval bo'lgan qadimiy uyg'ur, urxun-yenisey, sug'd, xorazmiy yozuvlarini siqib chiqardi. Arab yozuvi VIII

¹⁷ Хожі Исмадуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислам маданияти. / Қисқача маълумотнома. – Т.: Шарқ, 2005. – Б 8.

¹⁸ Ибн Қутайба филолог (828—889).

¹⁹ Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. / Қисқача курс. – Т.: — 2000. Қаранг: www.ziyouz.com kutubxonasi



asrdan boshlab O'rta Sharq shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari uchun ilm-fan va davlatni boshqarish ishlarida yagona yozuv sifatida qo'llanildi.

Arab yozuvi uzoq davrlar davomida ikki xil vazifani bajarib keldi:

1) barcha xalqlar yozuvi singari Islom dini yaratgan ma'naviy-madaniy taraqqiyot uchun xizmat qildi hamda ilm-fan va madaniyat yodgorliklarini bizning davrimizgacha saqlanib qolishiga sababchi bo'ldi;

2) arab yozuvining grafik asoslari bir xil bo'lishiga qaramay, harflar turli shakllarda taraqqiy etgan. Arab yozuvini qo'llagan xalqlar arab harflarini nafis va chiroyli qilish va takomillashtirishga intilganlar. Natijada Markaziy Osiyo xalqlari qabul qilgan 32 arab harfi bilan yoziladigan xatlar shakl jihatdan 37 taga yetdi²⁰. Arab yozuvining go'zalligiga alohida e'tibor berilgani va uning turli-tuman shakllarda did va nafosat bilan ishlatilishi sababli, arab xati faqat ma'no tashish vositasi emas, balki kishilarga yuksak estetik zavq beruvchi san'at namunasi sifatida mashhurdir. Bunday ajoyib san'at husnixat (kalligrafiya) nomi bilan butun musulmon olamida shuhrat qozongan. Kitob ko'chirish-kitobat maxsus kasb-hunar va san'at hisoblangan. Kotiblik bilan shug'ullangan har bir shaxs o'z zamonasining madaniy-ma'rifiy hayotida katta mavqega ega bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat ahli, yirik madaniyat arbobi hisoblangan.

Markaziy Osiyo, xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi fan va madaniyatning eng qadimiy bir qancha sohalarida yuksak taraqqiyot bosqichiga erishganligi butun dunyo ilm-fan ahli tomonidan e'tirof etilib, tan olinmoqda.

IX—XI asrlarda Markaziy Osiyoda, ayniqsa Buxoro va Xorazmda ilm-fan va tafakkur beqiyos taraqqiy etib, barq urib yashnadi.

²⁰ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан, 3-бет (бу хат турлари шу китобнинг 25—28-бетларида берилган).



XIII–XIV asrlarda mugʻul bosqinchilari Markaziy Osiyo shaharlarini vayron qilib, mamlakatni xarobaga aylantirdilar. Madaniy yodgorliklar oyoqosti qilinib, ilm-fan va maʼrifat xazinasi boʻlmish minglab qoʻlyozma kitoblar kuydirib yuborildi. Lekin shunga qaramay, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayoti toʻxtab qolmadi, ijodkor xalq eng ogʻir va mashaqqatli kunlarda ham oʻz ilmiy-madaniy merosini ardoqlab, avaylab-asradi.

XIV–XV asrlarda Temuriylarning Markazlashgan buyuk davlati (1370–1506) vujudga kelib, mamlakat hayotida ulkan iqtisodiy, siyosiy va madaniy oʻzgarishlar yuz berdi. XV asrda Xirof va Samarqand aniq fanlar, adabiyot, tarix va sanʼat sohasida eng yuqori choʻqqilarga koʻtarildi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulugʻbek, Xondamir, Behzod, Sulton Ali Mashhadiy va Mirzo Boburlar bu davrning buyuk donishmand-allomalari boʻlganlar.

XVI asr boshidan Markaziy Osiyoda Shayboniylar (1500–1598) hukmronligi davrida iqtisodiy va madaniy hayot asta-sekin taraqqiy eta boshladi.

XIX asrga kelib Markaziy Osiyo ruslar imperiyasi tomonidan zabt etildi va bizning milliy-madaniy diniy hayotimizga katta zarar yetkazildi, ayniqsa Shuro tuzumi davridagi qatagʻonlarda minglab noyob, nodir qoʻlyozmalar kuydirib, koʻmib, yoʻq qilib yuborildi.

Shunday qilib, IX asrdan XX asrgacha 1000 yillik tarix davomida Markaziy Osiyo xalqlarining ilm-fan va maʼnaviy madaniyat sohasida yaratgan buyuk merosi bizning davrimizgacha qoʻlyozma kitoblar shaklida qisman yetib keldi. Arab yozuvida kitobat qilingan bu boy madaniy merosimiz asrlar osha nasldan-naslga oʻtib, koʻz qorachigʻiday saqlanib kelgan qoʻlyozma kitoblar tufayligina Markaziy Osiyo xalqlari ota-bobolari, buyuk allomalar yozib qoldirgan maʼnaviy-madaniy merosidan bahramand boʻlmoqdalar. Shu nodir



qo'lyozmalar tufayli yana Markaziy Osiyodagi xalq har bir millat o'z tarixini bila oladi. Nidoyat, shu qo'lyozmalar tufayligina Markaziy Osiyo xalqlari jahon madaniyati tarixiga o'zining beqiyos va ulkan hissasini qo'shdi.

Xulosa qilib aytganda, Islom davri manbalari qadim davrga nisbatan beqiyos darajada boy va ishonchliroqdir. Islom davridan boshlab, aytish mumkinki, masalaga ilmiy yondoshuv imkoni jiddiy tarzda oshadi va millatning ma'naviy kamolot bosqichlari mintaqa madaniyati doirasida aniq tarixiylik kasb etadi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BERILADIGAN SAVOLLAR:

1. Abu Rayhon Beruniyning "Al-osor ul-boqiya anal qarn ul-xoliya" degan kitobini yozishdan maqsadi nima edi?
2. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" haqida ma'lumot bering.
3. Johiliya yoki johliyat nima?
4. Arab yozuvi uzoq davrlar davomida necha xil vazifani bajarib keldi?
5. Markaziy Osiyo, xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi fan va madaniyatning eng qadimiy bir qancha sohalarida yuksak taraqqiyot bosqichiga erishganligi butun dunyo ilm-fan ahli tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda. Bular qaysi soha va sohiblar kim?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абул Фараж. Книга песен. Антология / пер.с араб. А.Б. Халидова. Б.Я. Шидфар. – М.: Наука, 1980.
2. Абдуррахмон Шараф (1925 йил 18 февралда вафот этган). «Зубдатул қисас», 1-жилд, 72-бет.
3. Ибн Қутайба. Книга поэзии и поэтов. Биографический словарь.
4. Имомназаров М. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи (Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма) / - Т.: 2008.



5. Маҳмуд Асад Афанди. «Тарихи дини Ислом», 1-жилд, 72-бет.
6. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихи. – Т.: Фан. 1971.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. Тошкент, ЎзМЭ. 2000 йил.
8. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. / Ўқув қўлланма. – Т.: 2012.
9. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. / Қисқача маълумотнома. – Т.: Шарқ. 2005. – 384 б.

DURDONA



4-MAVZU. QUR'ONI KARIM ISLOM MANBASHUNOSLIGINING ASOSIY MANBAI

Darsning mazmuni: Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga Qur'oni karimning nozil bo'lishi va Islom tarixini o'rganishda asosiy manbai bo'lganligi haqida fikr mulohaza va ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Reja:

1. Qur'oni karim haqida ma'lumotlari
2. Qur'oni karimning kitob holatida jamlanishi
3. Qur'oni karimning asosiy g'oyasi
4. Qur'oni karimning ko'paytirish maqsadida ko'chirilgan qo'lyozmalar

Asosiy tushunchalar: Islom, Qur'oni karim, nozil bo'lishi, Payg'ambar Muhammad (s.a.v), Abu Bakr (r.a), Umar ibn Xattob (r.a), Usmon ibn Affon (r.a), Ali ibn Abu Tolib (r.a), sahobalar, Usmon Mushafi, pergamen, ko'chirish, manbashunoslik, ilmning ziyoda bo'lishi.

1. Qur'on karimi haqida ma'lumotlar

Qur'oni karim islom manbashunoslik fanining eng asosiy manbasidir. Uning ilk qo'lyozma nusxalarini o'rganish, tahqiq etish orqali yangidan-yangi ma'lumotlar yuzaga keladi. Manbashunoslikda har bir manbaning asl nusxasi, ko'chirilgan nusxalari va keyinchalik chop etilgan toshbosma nusxalarining ahamiyati katta.

Ma'lumki, manba va kitoblarning nashr orqali ko'paytirish usuli yuzaga kelguniga qadar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha yozma yodgorliklar qo'lyozma holida ko'paytirilib tarqatilgan. Qur'oni karim ham bosma usulda chop etilishiga qadar islom tarqalgan katta hududlardagi yuqori saviyadagi mohir xattotlar tomonidan qo'lyozma shaklida ko'chirilgan.



Qur'on (arabcha: القرآن o'qimoq, qiroat qilmoq) – musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Islom e'tiqodiga ko'ra, Qur'on vahiy orqali Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) 610–632 yillar davomida nozil qilingan Allohning kalomi (Kalomulloh). Qur'on „Kitob“ (yozuv), „Furqon“ (haq bilan botilning orasini ayiruvchi), „Zikr“ (eslatma), „Tanzil“ (nozil qilingan) kabi nomlar bilan atalib, „Nur“ (yorug'lik), „Hudo“ (hidoyat), „Muborak“ (barakotli), „Mubin“ (ochiq-ravshan), „Bushro“ (xushxabar), „Aziz“ (e'zozlanuvchi), „Majid“ (ulug'), „Bashir“ (bashorat beruvchi), „Nazir“ (ogohlantiruvchi) kabi so'zlar bilan sifatlangan. Islom olamida Qur'on mus'haf nomi bilan ham mashhur. Islom ulamolari Qur'onning 30 xil nom va sifatlarini sanab o'tganlar²¹.

Islom madaniyatiga asoslangan tarixiga oid manbalarda keltirilishicha, Qur'on karim nozil bo'lishi milodiy 610 yil boshlangan. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam 40 yoshlarida Makka shahri yaqinidagi Hiro g'orida chuqur tafakkurga berilib o'tirgan bir paytda Jabroil farishta „Iqro“ („O'qi“) deb boshlanuvchi „Alaq“ surasining avvalgi 5 oyatini keltirdi. Bu jarayon Makkada 13 yil, Madinada 10 yil, hammasi bo'lib 23 yil davom etgan. Qur'onning nozil qilinishi ramazon oyining 27-kuniga o'tar kechasi yuz bergan. Shuning uchun ham bu oy muqaddas hisoblanib, ro'za tutilgan kunning 27-kechasi „Laylatul-qadr“ ya'ni qadrli, ilohiy qudrat namoyon bo'ladigan, bandalarning bir yillik taqdiri hal qilinadigan (qadr – taqdir, o'lchov) tabarruk kecha deb ulug'lanadi.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam Qur'on oyatlarini Jabroildan qabul qilar, boshqa musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olardilar. Yozishni biladigan odamlar, jumladan, Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon,

²¹ Бобохонов Шамсуддин, Қуръони карим (30-пора), Т., 1991; Усмонов М., Қуръони карим ва жаноби Расулуллоҳнинг амаллари, Т., 1992; қаранг: <https://islamansiklopedisi.org.tr/mubalaga>



Ali ibn Tolib, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b (roziyallohu anhular) xurmoning po'stlog'i, yapaloq tosh, katta suyak, teri va shunga o'xshash narsalarga Qur'onni yozib borganlar. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam hayotlik chog'larida yana vahiy tushib qolar, degan umidda Qur'onni jamlab kitob shakliga keltirilmaganlar. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning vafotlaridan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida qolgan.

2. Qur'oni karimning kitob holatida jamlanishi.

Birinchi xalifa Abu Bakr (r.a) davrida ridda murtad (dindan qaytish)ga qarshi olib borilgan qattiq janglarda Qur'onni to'liq yod olgan ko'plab qorilar halok bo'lib, Qur'onning kelajak avlodga saqlanmay yo'qolib ketish xavfi tug'ilgan paytda Umar ibn Xattob (r.a) Abu Bakrga (r.a) Qur'onni kitob holiga keltirib, jamlab qo'yish zarurligini maslahat beradi. Abu Bakr (r.a) bu ishni amalga oshirishni Payg'ambarimiz (s.a.v) bilan ko'p vaqt birga yurgan sahoba, Qur'onni eng yaxshi yod olgan Zayd ibn Sobitga (r.a) topshirdi. Zayd ibn Sobit (r.a), Umar ibn Xattob (r.a) va boshqalar Qur'oni karimni puxta yod bilishlariga qaramay, bu ishning ishonchli bo'lishiga harakat qilib, masjidda: "Kimning qo'lida yozilgan Qur'on bo'lsa va uni Payg'ambar (s.a.v)dan tinglaganiga ikkita guvohi bo'lsa, bizga olib kelsin, Qur'onni jam qilishga xalifaning buyrug'i bo'ldi", deb e'lon qildilar. Ular masjidda o'tirib, guvohlarni tekshirib, nihoyatda aniqlik bilan 1 yildan ortiq vaqtda Qur'on sahifalarini jamladilar. So'ng ko'pchilikka ko'rsatdilar, hamma rozi bo'ldi. Shunday qilib, Umar ibn Xattob (r.a) va Zayd ibn Sobit (r.a) mashaqqatli urinishlardan keyin Qur'onni kiyik terisidan (pergament qog'ozi) ishlangan sahifalarga yozib, Abu Bakrning (r.a) uyiga qo'ydilar. U olamdan o'tgandan keyin sahifalar Umar ibn Xattob (r.a)ning uyida, u kishidan so'ng esa, qizlari — Payg'ambarimiz



sollallohu alayhi va sallamning zavjayi mutaharotlari mo' minlar onasi Hafsa binti Umar (r.a) huzurida qoldi.

Usmon mushafi

Vaqt o'tishi bilan islom dini tarqalgan davlatning chegarasi kengayib bordi. Ko'plab xalqlar islomni qabul qilib, musulmonlar soni ko'paygandan so'ng Qur'onni o'qishda turli kelishmovchiliklar chiqqan boshladi. Bunga Qur'onning "yetti harf" (lahja)da nozil bo'lgani ham sabab bo'ldi. Hadisda ta'kidlanishicha, Jabroil Qur'on oyatlarini turli arab qabilalariga tushunarli bo'lishi uchun yetti xil lahjada keltirgan. Bunda ayrim so'zlar boshqacha shaklda yozilishi va o'qilishiga to'g'ri kelgan. Bu holatni ko'rgan xalifa Usmon ibn Affon (r.a) Hafsa onamizdan Abu Bakr (r.a) davridagi sahifalarni so'rab olib, undan bir necha nusxa ko'chirishga buyruq berdi. Qur'on qiroatida farqli bo'lgan so'zlarda quraysh lahjasiga rioya qilindi.

Nusxalar tayyor bo'lgandan so'ng musulmonlar yashaydigan diyoralardagi markaziy shaharlarga bittadan nusxaga qori qo'shib jo'natildi, hammaga faqat shu nusxadan Qur'onni ko'chirish va shu qoridan qiroat o'rganishga buyruq berildi. Usmon ibn Affon (r.a) Makkaga Abdulloh ibn Soibni (r.a), Shomga Mug'iyra ibn Shihobni (r.a), Kufaga Abdurahmon Sulamiyni (r.a), Basraga Omir ibn Abul Qaysni (r.a) yubordi va har biriga bir nusxadan mushaf berdi. Madinada qolgan mushafdan odamlarga qiroat ta'limi berishni Zayd ibn Sobitga (r.a) topshirdi. Usmon ibn Affonda (r.a) bir nusxa mushaf qoldi. Keyinchalik nusxa ko'chirish yo'lga qo'yilishi jarayonida faqatgina Usmon ibn Affon (r.a) davrida yozilgan nusxalarga suyanish joriy bo'ldi. Pirovardida har bir nusxaning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida "bu nusxa Usmon mushafiga muvofiqdir", deb yozib qo'yiladigan bo'ldi. Qur'on harflarini yozish uslubi bir xilligi ham saqlab qolindi. Qur'on harflariga biror nuqtachalik ham o'zgarish kirmasin, degan maqsadda ulamolar mushaf ichiga hatto gul, daraxt bargi va shunga



o'xshash boshqa narsalarni mutlaqo qo'yib bo'lmaydi, aks holda, o'sha narsalar sahifaga yopishib qolsa, shubha paydo bo'lishi mumkin, deb fatvo chiqardilar.

Qur'onni nuqtalanishi

Qur'onni nuqtalashni Abul Asvad Dualiy amalga oshirdi. U nuqta alomatlarini harflarning usti, osti va o'rtasiga qo'yib chiqdi. Vaqt o'tishi bilan kishilar Qur'onni xato o'qimasliklari va uning qiroati haqida turli ixtilofga tushmasliklari uchun, ulamolar mushaflarga diakritik belgilar (fatha, kasra, zamma) qo'yish kerak, degan fikrga to'xtaldilar. Bu ishni Iroq hokimi Hajjoj ibn Yusuf hukmronlik davrida Hasan Basriy rohimahulloh bajardi. Bunda asl harflarga zarracha o'zgartirish kiritmaslik sharti qo'yildi. IX-asrga kelib Qur'on arab bo'lmagan xalqlar tomonidan ham xatosiz o'qish mumkin bo'lgan holga keldi. Taraqqiyot davri kelib, Qur'onni texnik jihozlar vositasida chop etish masalasi ko'ndalang bo'ldi. Lekin ulamolar avvaliga Qur'onning obro'siga to'g'ri kelmaydi, degan fikr bilan bu ishga ruxsat bermadilar. Ammo vaqt o'tishi bilan musulmonlar ham nashr ishlarini o'zlashtirdilar. Qur'onni chop etishga ehtiyoj ortib bordi va ulamolar kerakli shartlarni qo'yib, Qur'onni chop etishga izn berdilar.

3. Qur'oni karimning asosiy g'oyasi.

Qur'onning asosiy g'oyasi — Alloh to'g'risidagi ta'limotdir. Uning mavzusi va mohiyati insonlar tafakkurida ko'pxudolikka barham berish, yakkaxudolikni targ'ib qilish va islom dinini qaror toptirishdir. Shu bilan bog'liq ravishda unda payg'ambarlar, oxirat, taqdir va boshqalar haqidagi aqidalar bayon etiladi. Alloh Qur'onda o'zining Odamoto, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Ishoq, YA'qub, Muso, Dovud, Iso alayhus salomlar, Muhammad (s.a.v) va boshqa payg'ambarlarini zikr etadi. Ularga yuborilgan din — islom ekani, Tavrot, Zabur, Injil va Qur'on o'zi nozil qilgan ilohiy kitoblar ekani, yahudiylar,



nasroniylar “ahli kitob” deb atab va musulmonlarni ularning e’tiqodlari vahdoniyat ekanini Qur’on oyatlarida qayta-qayta uqtiradi. Qur’onda asosiy ibodat talablari (namoz, ro’za, zakot va boshqalar) belgilab berilgan. Undagi axloqiy va huquqiy normalar keyinchalik shakllangan shariatga asos qilib olingan.

Qur’onda insoniyatning etnik bo’linishi, ijtimoiy tabaqalanishi, ayirmachilik, millatchilik inkor etiladi. Alloh nazdida barcha tengdir. Insonlar Alloh tomonidan millati, nasabi, boyligi, imtiyozi va h.k.ga qarab emas, balki ularning qalbi va qilgan yaxshi yoki yomon amallariga qarab hukm qilinadilar.

Diniy e’tiqodda mustahkam turish, yaxshilik, ezgulik, savob ishlar, mehr-shafqat, miskin va muhtojlarga yordam berish, insonparvarlikni ulug’lash barcha ilohiy kitoblar kabi Qur’onning mazmuni-mohiyatini belgilaydi. Unda tekinxo’rlik, birovlar haqini yeyish, boshqalar hisobiga yashash, poraxo’rlik, ishyoqmaslik, jabr-zulm, o’g’rilik, qotillik, dilozorlik, fitnachilik, kibru havo qoralanadi. Barcha xalqlar bir ota-onaning avlodi ekani eslatiladi.

Ulamolar Qur’on oyatlarini Allohning amrlari va nahiylar (ya’ni mo’min bandalarga buyurganlari va qilmanglar deb qaytarganlari), va’da va va’idlari (ya’ni bandalarga dunyo va oxiratda savob amallari uchun yaxshilik berurman deya qilgan va’dalari-yu, dunyo hamda oxiratda gunoh ishlari uchun azoblayman deb ogohlantirishlari), avval o’tgan ummatlar, payg’ambarlarning tarixlari, halol-harom narsalar, banda qilishi kerak bo’lgan duolar kabi qismlarga bo’ladilar.

Qur’onning boshqa ilmlarga ta’siri

Qur’on kalom ilmining shakllanishi va rivojlanishida birinchi manba bo’ldi. Abu Hanifa “al-Fiqh al-akbar”, Abu Mansur Moturidiy “Kitob at-tavhid”, Abu Hafs Nasafiy “Aqoid an-Nasafiy” asarida olg’a surilgan islom ta’limotiga oid o’z fikrlariga dalil sifatida Qur’on oyatlarini keltiradilar. Qur’on



fiqhiy hukmlarni qabul qilishda asosiy va birinchi manba hisoblanadi. Undan keyin esa sunnat, ijmo, qiyos turadi. Qur'onda kelgan hukm shariatda farz sifatida qabul qilinadi.

Dunyoviy ilmlar

Arab tili grammatikasi va adabiyotining rivojlanishida Qur'onning o'rni beqiyos. Qur'on uslubi (qofiyalashtirilgan she'riy proza – saj'da yozilgan) keyingi arab adabiyotiga, umuman sharq adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qur'on ilmlari rivojlanishi jarayonida aniq grammatik qoidalarga nisbatan paydo bo'lgan ehtiyoj bu sohaning taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Qur'on faqat arab tilida emas, balki islom tarqalgan mamlakatlar xalqlarining tillarida yaratilgan asarlarda ham o'z aksini topdi. Xususan, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adabiyot namoyandalari asarlarida Qur'ondan olingan iqtibos, ibora, hikoyat, zarbulmasallarni uchratish mumkin. Qur'on musulmon xalqlar hayoti, tarixi, ilmi, adabiyoti, turmush tarzi, qonun-qoidalari, urf-odatlar va dunyo qarashlarida o'zining salmoqli ta'siriga ega.

Qur'on ilmlari

Ulamolar Qur'onni tushunish uchun zarur bo'lgan fanlar majmuasi – Qur'on ilmlaridan nosix va mansux (bekor qiluvchi va bekor qilingan oyatlar) (qarang Nasx), asbob an-anzul (oyatlarning nozil bo'lish sabablari), tafsir kabi sohalarni sanab o'tganlar.

Tafsir ilmi

Tafsir Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) davridayoq yuzaga kelgan. Eng birinchi mufassir (tafsirchi) Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning o'zlari bo'lib, odamlarga Qur'on ma'nolarini bayon qilib berardilar. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)dan keyin Abu Bakr (r.a), Umar ibn Xattob (r.a), Usmon ibn Affon (r.a), Ali ibn Abu Tolib (r.a) mufassir bo'lgan. Shuningdek, Abdulloh ibn Abbos (r.a) (690 yil m.y.), Abdulloh ibn Mas'ud (r.a) (654 yil m.y.), Ubay ibn Ka'b (r.a) (VII-asr), Anas



ibn Molik (r.a) (712 yil m.y.) kabi sahobalar ham ilk mufasssirlardan hisoblanadi. Tobein mufasssirlardan Mujohid ibn Jabr Makkiy (723 yil m.y.), Ikrima Abu Abdulloh al-Barbariy (723 yil m.y.), Said ibn Jubayr (714 yil m.y.), Ato ibn Abi Raboh (734 yil m.y.) kabilarni zikr etish mumkin. Sahoba va tobeinlar davrida tafsir og'zaki rivoyat va naql shaklida bo'lib, kitob tarzida yozilmagan. Muhammad ibn Jarir Tabariy (923 yil m.y.), Abu Mansur Moturudiy (944 yil m.y.), Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad an-Nasafiy (1310-yil m.y.) kabi yirik mufasssir ulamolar o'zlarining tafsir kitoblarini yozdilar.

Afsuski, islomda paydo bo'lgan turli fiqqlar Qur'onga o'z ta'limotlariga mos ravishda tafsirlar yoza boshladilar, zero tafsirchilik mufasssirning dunyoqarashi bilan bog'liqdir. Ammo islomning sof ta'limotiga zid bo'lgan tafsirlar vaqt o'tishi bilan yo'qolib, ularning nomi va mualliflari haqidagi xabarlar manbalarda saqlanib qolgan. Tarixda Qur'onning islom jamiyatidagi ulkan mavqeidan turli fiqqlar o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanish holatlari ko'plab kuzatilgan. Ulamolar esa ularning bunday noto'g'ri talqinlariga qarshi doimiy ravishda o'zlarining xolis fikrlari bilan kurashib kelganlar. Qur'onni g'arazli talqinlardan xoli tutish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Nozil bo'lish sabablari

Qur'on sura va oyatlarining nozil bo'lish tartibi voqealarning rivojiga qarab davom etgan. Ilk islom davrida nozil bo'lgan suralar, asosan, Allohning yagonaligi, borliqning mutlaq ilohi, dunyodagi barcha narsalar uning borligidan darak beruvchi dalil ekani, islom ta'limotida belgilangan aqidaviy tushunchalar — farishtalar, payg'ambarlar, muqaddas kitoblar, oxirat, jannat va do'zaxning haqligi to'g'risida edi. Payg'ambar va musulmonlarga og'ir kelgan Makka davrida sabr-bardoshga chaqiruvchi, din yo'lida chekilgan mashaqqatlar uchun ulug' ajru mukofotlar borligi haqidagi oyatlar nozil etilgan bo'lsa,



musulmonlar jamoasi shakllangan Madina davriga diniy marosim va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga bag'ishlangan oyatlar to'g'ri keladi. Payg'ambarga diniy masalalar bo'yicha berilgan savollarga u vahiy orqali nozil qilingan oyatlar bilan javob berar edi.

Qur'on tarjimalari

Qur'on XII-asrdan Yevropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlangan. Fransuz sharqshunosi Andre dyu Riye tomonidan qilingan fransuz tilidagi tarjimasi 1647-yil Parijda chop etildi. Shu tarjima asosida Pyotr I buyrug'iga binoan Qur'on rus tiliga o'girildi va 1716-yil Peterburgda chop etildi. Fransuzcha tarjima ko'p tillardagi nashrlarga asos bo'ldi.

Qur'on XVIII-asr boshlarida Yevropa xalqlari tillaridan, XIX-asr o'rtalaridan arabcha asl matndan rus tiliga tarjima qilingan. Arabchadan G.S. Sablukovning dastlabki ruscha tarjimasi Qozonda 3-marta (1878, 1894, 1907) nashr qilingan. Qur'onning rus tilidagi adekvatik-adabiy tarjimasi ilmiy izohlari bilan akademik I.Y. Krachkovskiy tomonidan amalga oshirilgan va uning vafotidan keyin (1963) nashr qilingan.

Hozirgi kunga qadar Qur'onga 1700 xil tafsir yozilgan. Jumladan, Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning bir necha jilddan iborat "Tafsiri hilol" nomli asari (Toshkent, 1992 – 2005), Abdulaziz Mansurning "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" (Toshkent, 2004) o'zbek tilida chop etilgan. Qur'on 100 dan ortiq tilga tarjima qilingan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Alouddin Mansurning "Qur'oni karim"ning o'zbekcha izohli tarjimasi (Toshkent, 1991), Abdulaziz Mansurning "Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi" (Toshkent, 2001), Mutallib Usmon va boshqalarning "Qur'oni karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar" (1-kitob, Toshkent, 2004) kitoblari chop etildi. Shuningdek, ko'zi ojizlar uchun Qur'onning bo'rtma harflar (brayl yozuvi)da alohida 8 jildli kitobi nashr qilindi (2004).



4. Qur'oni karimni ko'paytirish maqsadida ko'chirilgan qo'lyozmalar

Qur'onning Usmon mushafi va Katta Langar Qur'oni kabi ko'plab qo'lyozmalari mavjud bo'lib, ular Qur'onning eng noyob va qadimiy qo'lyozmalari hisoblanadi. Shu kabi nusxalar O'zbekiston, Misr, Turkiya, Rossiya, Eron kabi qator dunyo mamlakatlari fondlarida saqlanmoqda. Jumladan, tarix fanlar doktori M. Hasaniyning ta'kidlashicha, O'zbekiston Fanlar akademiyasi sharqshunoslik institutida Katta Langar nusxasi va undan keyinroq IX asrda kufiy xatida ko'chirilgan №579 raqami ostida saqlanayotgan Qur'onning qadimiy qo'lyozmasi saqlanadi. Mazkur qo'lyozma Baqara surasining 22-oyatidan boshlangan bo'lib, bundan avvalgi oyatlar matni yo'qolgan va keyinchalik boshqa xattot tomonidan suls xati bilan to'ldirilgan. Nusxa Masad surasi bilan tugaydi. Qolgan suralar ham boshqa kotib tomonidan yozib qo'yilgan. Qur'oni karimning bu qo'lyozmasining xotimasi yo'qligi sababli uning ko'chirilish muddati va o'рни ko'rsatilmagan. Biroq, qo'lyozmaning matn xususiyatlari va yozuv belgilariga qarab, uni IX asrning boshlarida ko'chirilgan, deb hisoblash mumkin. Qur'on qo'lyozmalarining tahlili matnlarning IX asrdan boshlab kufiydan suls xatiga almasha boshlaganligini ko'rsatadi.

Mazkur qo'lyozma kufiy xatida bitilgan bo'lsa-da, unda suls xatining belgilari ham yaqqol ko'rinib turadi. O'zR FASHI fondida Qur'oni karimning o'z davrida Muhammad Porso (vaf. 1420-y.), Sadr Ziyo (1867-1932), Muhammadali xalfa Sobir o'g'li, Qo'qon xoni Xudoyorxon, Xiva xoni Muhammad Rahimxon – Feruz (1864-1910), qozi kalon Burhonuddin Sadr (vaf. 1315/1897-1898-y.) kabi shaxslarning kutubxonalariga mansub bo'lgan san'at asari darajasida ko'chirilgan noyob qo'lyozmalari mavjud.

Qur'oni karimning qadimiy qo'lyozma nusxalari O'zbekiston mustaqilligi yillarida ham kitobat qilinmoqda.



Jumladan, 2004-yilda mashhur xattot Habibulloh Solih tomonidan Toshkentdagi Usmon mushafi teriga qayta ko'chirilgan va hozirda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi fondida saqlanmoqda. Qur'oni karimning qo'lyozma nusxalari Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha kutubxonalarda mavjud bo'lgan. Jumladan, O'zR FASHI fondida Qur'oni karimning 380 ta nodir qo'lyozmalari saqlanadi. Mazkur fond mintaqaning deyarli barcha hududlaridagi 1930-yilgacha mavjud bo'lgan kutubxonalar, madrasalar, xonaqohlarda saqlangan qo'lyozmalar, kitoblarni jamlash natijasida vujudga kelgan. Qur'on qo'lyozmalari nodir nusxalarining yetib kelishida nafaqat mahalliy ziyolilarning, balki diyorimizga kelgan elchilarning ham xizmati katta bo'lgan.

Musulmon dunyosidan kelgan har bir elchi o'z yurtida mohir xattotlar tomonidan ko'chirilgan ajoyib nusxalarni olib kelib, xon yoki saroydagi zodagonlarga hadya ham etganlar. Shubhasiz ular orasida Qur'on nusxalari ham bor edi.

Bu masalani o'rganish hozirgi kunda qur'onshunoslik, manbashunoslik, kutubxonachilik, davlatchilik tarixi va boshqa sohalarda yangi ma'lumotlarni yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Qur'on bosmaxonalar tashkil etilishi bilan yana yangi bosqichni bosib o'tdi. Musulmon olimlari va ommasi tomonidan dastlab bu masalaga ikkilanish va shubha bilan qaraldi. XIX asr boshlarida Istanbulda Usmonli turk sultonining sa'y-harakatiga qaramasdan muftiyning rasmiy fatvosi faqat Qur'ondan tashqari boshqa diniy kitoblarga chiqarildi. Natijada, Qur'on ma'lum muddat xattotlar tomonidan ko'paytirilishi davom ettirildi.

Shuning uchun Qur'onning matbaalarda bosilishi dastlabki davrda faqat Yevropa davlatlarida amalga oshirilgan²². Venetsiyada 1537-1538-yillarda Qur'onning birinchi nashri

²² Islom manbashunosligi. O'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: Z. Islomov, D. Maxsudov, J. Tohirov. – T.: Qaqnus media. 2019. – B 41.



chiqarilgan bo'lsa, so'ng Gamburgda 1694-yilda nashr etildi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Rimda, taxminan 1499-1538-yillar oralig'ida ham chop etilgan. Lekin ushbu nashr Usmon mushafiga mos emasligi sababli nashrni man etishga buyruq chiqarilgan. 1125/1694-yil nashr etilgan Gamburg nusxasi protestantlik oqimiga mansub Ebraxam Xinklman tomonidan nashr etilgan. Mazkur nashr 560 sahifadan iborat bo'lgan, unda suralarning nomi, matnda imloviy xatolarga yo'l qo'yilgan. Nashrning bir nusxasi Misrdagi "Dor al-kutub al-Misriya" fondida №176 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Rim nashri 1698-yil amalga oshirilgan bo'lib, u ikki qismdan iborat: birinchi qismi Qur'on matni va tarjimasi, ikkinchisida ilovalar berilgan. Ushbu nashr italiyalik ruhoniylar Ludviko Marachchi tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ilgarigilardan harflarni aniq ifodalash kabi bir muncha sifati yaxshilanganini ko'rsatadi²³.

Shuningdek Qur'on qo'lyozmalari o'zining qadimiyligi, xatining nafisligi, chiroyi, mukammalligi va yaxshi saqlangani bilan ham ajralib turadi. Qur'onning yana shunday qo'lyozma nusxalari borki, ularda ham ma'nolar tarjimasi, ham tafsirlari (biz uchratgan aksar tafsirlar mavlono Husayniyga tegishli) mavjud. Nusxalar orasida "Sababi nuzul" matni bilan berilganlari ham salmoqli o'rin tutadi. Qur'on qo'lyozmalari orasida varaqlari tushirilgan, to'liq ko'chirilmagan, muqovasiz va boshqa kamchilikka ega bo'lganlari ham mavjud bo'lsa-da, lekin ular ozchilikni tashkil etadi. Izlanishlar jarayonida hamyonga solish uchun qulay, muqovasiga temirdan ishlov berilgan, hadya uchun bejirim ishlangan, sovg'a uchun katta hajmda yasalgan va shu kabi boshqa ko'rinishga ega Qur'on nusxalariga ham duch kelindi.

Qur'oni karim qo'lyozmalari asosan Markaziy Osiyo hududida joylashgan qator shaharlarda, jumladan, Buxoro,

²³ Qur'onshunoslik. Ўқув қўлланма. Абдуллаев А.Ф. – Т.: Тошкент ислом университети. 2011. – Б 46-48.



Samarqand, Xorazm, Kesh, Nasaf, Balx, Toshkent, Xo'qand kabi va boshqa ularga qo'shni bo'lgan Qozon, Bombay, Lohur, Afg'oniston, Istambul, Eron, Misr o'lkalarida ko'chirilgani ma'lum bo'ldi²⁴.

Bugungi kunda Qur'oni karimning boshqa qadimiy nusxalarini O'zbekistonning boshqa fondlarida ham ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, Qur'oni karim qo'lyozma va toshbosma nusxalari O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi manbalar xazinasida ham mavjud. Mazkur fondda Qur'oni karimning jami 26 qo'lyozmasi va 14 toshbosma nusxasi saqlanmoqda. Qo'lyozma nusxalar asosan XVII asr birinchi yarmi – XIX asrlarga mansub bo'lib, asosan Markaziy Osiyolik xattotlar tomonidan nasx xatida, Sharq qog'oziga ko'chirilgan. Xazinadagi Qur'on qo'lyozma matnlari asosan yakka o'zi kitobat etilsa-da, ba'zan oxirigacha ko'chirilmagan, faqat ma'lum suralargina ko'chirilgan, boshqa mantlar bilan bir jildda tikib yuborilgan. Masalan: 1048/1638-yilga oid inventari №128 dan 135 gacha bo'lgan tartib raqamlarida ro'yxatga olingan nusxalarda Qur'oni karim suralarining jami sakkiz (17,18,19,25,26,27,29,30) juzlari bir xil o'lchamda alohida-alohida kitobat etilgan²⁵.

Shuningdek, O'zbekiston Musulmonlari Idorasi qo'lyozmalar fondida ham Qur'oni karimning bir qator qo'lyozma va toshbosma nusxalari saqlanayotgani aniqlangan. Bu fond o'zining noyob qo'lyozma va toshbosma kitoblari bilan ko'pchilik mutaxassislarning e'tiborini tortib ulgurgan. Xazina nafaqat O'zbekiston balki xorijlik mutaxassislarning ham e'tiborini torta olgan. Mazkur fondda Qur'oni karimning jami 350 dan ortiq qo'lyozma nusxasi saqlanib kelinmoqda. Ularning

²⁴ Тошкентдаги ҳазрат Усмон Мусҳафи тарихи. Тузувчилар: А. Усмонов, М. Ғуломов. – Т.: Мовароуннаҳр. 2016. – Б 208.

²⁵ Қуръоншуносликка оид илмлар. А. Абдуллаев. – Т.: Мовароуннаҳр. 2016. – Б 127.



100 dan ortig'ida faqat Qur'oni karimning matni bo'lsa, qolgan nusxalar ma'lum sura, juz, haftiyak hamda boshqa asarlar bilan bir jildda kitobat etilgan nusxalardir. Qur'oni karimning bu qo'lyozmalari VIII asrdan to XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davriy chegarani qamrab olib, suls, nasx, rayhoni, hijoziy, kufiy hamda nasta'liq xatlarida ko'chirilgan. Ulardan tashqari Alisher Navoiy Milliy kutubxonasi fondi, Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet kutubxonasi, Alisher Navoiy nomli muzey fondi, Imom al-Buxoriy Xalqaro markazi fondi, G'afur G'ulom nomli Farg'ona viloyati adabiyot muzeyi shuningdek, Buxoro viloyatidagi Ibn Sino nomli universal kutubxona, Buxoro Davlat muzeyi qo'riqxonasi, Xorazmdagi Avesto bog'i, Ma'mun akademiyasi, Ichan qal'a muzeyi fondi, Samarqand Davlat universiteti fondlarida Qur'oni karim nusxalari mavjud bo'lsa-da, ular katalog shaklidagi kitoblarda ham e'lon qilinmagan²⁶.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qur'on qo'lyozmalarini atroflicha o'rganish orqali avvaldan uning matnini qo'lda ko'chirish bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borilgani, alohida yirik maktablari shakllangani hamda ajib xat durdonalari san'at darajasiga ko'tarilgani haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Demak, islom manbashunosligi sohasida Qur'oni karim qo'lyozma nusxalarini ilmiy o'rganish yangidan-yangi ma'lumot, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun ulkan ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga tegishli izohli lug'at (Glossariy)

Tavrot (ivritcha: תּוֹרָה – “tora” – ta'limot, qonun) – iudaizm dinining muqaddas kitobi. Tavrot 5 ta kitob (Ibtido, Chiqish, Loviy, Sonlar, Ikkinchi qonun)ning umumiy nomi. Iudaizm va islom aqidasi bo'yicha, Tavrot Allohning Musoga a.s Jabroil a.s orqali tushirgan kitobi. Ko'pincha u “Muson qonunlari” deb ham ataladi. Tavrot yozuvlari og'zaki tarzda mil. av. 11–6-asrlar

²⁶ Карамотов Х. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Т.: Фан. 1993. – Б. 13-14.



o'rtasida shakllangan. 5-asrda Falastinda kitob shakliga keltirilgan. Tavrotda dunyoning yaratilishi, Odamato, Momohavo, to'fon, Bobil minorasi va tillar chatishuvi, ilk yahudiy payg'ambarlari, yahudiylarning Misrdan chiqib asirlikdan qutulishi, ularga Falastinni muqaddas yer sifatida berilishi, Musoning xudodan olgan ko'rsatmalari, Yaxvaga sig'inishning boshlanishi, diniy aqida, tartib va marosimlar, yahudiylarning 40 yil Sinay yarim orolda ko'chmanchilikda hayot kechirishi, yahudiylar xudo tomonidan tanlangan xalq ekani bayon qilinadi. Tavrotni asrlar davomida talqin va qayta talqin etish natijasida iudaizmning yana bir muqaddas kitobi – Talmud shakllangan.

Qur'onda Tavrot haqida bir qancha oyatlar bor. Qur'onga ko'ra, Injildagi kabi Tavrotda ham yahudiylardan bo'lmagan Ahmad ismli payg'ambarning dunyoga kelishi haqida aytilgan. Musulmon adabiyotida "Qadimgi ahd" da uchraydigan barcha kitoblarni Tavrot deb ataydilar.

Zabur (arabcha: الزبور) Islomga ko'ra, Dovud alayhissalomning muqaddas kitobi bo'lib, Tavrot va Injil kabi boshqa ilohiy kitoblar qatorida Alloh tomonidan Qur'ondan oldin nozil qilingan muqaddas kitoblardan biridir. Musulmon an'analariga ko'ra, Qur'onda eslatib o'tilgan Zabur Dovudning Zaburidir.

Islomdan oldingi Arabistonning nasroniy rohiblari va zohidlari islomgacha bo'lgan arab she'riyatida mazmur deb nomlangan matnlar bilan bog'lanishi mumkin. Bu boshqa kontekstlarda palma barglari hujjatlariga ham murojaat qilishi mumkin. Bu ba'zilar tomonidan psalterlarga ishora sifatida talqin qilingan.

Yaqin Sharq va Janubiy Osiyodagi ko'plab xristianlar orasida mazmur so'zi (Hindustani मजमूर (Nasta'liq), ज़बूर (Devnagari)) Ibroniycha Injilda Dovudning Zaburlari uchun ishlatiladi.



Injil (arabcha: إنجيل) — Xudo Isoga a.s Jabroil a.s orqali ogʻzaki tarzda nozil qilgan kitob. Shuningdek, Injil Yevangeliya (yunoncha: euangelion — xushxabar) — Iisus Xristos (Iso Masih) haqida hikoya qiluvchi xristianlik asarlarining umumiy nomi. Bibliyaning bir qismi. Yahudiylarning Qadimgi ahdchaan farq qilish uchun Injil Yangi ahd deb nomlangan. Qonunlashtirilgan (cherkov tomonidan “Yangi ahd” tarkibiga kiritilgan) va qonunlashtirilmagan (ibodat chogʻida qoʻllanilmaydigan) asarlarga boʻlinadi. Yunon tilida yaratilgan. 2-asrlardan boshlab yuz yilliklar davomida tarkib topa borgan. 4-asr boshida yaxlit holga kelgan va cherkov tomonidan xristianlarning muqaddas kitobi, deb eʼlon qilingan. Asosiy qismi apostollardan Matfey, Mark, Luka va Ioanning Iisus hayoti va taʼlimoti yoritilgan Injillardan iborat. Injillarda Iisus siymosida insonlar uzoq kutgan va ularga najot yoʻlini koʻrsatib bergan messiya (masiho) ning dunyoga kelishi, oʻz diniy qarashlarini targʻib etishi, koʻrsatgan moʻjizalari, odam zotining gunohlarini yuvish uchun chekkan uqubatlari, xiyonat tufayli ayblanib, chor-mix qilinishi va soʻng qayta tirilishi haqidagi rivoyat hamda xotiralar keltirilgan. Ayrim rivoyatlarda Iisus inson va masih sifatida talqin qilinsa, boshqalarida inson qiyofasidagi Xudo, tirilgandan soʻng esa ota-Xudo huzuriga qaytib borgan oʻgʻil-Xudo deb taʼkidlanadi. Injilda uning tarjimaiy holiga oid voqealar bilan yonma-yon paygʻambarona hikmatli soʻzlari, ibratomuz masallari badiiy uslubda bayon etiladi. Shuningdek, ikki ulugʻ apostol — Petr va Pavelning yahudiylar va majusiylar orasida dinni yoyish maqsadida amalga oshirgan ishlari, koʻrgan mashaqqatlari toʻgʻrisidagi hikoyalar, Qadimgi Rimdagi ayrim yirik shaharlarning fuqarolariga, diniy jamoalarning peshvolariga yoʻllangan maktublari bilan oʻrin olgan. Falastin va ellinlar diyorida Injilning tarqala borishi, Rim imperatori Neron zamonida xristianlarning quvgʻunga uchrashi kabi tarixiy voqealar ham oʻz aksini topgan.



Qur'oni karimda Injil ilohiy kitoblar sirasiga kiritiladi va Xudo Iso Masihga yo'llagan kitob, deb ta'riflanadi. Qur'onga ko'ra, Injilda Muhammadning (s.a.v) tug'ilishi bashorat qilingan, ammo xristianlar Injilning asl matnini buzishgan.

Injil G'arb ma'naviyati va madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan, jahonda eng ko'p tarqalgan va tarjima qilingan asarlar sirasiga kiradi. Injilning ilk bosma nashrlari kardinal Ximenes (1514), Rotterdamlilik Erazm (1516), aka-uka Elzevirlar (1546) tomonidan tayyorlanib, chop etilgan. O'zbek tilidagi to'liq nashri kirill yozuvida 1992-yilda so'zboshi, lug'at, jadval va rangli suratlar bilan birga Bibliyani tarjima qilish instituti (Stokgolm) tomonidan chiqarilgan.

Musulmonlar bunga imon keltiradilar. Bu haqda Qur'onda bir necha oyatlar kelgan. "Va unga kitobni, hikmatni, Tavrot va Injilni o'rgatadi." (Oli Imron surasi 48-oyat). "Ularning izlaridan Iso ibn Maryamni o'zidan oldingi Tavrotni tasdiqdovchi qilib yubordik. Unga Injilni berdik. Unda hidoyat va nur bor. U o'zidan oldingi Tavrotni tasdiqlaguvchidir. U taqvodorlar uchun hidoyat va mav'izadir" (Moida surasi 46-oyat). Qur'onga ko'ra, Injilda Muhammad (s.a.v.)ning kelishlari haqida bashorat qilingan, biroq Injil matni nasorolar tomonidan buzilgan. Lekin o'sha ilohiy kitobning asl nusxasi hozir yo'q. Chunki, Isoning vaqtlarida Injil kitob shaklida bo'lmagan. Hech kim hech narsani yozmagan. U zotdan keyin ba'zi kishilar o'zlari kitob yozib, mana shu Injil, menga vahiy qilindi va uni men yozib oldim, deb chiqdilar. Asta-sekin "Injil vahiy qilinganlar" ko'payib boraverdi. Oxiri borib ularning soni juda ham ko'payib ketdi. Ularning har biri o'zining Injili haq ekanini da'vo qilar edi. Orada gap-so'z, ixtiloflar kuchaydi. Shunda imperator Konstantin milodiy 325 yilda Nikeya (Nisea)da katta majlis chaqirdi. Bu majlisda 2048 patriarx qatnashdi. So'ngra turli jamoalardan 2000 dan ortiq ruhoniylar o'nlab Injillarni ko'tarib keldilar. Imperator majlis ahdi oldiga mavjud Injillardan eng



ishonchlisini tanlab olish vazifasini qo'ydi. Ular uzoq talashib-tortishishlardan keyin 4 dona Injilni tanladilar. Hozirda nasorolar e'tiqod va amal qiladigan Injillar ana o'sha 4 Injildir. 1-Mutto (Matfey) Injili. Bu Injil eng qadimgi Injil hisoblanadi. U Isodan 4 yildan keyin yozilgan. U ibroniy tilda yozilgan edi. Ammo, o'sha asl nusxasi ham hozir yo'q. Hozirgi bori o'shaning tarjimasi. Lekin tarjimon ham, u qaysi matndan tarjima qilgani ham hozirgacha ma'lum emas. Buning ustiga bu Injilning muallifi Mutto Isoning havoriylaridan emasdi. Keyinroq uni xoin Yahuzoning o'rniga saylashgan edilar. 2-Markos (Mark) Injili. Bu Injil yunon tilida Isodan 23 yildan keyin yozilgani aniq. Ammo uni kim yozgani noaniq. Ba'zi nasorolar, uni Pyotr yozgan, deydi. Boshqalari esa, uni Pyotrning o'limidan keyin Markos yozgan, deydi. 3-Luka Injili. Bu kitob Masihdan 20 yil keyin yozilgan. Luka u zotning shogirdlaridan emas. U Polning shogirdi. Uning ustozlari ham Isoni ko'rgan emas. Buning ustiga Pol nasorolikka dushman bo'lgan yahudiylardan edi. Shuning uchun hiyla bilan nasorolikka qarshi ko'p buzg'unchiliklar qilgan. 4-Yuhanno (Ioann) Injili. Bu Injil Isodan 32 yil keyin yozilgan. Ba'zi nasoro toifalari uni Iso (as)ning shogirdlaridan biri Yuhanno ibn Zabdiy yozgan, deydi. 500 taniqli nasoro olimlari ishtirokida yozilgan "Britaniya ensiklopediyasi" bu kitobni, qalbaki kitob, degan. Musulmon shaxs Injilni Alloh tomonidan Isoga tushirilgan ilohiy kitob deb imon keltirmasa musulmonligi qolmaydi. Shu bilan birga musulmon shaxs asl nusxadagi Injilning yo'qligi va hozirgi Injillar buzilgan ekaniga ishonadi. Alloh Qur'onda Isoning tug'ilishidan oldin uning kelajagi haqida quyidagilarni aytgan: "Va unga kitobni, hikmatni, Tavrot va Injilni o'rgatadi" (Oli Imron surasi 48-oyat).

Tavrot Musoga tushirilgan ilohiy kitobdir. U Isoga ham kitob bo'lishini Allohning O'zi aytib turibdi. Tavrot Isoga kelgan dinning ham asosini tashkil etadi. Injil esa, Tavrotni to'ldirib kelgan.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BERILADIGAN SAVOLLAR:

1. Qur'oni karim qachon va kimga nozil bo'lgan?
2. Qur'oni karimning jamlanishi haqida ma'lumot bersangiz.
3. Qur'oni karimning asosiy g'oyasi nima?
4. Movarounnahr va Xurosonda Qur'oni karim asosan qaysi xat turida ko'chirilgan?
5. Mushafi Usmoni qayerlarda saqlangan?
6. Katta Langar Qur'oni haqida nima bilasiz?

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Ал-Қуръон ал-карим маъноларининг таржимаси ва шарҳлар Таржимон ва муфассир — Саййид Маҳмуд ибн Саййид Назир ат-Тарозий ал-Маданий (Олтинхон Тўра). 2-нашр. – Т.: 2002.
2. Бобохонов Шамсуддин, Қуръони карим (30-пора). – Т.: 1991.
3. Ислом манбашунослиги. Ўқув қўлланма. Тузувчилар: З. Исломов, Д. Махсудов, Ж. Тоҳиров. – Т.: Қақнус медиа. 2019. – Б 41.
4. Караматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Т.: Фан. 1993. – Б 13-14.
5. Қуръоншунослик. Ўқув қўлланма. А.Ғ. Абдуллаев. – Т.: Тошкент ислом университети. 2011. – Б 46-48.
6. Абдуллаев А. Қуръоншуносликка оид илмлар. – Т.: Мовароуннаҳр. 2016. – Б 127.
7. Прозоров С.М., Арабская историческая литература в Ираке, Иране и Средней Азии в VII — середине X в. Шиитская историография, М., 1980;
8. Резван Е. А. Коран и его мир, Санкт-Петербург. 2001.
9. Резван Е.А. Коран и его толкования (тексты, переводы, комментарии). СанктПетербург. 2000.



10. Тошкентдаги ҳазрат Усмон Мусҳафи тарихи. Тузувчилар: А. Усмонов, М. Ғуломов. – Т.: Мовароуннаҳр. 2016. – Б 208.
11. ЎзМЭ. Биринчи жилд. Тошкент, 2000 йил.
12. Усмонов М. Қуръони карим ва жаноби Расулуллоҳнинг амаллари. – Т.: 1992.
13. Шайх Исмоил Маҳдум, Тошкентдаги Усмон мусҳафининг тарихи. – Т.: 1995.
14. <https://islamansiklopedisi.org.tr/mubalaga>

DURDONA



5-MAVZU. TAFSIRLAR ISLOMSHUNOSLIK MANBALARI SIFATIDA

Дарсинг мазмуни: Mazkur mavzuda Qur'oni karimning sura va oyatlarining tafsirlanishi, tafsirchi ulamolar (mufasssir), tafsir kitoblarining nomlanishi haqida tarixiy ma'lumotlardan iborat. "Qur'on – Allohning mo'jiza kalomi bo'lib, Muhammad sollallohu alayhi vasallamga vahiy orqali tushgan, tilovati ibodat hisoblanuvchi kitobdir".

Reja:

1. Tafsir ilmining vujudga kelishi
2. Tafsir ilmining maqsadi
3. Manbalarda Islomshunoslik

Асосий тушунчалар: Alloh taolo, Qur'oni karim, ilm, tafsir, mufasssir, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam, sahobalar, tobe'inlar, tafsirchi va tafsirshunoslar, Islomshunoslik, manbashunoslik.

1. Tafsir ilmining vujudga kelishi

Movarounnahrda tafsir ilmi va mufasssirlar haqida so'z yuritishdan avval bu ulkan ilmning kelib chiqishi va rivojlanishi tarixiga bir nazar solaylik.

"Tafsir" so'zi lug'atda bayon qilish, ochib berish va ravshan qilish ma'nolarini anglatadi. Ammo ulamolar istilohida quyidagicha ta'riflanadi:

"Tafsir – inson qudrati yetguncha Qur'oni Karimdagi Allohning murodini o'rganadigan ilmdir".

Bu ulug' ilm Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning davrlarida yuzaga kelgan. Chunki u zoti bobarakot odamlarga Qur'oni karimning ma'nolarini o'z sunnatlari ila bayon qilar, sahobalarning Qur'on oyatlari ma'nosi to'g'risidagi savollariga javob berar edilar. Sahobayi kiromlarga



tafsir ilmi Payg'ambar alayhis salomdan meros qoldi. Lekin ularning bu ilmdagi darajalari turlicha edi. Shuning uchun ham ulardan kimki ba'zi oyatlarning ma'nosini anglashda o'zida hojat sezsa, o'zidan olimroq boshqa sahobalardan so'rab olar edi.

Sahobalardan hazrati Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Mas'ud, Ubay ibn Ka'b roziyallohu anhular va boshqalar tafsir ilmida mashhur bo'lganlar. Alloh taolo O'zi ularning barchasidan rozi bo'lsin. Omin! Tobe'inlar esa tafsirni sahobalardan o'rgandilar. Va ulardan ko'plari bu ilmda shuhrat qozondilar. Masalan: Mujohid ibn Jabr Makkiy, Ikrima, Said ibn Jubayr, Ato ibn Abi Raboh va boshqalar rohmatullohi alay.

Bu ikki asrda, ya'ni sahobalar va tobe'inlar asrida tafsir og'zaki rivoyat va naql shaklida bo'lib, ta'lif qilib yozilmagan edi. Fazilatli shayx Muhammad Fozil ibn Ashur o'zlarining "Tafsir va rijoluhu" nomli kitoblari ta'kidlashlaricha, tafsirdan birinchi kitob yozgan shaxs 149 hijriy yilda vafot etgan Abdulmalik ibn Jurayjdurlar. Mazkur kitob ta'lif etilgandan boshlab tafsir ilmi yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davr kitoblar ta'lif qilish davridir. Bu davrning avvalida Muhammad ibn Jarir Tobariy, Yahyo ibn Salom, Abu Bakr Nisoburiy va boshqa mufasssirlar shuhrat topdilar. Tafsir ilmi kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonida bir necha qismlarga bo'linib ketgan. Biz bu qismlardan ba'zilarini zikr qilib o'tamiz:

Birinchi qism - "Tafsir bil ma'sur". Bu qismdagi tafsirda mufasssirlar Qur'on oyatlarini rivoyat qilgan sahih hadislar va sahobalarning qavllari bilan tafsir qiladi. Bu uslubda yozilgan tafsirlarning mashhurlari quyidagilar: Imom Muhammad ibn Jarir Tobariyning "Jomi'ul bayon fi tafsiril Qur'on", imom Abu Muhammad Husayn ibn Mas'ud ibn Muhammad Bag'aviyning -"Ma'olimut-tanzil", imom Imoduddin Ismoil ibn Kasirning "Tafsirul Qur'onul azim", imom Jaloliddin Suyutiyning "Addurul mansur fi tafsir bil ma'sur" kitoblari.



Ikkinchi qism – “Attafsir bir-ray”. Bu qismda mufasssir o‘z fikri va ijtihodi ila tafsir qiladi va u ikkiga, joiz va g‘ayri joizga bo‘linadi. Joiz bo‘lgan ray bilan tafsir qilishda mufasssir ishonchli masdarlarga suyangan holda jaholat va zalolatdan uzoqda bo‘lib tafsir qiladi. Joiz bo‘lmagan qismda esa mufasssir jaholat, bid‘at va zalolat bilan tafsir qiladi, shuning uchun ham, barcha allomalar bu navdagi tafsirni man qilganlar. Joiz bo‘lgan ray bilan qilingan tafsirlardan mashhurlarini eslab o‘taylik: imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Faxriddin Roziyning “Mafotihul g‘ayb”, imom Nasriddin Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Ali Bayzaviyning “Anvarut-tanzil va asrorut-ta’viyl”, imom Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiyning “Madorukut-tanzil va haqoiqut-ta’viyl” kitoblari.

Uchinchi qism – “Tafsiri ishoriy”. Bu qismda mufasssir oyatning zohiriy ma’nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozosi bilan tafsir qiladi. Bu faqat suluk va tasavvuf arboblarning uslubidir. Bu qismga doir tafsirlarning mashhurlari quyidagilar: imom Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysoburiyning “Faroibul Qur’on va rag‘oibul Furqon”, imom SHeroziyning “Aroisul bayon fi haqoiqul Qur’on” kitoblari.

Avval ham aytib o‘tganimizdek, tafsir kitoblari juda ham ko‘p. Har zamon, makon, xalq, millat, elat, mazhab va yo‘nalishning o‘z tafsiri bor, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Butun dunyoning, ayniqsa, musulmon olamining Qur’oni karimga bo‘lgan cheksiz qiziqishi ulamolarni doimo uni o‘rganishga, uning tafsirini yozishga chorlab kelgan. Qadimdayoq tafsirlar va mufasssirlar haqida alohida katta-katta kitoblar bitilgani fikrimizning dalilidir. Ushbu muqaddimada tafsir ilmi tarixi haqida o‘ta qisqa ravishda ma’lumot berib qo‘yishni ma’qul topdik, xolos.



Ijzatingiz bilan, endi Movarounnahrda tafsir ilmi va mufasssirlar haqida ikki og'iz so'z yuritaylik. Qadimgi Islom manbalarida hozirgi O'rta Osiyo "Movarounnahr" va "Xuroson" nomlari ila zikr qilingan. Tarixiy Islom kitoblarida Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Koson, Shosh, Farg'ona, Marv, Gurgench, O'zgan va boshqa shaharlarning nomlari ham zikr qilingan. Mazkur shaharlarning barchasi diyorimizdadur, ulardan ko'plari hozirgi vaqtgacha o'z qadimiy nomlari bilan ataladi.

Butun Islom olamiga ma'lum va mashhurkim, bu o'lka barcha ilmlarda, jumladan, Islom ilmlarida ham jahonga dong taratgan buyuk allomalarni yetishtirgan. Mazkur ilmlar ichida hadis, tavhid, nahv, fiqh va boshqa ko'pgina ilmlar bor. Biz esa hozir faqat Movarounnahrda tafsir va mufasssirlar haqida so'z yuritmoqchimiz.

Musulmonlar kelib fath qilganlaridan so'ng, Alloh subhanahu va taolo bu diyorlarni ham Islom nuri bilan munavvar qildi. Yerlik aholi Islomni qabul qilganlaridan so'ng, avvalgi musulmonlar yangi musulmonlarga Islom ilmlarini o'rgata boshladilar. Bu ilmlar ichida tafsir ilmi ham bor edi. Ma'lumki, bu diyorlarning tub aholisi Islomdan avval ham ba'zi bir ilm va madaniyat turlaridan xabardor edilar. Ushbu sababga ko'ra, alloma Ibn Xaldun ta'kidlaganidek, ularda Islom ilmlarini qabul qilish va rivojlantirishga loyiq malaka bor edi. Bir oz vaqt o'tishi bilan muhaddislar madrasasi paydo bo'ldi va ular Qur'on tafsiri to'g'risidagi asarlarni jamlagan birinchi kishilar, deb e'tirof qilindilar. Ularning sardori imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy edilar. "Kashfi Zunnun" nomli kitobda zikr qilinishiga ko'ra, u zot "Tafsiri kabir" nomli alohida bir tafsir kitobi ta'lif qilgan ekanlar, lekin afsuski, mazkur kitob bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramasdan, imom Buxoriy tafsir ilmida ulkan asar qoldirib ketganlar, u zotning "Jome'us-



sahih" kitoblarida Qur'oni Karim tafsiriga oid mingdan ziyod hadis mavjud.

Ikkinchi hijriy asrda tafsir ilmi hadisdan ajrab, alohida ilm bo'lgandan so'ng, Movarounnahrdan ulkan mufassirlar yetishib chiqdilar va shuhratlari butun jahonga taraldi. Ulardan ba'zilarini zikr qilib o'tamiz:

1. Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy. Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tavallud topganlar va 333 hijriy yilda vafot etganlar. Ul zotning aksariyat muallifotlari tavhid ilmida, ya'ni ilmi kalomda bo'lgan. Imom Moturidiy o'zlarining "Ta'viylotu ahlis-sunna" nomli tafsirlarida ilmi kalom ulamolari yo'lidan borganlar va Qur'oni Karim oyatlarini aqiydada Ahli sunna va jamoa mazhabini qo'llab tafsir qilganlar.

2. Imom Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiy. Ul zot Imom Hodiy nomi bilan mashhur bo'lganlar, 373 hijriy sanada vafot etganlar. Imom Abu Lays Samarqandiy ko'plab kitoblar ta'lif qilganlar. Tafsir kitoblarini esa "Bahrul ulum" deb nomlaganlar va bu tafsir "Tafsir bil ma'sur" toifasidandir.

3. Imom Jorulloh Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar Zamaxshariy. Bu ulug' imom Xorazmning Zamahshar qishlog'ida 467 hijriy sanada tavallud topganlar va 538 hijriy sanada vafot etganlar. Ul zot tug'ilgan yurtlarida dafn qilinganlar. (Zamaxshar qishlog'i hozirgi Turkmaniston jumhuriyati Toshhovuz shahridan 30 chaqirim uzoqlikda joylashgan.) Imom Zamaxshariy turli ilmlarga doir ko'plab kitoblar tasnif qilganlari va eng mashhur muallifotlaridan biri «Kashshof an haqiqi va uyunil aqovili fiy vujuhit-ta'viyl» nomli tafsir kitobi bo'lib, u ko'pchilikka "Kashshof" nomi bilan mashhurdir.

4. Imom Fahriddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayin Roziy 534 hijriy sanada Ray shahrida tavallud



topganlar va umrlarining ko'p qismini Xorazmda o'tkazganlar. U kishining "Mafotihul g'ayb" nomli tafsir kitoblari ilm ahli o'rtasida oyatlar orasidagi munosabatlarni va suralar o'rtasidagi bog'lanishlarni bayon qilish va boshqa bir qancha imtiyozlari bilan mashhur bo'lgan. Imom Roziy 606 hijriy sanada vafot etganlar.

5. Imom Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy. Bu ulug' imom Nasaf shahrida tavallud topganlar. (Nasaf shahri hozir Qarshi deb nomlanadi.) Imom Nasafiy 701 hijriy sanada vafot etganlar. Imom Nasafiy o'zlarining "Madorikut-tanzil" nomli tafsir kitoblarini ta'lif qilishda imom Zamaxshariyning "Kashshof" tafsirlaridan iste'foda qilganlar. Imom Nasafiyning "Madorikut-tanzil" nomli bu kitoblari hozirgi kunimizgacha ulamolar va tolibi ilmlar orasida zo'r e'tibor bilan shuhrat topib kelmoqda va ko'pgina Islom o'quv yurtlarida qo'llanma sifatida ishlatib kelinmoqda.

Bundan tashqari, Movarounnahrda "Itqon", "Tafsiri No'moniy", "Tafsiri Tibyon", "Tafsiri Mavlono Charxiy" kabi mahalliy tillarda ta'lif qilingan ko'plab tafsirlar mavjud. Ular tojik, o'zbek, tatar va boshqa tillarda yozilgan. Eslatib o'tmoq lozimki, mazkur mashhur mufasssirlarning kitoblari hozirgi vaqtda O'zbekistonning kutubxona va muzeylarida mavjuddir va jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi kutubxonada ham bor. Bu kitoblardan ulamolar va ilm toliblari Islom va musulmonlar xizmati uchun bo'layotgan ilmiy bahslarida iste'foda qilmoqdalar. Alloh taolo ularning barchalarini O'zi xush ko'rgan va rozi bo'lgan xayrli ishlarga muvaffaq qilsin! Omiyn!

Tafsir ilmi

Tafsir so'zi arabcha – تَفْسِيرٌ, فَسَّرَ, فَسَّرَ so'zidan olingan bo'lib, "bayon qilish", "ochib berish" va "ravshan qilish" degan ma'nolarni anglatadi. Lug'aviy ma'nosining ham tafsir ilmiga aloqasi bor. Chunki tafsir ilmida Qur'oni karimning ma'nolari



ochib beriladi, bayon qilinadi. Shu e'tibordan bu ilmga "Tafsir ilmi" deyiladi. Tafsir ilmiga ikki xil ta'rif berilgan. Qadimgi ulamolarning ta'rifi va mutaaxxir ulamolarlarning ta'rifi. Qadimgi ulamolar tafsirga: "Qur'oni karimning ma'nolari va matlablarini sharhlashdir" deb ta'rif berganlar. Chunonchi, alloma Zarkashiy rahmatullohi alayh tafsir ilmining ta'rifini quyidagicha bayon qiladilar:

هو علم يعرف به فهم كتاب الله المنزل على النبي صلى الله عليه وسلم و بيان معانيه
«واستخراج أحكامه وحكمه»

Ya'ni, "U bir ilmdirki, u bilan Alloh taoloning Nabiylar solum alayhi vasallamga nozil qilingan kitobining mafhumi, ma'nolarining bayoni, uning hukmlari va hikmatlarini chiqarishlik o'rganiladi".

Keyinchalik tafsir ilmi alohida bir ilm shakliga keltirilib, ulamolar tarafidan tafsir ilmiga ham har e'tibordan xizmatlar qilinganidan keyin u ilm nihoyatda keng va o'z ichida ko'p narsalarni qamragan ilm bo'ldi.

Zamonlarning taqozosiga muvofiq unga tafsilotlar ham qo'shib borildi. Tafsir ilmi ushbu tafsilotlarni o'rab olganidan keyin unga berilgan hozirgi istilohiy ta'rifi kuchlidir.

علم يبحث عن كيفية النطق بألفاظ القرآن، ومدلولاتها، وأحكامها الإفرادية والتركيبية،
«ومعانيها التي تُحْمَلُ عليها حالة التركيب و تتماتٍ لذلك»

U Qur'on lafzlarini ado qilishlik kayfiyati (qiroatlar), **uning** (lafzlarining lug'aviy) **ma'nolari**, **uning mufrad va tarkibiy hukmlari** (sarf, nahv balog'at qoidalar), **таркиб ҳолатида далолат қиладиган** (haqiqiy va majoziy) **ma'nolari** **va u ilmning to'ldiruvchilari** (nosix, mansux, nozil bo'lish sabablari va qissalar) **dan bahs qiladigan ilmdir.**

Mutaaxxir ulamolarning bu ta'rifiga binoan tafsir ilmi quyida zikr qilinadigan ishlardan bahs qiladi:

Qur'on lafzlarini ado qilish yo'llari. YA'ni Qur'on lafzlari necha tariqa bilan o'qilishi. Shuning uchun ba'zi mufasssirlar o'zlarining tafsirlarida har bir oyatlarni bayon qilishlari bilan



birga ularning naql qilingan qiroatlarini ham bayon qilib berganlar. Tafsir ilmida qiroatlarni bayon qilishda qiroat ilmidan madad olinadi.

Qur'on lafzlarining ma'nolari. Bundan maqsad Qur'on lafzlarining lug'aviy ma'nolari ham tafsir ilmida bayon qilinadi. Shuning uchun tafsir kitoblarida lug'at olimlarining havolalari ko'plab keltiriladi. Shuning uchun tafsir ilmida lug'at ilmidan to'liq voqif bo'lish zarurati bor.

Qur'on lafzlarining mufrad hukmlari. Bundan maqsad oyatlar qaysi vazn va boblarda kelgan, bu vazn va boblarning xususiyatlari nima. Bularni bayon qilishlikda sarf ilmiga zarurat tug'iladi.

Qur'on lafzlarining tarkibiy hukmlari. YA'ni bir lafz borasida so'z boradi va bu so'z boshqa lafzlar bilan birga bo'lganda qanday ma'noni anglatadi, uning nahv bo'yicha tarkibi nima, oyatda yozilgan harakatlar nima uchun kelgan, bu tarkib topgan lafz qanday ma'noga dalolat qilyapti? Bularni bilish uchun ilmi ma'oni va nahv ilmlarini bilish kerak.

Qur'on lafzlarining tarkib holatida dalolat qiladigan ma'nolari. YA'ni, lafzlar bir-biri bilan birikib gap tuzilgan holda qaysi ma'nolarga dalolat qiladi, oyatlar o'zidan oldingi va o'zidan keyingi oyatlar bilan birga qaysi ma'nolarni anglatadi? Lafzlarning majoziy va haqiqiy ma'nolarini bayon qiladi. Bularni bilishlikda usulul-fiqh, bayon ilmi va hadis ilmlaridan madad olinadi.

Tafsir ilmining to'ldiruvchilari, ya'ni nosix, mansux, oyatlarning nozil bo'lish sababi, Qur'ondagi ishoralar, qissalar va boshqalar. Bularni bilishda Qur'oni karim, hadis va siyrat ilmlaridan madad olinadi.

Tafsir ilmiga berilgan yana bir ta'rif:

«علم يبحث فيه عن القرآن المجيد من حيث دلالاته على مراد الله تعالى بقدر الطاقة البشرية»



YA'ni, Unda inson qudrati yetguncha Alloh taoloning murodiga dalolat qilish jihatidan Qur'oni karimdan bahs qilinadigan ilm.

Tafsir ilmining maydoni shunchalik kengki, unda dunyoning hamma ilmlarining ma'lumotlari qamrab olinganidir.

2. Tafsir ilmining maqsadi.

O'quvchi yoshlarga jamiyat va inson ma'naviy hayotining muhim va asosiy qismi bo'lgan Qur'on va uning ta'limoti, tafsir ilmi tarixi to'g'risida ilmiy-nazariy tushunchalar berish, ularni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, tafsir va uning turlari, ta'limoti, yo'nalishi haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan dunyoqarashni shakllantirish. Tafsir ilmi, uning mohiyati va mazmunini talabalar ongiga yetkazish shu bilan birgalikda talabalarni sog'lom tafakkur va ezgulik g'oyalari bilan tarbiyalashdan iborat.

Tafsir fani islom o'rta maxsus bilim yurtlarida muhim diniy fan bo'lib, tafsir fanining nazariy darslarida avval tafsir ilmi, tafsir kitoblari yozilgani ta'kidlab o'tiladi.

O'rta maxsus islom bilim yurtlarida tafsir fani darslari 2-3-4 kurslarda o'qitiladi. Tafsir darslari ikkinchi va uchinchi bosqichda "Tafsiri Jalolayn" kitobidan, to'rtinchi bosqichda esa "Rovai'ul bayon" kitobidan o'qitiladi.

2-kursda 30-pora, 3-kursda esa mashhur suralar va 29-pora o'qitiladi. Bu talabalarga qo'yilgan me'yoriy talablarga javob berish bilan bir qatorda qiroat fanidan o'tiladigan mavzularga ham mos keladi. Qiroat fanidan yodlangan suralarning ma'nolari va sababi nuzullari tafsir fanida aytib o'tilishi bu suralarning yanada aniq tushunishga zamin yaratadi.

Ma'lumki, o'rta maxsus islom bilim yurti talabalarining ko'p qismi bilim yurtini bitirgandan keyin masjidlarda imomlik yoki noib imomlik qilib kelishmoqda. Shuni inobatga olgan holda



bitiruvchi kurslarga tafsir fanidan hukm oyatlarini o'zida mujassam etgan "Rovai'ul bayon" kitobidan o'qitiladi. Talabalar hukm oyatlarinig nozil bo'lish sabablari va ulardan olinadigan hukmlar hamda fiqhiy masalalarni aynan shu fanda o'rganib borishadi.

3. Manbalarda Islomshunoslik

Islomshunoslik - dinshunoslikning islom tarixi, manbalari va marosimlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi sohasi. Islom dini va uning yozma manbalari paydo bo'lgandan keyin I. islom tarqalgan mamlakatlarda, xususan, Movarounnahrda rivojlandi. Ayniqsa, hoz. O'zbekiston zaminida yetishib chiqqan imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Lays Samarqandiy, Zamaxshariy, Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abdulholiq G'ijduvoni kabi faqih, ilohiyotchi, muhaddis, tafsirchilar boy ilmiy meros qoldirdilar. Islom tarixi va Qur'onni o'rganish Yevropada 9-a.dan boshlangan. Amerika, Yevropa va Rossiya islomshunosligi va Qur'onshunosligida olib borilgan tadqiqotlar ko'pligi, ma'lumotlarga boyligiga qaramay, ularda cheklanganlik, biryoqlamalik bor. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingina I. bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyati tug'ildi. 1992 y.da Toshkent davlat sharqshunoslik in-tida I. kafedrasi, 1995 y.da Toshkentda Xalqaro islom tadqiqotlari markazi, 1999 y.da Toshkent islom un-ti ochildi. Universitet tarkibida I. bo'yicha tadqiqot markazi tashkil qilindi. Bu ilm maskanlari islom dinini har tomonlama chuqur va puxta o'rganish, uning asoslari, ahkomlari, jahon madaniyatining yuksalishiga qo'shgan ulkan hissasini tadqiq qilish va natijalarini keng jamoatchilik diqqat-e'tiboriga yetkazish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. I. fan sifatida Toshkent islom institutida va Toshkent davlat sharqshunoslik institutida o'qitilmoqda.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BERILADIGAN SAVOLLAR:

1. Qur'oni qachon, qayerda va kimga nozil bo'lgan?
2. Tafsir ilmi qachon boshlangan?
3. Qur'oni karimni tafsir qilishdan asosiy maqsad nima?
4. Tafsirchilardan kimlarni bilasiz?
5. O'zbekistonda Qur'oni karim tafsir qilinganmi?

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Qur'oni Karim. Ma'nolari tarjimasi. Tarjimon va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur.

2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6 жилд – Т.: Hilol Nashr. 2023 (2007-2022). 1-жуз 640 бет; 2-жуз 608 бет; 3-жуз 656 бет; 4-жуз 616 бет; 5-жуз 672 бет; 6-жуз 616 бет.

3. Мовароуннаҳрда тафсир ва муфассирлар. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мақоласидан кўчирма.

4. www.ziyouz.com кутубхонаси.

TAVSIYA ETILADIGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. "Madorikut-tanzil va haqiqut-ta'vil" nomli tafsir. Mufassir: Abul-barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiy al-Hanafiy (vafoti 701h.). Stambul nashri. 1324 h.

2. "Bahrul-ulum" tafsiri. Mufassir: Abul-lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiy (vafoti 375 h.). Bayrut nashri. 1993 y.

3. "Anvorut-tanzil va asrorut ta'vil" tafsiri. Mufassir: Qoziy Nosiruddin Abu Said Abdulloh ibn Umar alBayzoviy ash-Shofeiyy (vafoti 685 h.). Stanbul nashri. 1324 h.

4. "Lubobut-ta'vil fi maonit-tanzil" tafsiri. Mufassir: Alouddin Ali ibn Muhammad ibn Ibrohim al-Bag'dodiy asSufiy ash-Shofeiyy (Xozin). Vafoti 735 h. Stanbul nashri. 1324 h.

5. "Jomeul-bayon an ta'vili oyil-Qur'on" nomli tafsir. Mufassir: Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (vafoti 310 h.). Bayrut nashri. 1988 y.



6. "Tafsirul-Qur'onil-azim". Mufasssir: Abul-fido al-Hofiz Ibn Kasir ad-Dimashqiy (vafoti 774 h.). Bayrut nashri. 1988 y.
7. "Imlou mo manna bihir-Rahmon" tafsiri. Mufasssir: Muhibbuddin Abul-baqo al-Ukbary az-zarir al-hanbaliy (538-616h.). Misr nashri. 1306 h.
8. "Azvoul-bayon fi izohil-Qur'on bil-Qur'on" tafsiri. Mufasssir: Muhammad Amin ibn Muhammad Muxtor alJakaniy ash-Shanqitiy (vafoti 1393 h.). Qohira nashri. 1988 y.
9. "As'ila val-ajviba" kitobi. Muallif: Muhammad ibn Abi Bakr ibn Abdulqodir ar-Roziy, "Muxtorus-sihoh" muallifi.
10. "Sahihul-Buxoriy" – Kitobut-tafsir.
11. "Al-hidoya" kitobi. Muallif: Burhonuddin Abul Hasan Ali ibn Abi Bakr ibn Abdiljalil ar-Roshidoni alMarg'inoniy (tavalludi 1123m. vafoti 1197mG'593 h.)
12. "Ta'vilotu Ahlis-Sunna" qo'l yozma kitobi. Muallif: Abu Mansur Moturidiy (vafoti 333 h. G' 944 m.)
13. "Mabohis fi ulumil-Qur'on". Muallif: Mannoul Qatton. Bayrut nashri, 1980y.
14. "Kitobut-Tibyon fi odobi hamalatil-Qur'on". Muallif: Muhyiddin Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy (vafoti 676 h.). Qohira nashri. 1307 h.
15. "Kanzul-ibod" sharhi. Matn muallifi: Shihobuddin as-Suhravardiy ash-shofiiy (tavalludi 587 hG' 1191m.) Shorih: Ali ibn Ahmad al-G'uriy al-hanafiy.



6-MAVZU. SIYARLAR – ISLOM SHUNOSLIKNING MUHIM MANBALARI

Darsning mazmuni: Mazkur mavzuda Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan keyin, u kishining tarixi nubuvatlarni (siyrat) yozish boshlangani va siyrat ulamolari tarixi haqida muxtasar ma'lumotlar berib o'tilgan.

Reja:

1. Payg'ambar alayhissalomning tarixi yozilgan kitoblar
2. Ilmi siyar haqida
3. Rasululloh (s.a.v.)ning muborak siyratlari

Asosiy tushunchalar: Payg'ambar (s.a.v), naslu-nasablari, bolaliklari, uylanishlar, farzandlari, zavjayi mutaharotlari, risolat davri, Rasulullohni (s.a.v) da'vatlari, hijrat, siyrat, tarixi, "Islomda saodat asri", "Nurul yaqin" asarlar.

1. Payg'ambar alayhissalomning tarixi yozilgan kitoblar.

Allohgga hamdu sanolar, Payg'ambarimiz alayhis salomga durudu salavotlar bo'lsin! Zero, Alloh taborak va taolo kalomi sharifida:

"Ey odamlar! Meni yod etingiz, men ham sizlarni yod eturman. Va men sizlarga ato etgan in'omlarim uchun shukr qilinglar! (tashakkur, minnatdorchilik izhor etinglar) in'omlarimni zinhor inkor etmanglar!" (Baqara 152) deb bandalarni noshukr bo'lmaslikka va noshukrchilik qilmaslikka buyurgan. "... agar bergan in'omlaringiz shukr qilsalaringiz (tashakkur izhor qilsalaringiz) albatta, ularni yanada ziyoda qilurman va bordi-yu noshukrchilik qilsalaringiz, albatta azobim juda qattiq (ekanini bilib qo'yinglar!) – deb ogohlantirib qo'ygan (Ibrohim 7).



Darhaqiqat, Allohning bandalari uchun, ularning millati, e'tiqodi, dunyoqarashi, boy yoki kambag'alligi, savodxon yoki savodsiz, ziyoli yoki ziyosizligidan qat'i nazar in'omlari ne'matlari nihoyatda cheksiz va beqiyosdir. Ayniqsa, Uning eng oliy ne'mati in'omi tinchlik va xotirjamlik ekanini hech kim, xususan, dunyoda sodir bo'layotgan noxush voqealardan xabardor bo'lgan insonlar hech qachon inkor etmaydilar. Ayniqsa, biz kabi baholi qudrat din yo'lida xizmat qilayotganlar, aziz vatanimiz misolida tinchlik va xotirjamlikni juda qadrlaymiz. Chunki tinch va osuda hayot bois musulmonlar ibodatlarini emin-erkinlikda, shariatimiz ko'rsatganidek mukammal ado etmoqda.

Tafsir, hadis, fiqh, aqoid kabi diniy fanlarga oid kitoblarning chop etilishi tufayli kundan-kunga xalqimizning diniy savodxonligi oshib, diniy ta'limotni hayotlariga to'g'ri tadbqiq etish imkoniga ega bo'lmoqda. Shuningdek, payg'ambarlar, sahobalar, ulamolar va boshqa ulug' siymolar faoliyati haqida yozilgan bir qator kitoblarning nashr qilinishi musulmonlarning ma'naviy-ruhiy ozuqa olishlariga yaqindan yordam bermoqda. Yosh avlodni vatanga muhabbat, xalqqa sadoqatli qilib tarbiyalashda bu kitoblar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimizning namunali va ibratli hayotlari mash'al kabi yoshlarning hayotiy yo'llarini yoritib ikki dunyo saodati sari yetaklashi aniq. Shu ma'noda ikki olam sarvari bo'lmish Payg'ambarimiz alayhissalomning siyratlarini o'rganish, o'z hayotiga tadbqiq etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan o'n to'rt asr muqaddam Arabiston yarim orolida, Mushriklik ildiz otgan yerda e'tiqodiy yangilanish, poklanishni amalga oshirib eng buyuk tamaddunga asos solgan Payg'ambarimiz alayhissalomning shaxsiyatlari, hayotlari, diniy va ijtimoiy faoliyatlarining turli qirralari haqida o'n uch asrdan beri turli millat vakillariga mansub tadqiqotchilar, tarixchilar, muhaddislar, shoirlar, adiblar, sharqshunoslar qalam tebratib,



son-sanoqsiz kitoblar yaratdilar va bu ish hamon davom etmoqda. Misol uchun, rus adiblaridan Vera Panova xonim o'g'li Yuriy Vaxtin bilan birgalikda “Жизнь Мухаммеда”²⁷ degan kitob yozdi. Uni 1990-yili Moskvada Siyosiy adabiyot nashriyoti ikki yuz ming nusxada chop etdi. Birgina shuning o'ziyoq janob Payg'ambarimiz alayhissalomning siyratlariga qiziqish nafaqat musulmonlar hattoki, g'ayri musulmonlar orasida Hamon yuksak ekanligiga dalolatdir. Bundan tashqari dunyo yaralgandan buyon tug'ilgan hech bir inson hayoti Muhammad (s.a.v)ning hayotlarichalik ipidan ignasigacha tadqiq qilinmagan. Tadqiqotchilar Sahroyi arablar orasida tug'ilgan, yetimlikda voyaga yetgan, yozish-chizishni bilmaydigan, mushrikchilikka asoslangan e'tiqod ayni avjiga chiqqan xalq orasida unib-o'sgan Payg'ambarimiz alayhissalom siyratlarining siru asrorlariga yetolmay hozirgacha hayrondirlar. Bunday ilohiy sirni Alloh o'ziga yaqin bandalarigagina ato kilishini ular qayerdan ham bilsinlar!

Payg'ambarimiz alayhissalom siyratlariga bag'ishlangan kitob ilk bor vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1992-yili Toshkentda chop etildi. U ham bo'lsa Misrlik tadqiqotchi olim Muhammad Huzariy qalamiga mansub “Nur ul-yaqin” nomli (мазкур асар иккинчи марта нашр этилди.)²⁸ asardir. U arab tilidan uyg'ur tiliga va uyg'ur tilidan esa o'zbek tiliga o'girilib “Cho'lpon”, “Kamalak” nashriyotlari tomonidan nashr qilingan. Ushbu kitob XX asrda O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi madrasalarda Islom tarixi fani bo'yicha darslik sifatida xizmat qilgan.

Albatta, bunday siyrat kitoblari Rosululloh sollallohu alayhi va sallam tarixlarni batafsil va sahih tarzda o'rganib chiqishda o'quvchiga ancha yengilliklar beradi.

²⁷ Панова В., Вахтин Ю. Жизнь Мухаммеда. – Москва. Издательство политической литературы. 1990. 496 б.

²⁸ Мухаммад ибн ал-Хузари. Нурул Яқин. – Т.: Гафур Фулом. 2017. 350 б.



Hindistonlik olim Safiurrahmon Muborakfuriy qalamiga mansub ushbu “Ar-Rohiqul maxtum”²⁹ asari Rosululloh sollallohu alayhi va sallamning muattar siyratlarini chuqur va ayni paytda yengil uslubda bayon qilishi, ba’zi siyrat kitoblarida uchraydigan botil va asossiz rivoyatlardan xoliligi bilan ana shunday mumtoz asarlar safidan o’rin olgan. Mazkur asarni mutolaa qilgan har bir o’quvchi o’zi qidirgan narsani topadi, insha Alloh.

Qo’lingizdagi “Islomda oltin davr” kitobi Qohiradagi al-Azhar dorulfununining mashoyixlari tavsiyalari bilan fan doktorlari Ibrohim Ali Shaut va Mahmud Muhammad Zayyoda tomonlaridan ta’lif etilib 1966-yil Qohirada chop qilingan. Mazkur asar O’zbekistonda 2017-yilda o’zbek tilida tarjima qilingan³⁰. Bu kitob al-Azhar dorulfununining shariat va usuli din kulliyotida tahsil oluvchi tolibi ilmlarga Islom tarixi fanidan Darslik sifatida foydalanish uchun tavsiya qilingan. U ikki qismdan iborat: Siyrat va Xalifat. Kitob tarixiy hujjatlarning ilmiy ma’lumotlariga suyanan holda xolislik bilan yozilgan. Uni Payg’ambarimiz alayhissalom siyratlari bilan qiziquvchilar va tolibi ilmlarga muhim tarixiy manba bo’lib qolishidan umidvormiz.

1. Siyrat. Uning ko’pligi siyar. Bu so’z ko’p ma’noli kalimalar sirasiga kiradi. U o’zbek tilidagi tarjimayi hol degan iboradan ko’ra kengroq ma’noni anglatadi. Tarjimayi hol kalimasi shaxsning hayoti va faoliyati haqida yozilgan bayonnoma bo’lsa, siyrat insonning hayot yo’li, yurish-turishi, axloqi, jamiyat o’rtasidagi obro’-e’tibori va mavqei kabi uning muhim jihatlari haqida batafsil yozilgan ma’lumotnomadir.

²⁹ Сафиюрраҳмон Муборакфурій. Ар-Раҳиқул махтум. – Т.: Ғафур Ғулом. 2016. 654 б.

³⁰ Иброҳим Али Шаут Маҳмуд Муҳаммад Зайёда. Исломда олтин давр. – Т.: Ғафур Ғулом. 2017. 605 б.



2. Xalifalik (Xilofat). Lug'aviy ma'nosi birovning o'rnini egallab, ishini uning nomidan davom ettirish demakdir. So'zning istilohiy ma'nosi esa Payg'ambarimiz alayhissalomdan keyin u zotning o'rinlarida turib, U zotning nomlaridan davlatni boshqarmoqlik demakdir. Shuning uchun ham Payg'ambarimiz alayhissalom davrlarida shakllanib bo'lgan islomiy davlatni idora qilganlarni xalifa, deb ataganlar. Keyinchalik xalifa so'zi xon, amir, shox, podshoh, sulton kabi so'zlarning ma'nodoshiga aylanib ketgan.

Tasavvuf piri-murshidlari ham o'zlarining o'rinlariga qolib ularning ishlarini davom ettiruvchilarni xalifa deb ataydilar. Ustodlar muridlari orasida ixtilof chiqmasligi uchun xalifalarini hayotlik paytlaridayoq tayinlab qo'yadilar va boshqa muridlardan farqli o'laroq alohida tarbiyat qilib boradilar.

3. Bay'at. Uning lug'aviy ma'nosi qasamyod qilmoq. Istilohiy ma'nosi esa iymon va e'tiqoddan chekinmaslikka, Payg'ambarimiz alayhissalomni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga, u zotni jonu mollarini dushmanlardan o'zlarini himoya qilgan kabi himoya qilishlikka ont ichmoqlikdir.

4. Sariya. Faqat tunda harakat qiladigan oz sonli askarlar majmuasi. Uning ko'pligi saroyo.

5. G'azot. Yovga qarshi jangni uning yurtida olib bormoqlik demakdir. Uning ko'pligi g'azovotdir.

6. Da'vat. Uning lug'aviy ma'nosi chaqirmoq, chorlamok demakdir. Ammo uning istilohiy ma'nosi imon va islomga undamoqlik demakdir.

7. Fath. Uning lug'aviy ma'nosi ochmoq. Uning istilohiy ma'nosi esa kuch-qudrat vositasida yovni itoat ettirmoq, uni bo'ysundirmoqlik va mag'lub qilmoqlikdir.

2. Ilmi siyar haqida

Hijriy sananing birinchi asri davomida musulmonlar (agar biz Abdulloh bin Amr bin Osni Payg'ambarimiz



alayhissalomdan eshitganini yozib yurganini hisobga olmasak) yangi vujudga kelgan din va unga oid ma'lumotlarni qayd qilib bormaganlar, desak xato qilmagan bo'lamiz. Bunga payg'ambarimiz alayhissalomning: "Mendan hech narsa yozib olmanglar! Kimki mendan Qur'ondan boshqa narsani yozib olgan bo'lsa, uni yo'q qilib tashlasin! Men haqimda so'zlasangiz hech zarari yo'q. Kimki menga qasddan aytmaganimni aytgan, deb yolg'on so'zlasa (tuhmat qilsa) joyini do'zaxdan hozirlab qo'yaversin", degan hadislarini sabab bo'lgan. Sahobalar bu hadisi sharifni eshitganlaridan so'ng Qur'oni karimga boshqa so'zlar qo'shilib qolishligidan qo'rqib, bilgan va eshitganlarini yozib yurishdan o'zlarini tiyganlar. Ammo ular Payg'ambar alayhissalomga tegishli har bir ma'lumotni, u zotning aytgan gap-so'zlarini, qilgan amallarini xotiralarida saqlab yurganlar. Bunday holat hijriy sananing to'qson to'qqizinchi yili xalifalik Abdulaziz Ibn Marvon qo'liga o'tgunga qadar davom etdi. Abdulaziz Ibn Marvon Payg'ambarimiz alayhissalom hadislarini va u zot haqidagi ma'lumotlarni rivoyat qilayotgan ulamolarning aksariyati o'zlarining orqalaridan musulmonchilikka oid ilmlardan hech narsa qoldirmay o'tib ketayotganliklarini ko'rib o'ylab qoladi. Vaziyat shu ahvolda davom etaversa yaqin kelajakda musulmonlar ilmi zoye bo'lib ketishi aniq, degan xulosaga keladi. Shundan so'ng buning oldini olishga jiddiy harakat qilib, o'zining Madinadagi noibi, ko'pchilik imomlarning ustози va peshvosi Abu Bakr bin Hazmga quyidagi mazmunda maktub yo'lladi:

"Payg'ambarimiz alayhissalomning hadislarini jiddiy o'rganing. Ulardan topganingizni yozib oling! Men ilmning zoye bo'lib ketishidan va ulamolarning olamdan birin-ketin o'tib ketishlaridan xavotirdaman. Faqat Payg'ambarimiz alayhissalomga tegishli ekani aniq bo'lgan hadislarini olinglar! Ilmni ochiq- oydin targ'ibu tashviq qilinglar, bilmaganga ilmni



o'rgatish uchun majlis qilinglar, zero, ilm sir holda qolsa, halok bo'lg'usidir".

O'z davrida xalifa musulmonlar peshvolaridan biri, Shom va Madina o'lkasining yetuk ulamolaridan Muhammad bin Muslim bin Shahob az-Zuxriyga Payg'ambarimiz alayhissalom hadislarini o'z ichiga olgan kitob ta'lif qilishni buyurdi. Shunday qilib islomiy ilmlarga oid asarlar va xususan, hadisga bag'ishlangan kitoblar ta'lif qilina boshlandi. Mualliflar hadislarini mavzularga ajratmasdan, bob-bob qilmasdan bir kitobga to'play boshladilar. Payg'ambarimiz alayhissalomning tarjimai hollariga oid hadislarini ba'zi bir mualliflar alohida va ba'zi birlari alohida bo'lmagan holda hadislar orasida rivoyat qilaverdilar. Bir qancha muddat o'tgandan so'nggina muhaddislar kitoblarini tartibga keltirib ularni boblarga ajratgan holda, bir Mavzuga tegishli hadislarini bir joyga to'plab kitoblarni tasnif qila boshladilar. Buning natijasida hadis kitoblarida tahorat bobi, namoz bobi, zakot bobi, haj bobi, nikoh bobi, taloq bobi kabi bo'limlar qayd etila boshlandi. Ular orasida Payg'ambarimiz alayhissalom hayotlariga bag'ishlangan bob ham ajratilib unda ul zotning tug'ilishlaridan tortib to payg'ambar bo'lgunlaricha bo'lgan davrlari zikr qilinadi, goho Payg'ambarimiz alayhissalomning payg'ambar bo'lganlaridan keyin Makkada boshlaridan kechirgan mashaqqatlar batafsil bayon qilinadi. U zotning g'azavotlari, jihodlari va atrofi javonibdagi davlatlarga elchilar yuborganliklari haqidagi xabarlar ham naql qilinib, bu bobni "G'azotlar va siyratlar" deb atar edilar. Keyinchalik esa bu bob nomi bilan alohida kitoblar ta'lif va tasnif qilina boshlandi. Ulardan mukammal ta'lif etilgani va bizning davrimizgacha yetib kelgani Ibn Hishomning (213 hijriy sanada vafot etgan milodiy sananing 828 yiliga muvofiq keladi) "Siyrat an-Nabiy" kitobidir. Uni "Ibn Hishom siyrati" deb ham ataydilar. Bu kitob xususida tadqiqotchilar turli fikrdadirlar. Ba'zilar uning aslini Ibn Is'hoq (vafot etgan yili



xijriy 151, milodiy 768 yil) qalamiga mansub bo'lib, u katta hajmdagi kitob bo'lgan, deydilar. Ular Ibn Hishom esa undan unumli foydalanib o'zining siyratini ta'lif etgan va Ibn Is'hoqning mazkur asari boshqa yo'qolib ketgan kitoblar singari bizgacha yetib kelmagan, deb hisoblashadi. Nima bo'lgan taqdirda ham Ibn Hishom tartib bergan siyrat kitobi juda muhim ilmiy manba bo'lib ilmi siyar fanining tamal toshini qo'ygan.

Shu kitobdan ilhomlangan adiblar, tarixchilar va boshqa olimlar ulug' siymolarning manoqiblarini chuqur o'rganganlar va ular haqida alohida kitoblar bitganlar. Podshohlar, amirlar, xonlar, sultonlar va boshqa hukmdorlar haqida yozilgan asarlar so'zsiz Ibn Hishom kitobining samarasidir. Qo'lingizdagi ushbu kitobni al-Azhar dorulfununi qoshidagi Islom ilmiy tadqiqot markazi ulamolari yuksak baholagan va uning oliy o'quv yurtlarida darslik sifatida o'qitilishi al-Azhar ilmiy akademiyasi tomonidan tasdiqlangan. U mazmun va mohiyat jihatidan muhim ahamiyatga molik bo'lib, Payg'ambarimiz alayhissalomning hayotlarinigina emas, balki arab millatining shakllanishi va uning tarixi, arablarning milliy urf-odatlarini, ananalari, ular yashagan o'lkalarning jug'rofiyasini o'rganish borasida ham muhim ilmiy manba sanaladi. U shubhasiz, Payg'ambarimiz alayhissalom siyratlari, sahobalarning olib borgan ishlari va ilk Islom tarixini o'rganishga qiziqqan o'quvchilar va tolibi ilmlarni befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

3. Rasululloh (s.a.v.)ning muborak siyratlari.

Islom tarixida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning (bundan keyin u zotni Rasululloh (s.a.v.) deb ataymiz) siyratlari (tarjimayi hollari) ko'p marta tilga olingan mavzulardan sanaladi. Rasululloh (s.a.v.)ning muborak siyratlari haqida turli tuman din va madaniyat vakillari qalam tebratgan va bu jarayon hamon davom etib kelmoqda. Ular



Rasululloh (s.a.v.) ning shaxsiyatlarida dahó va ulug' insonlarga xos fazilatlar mujassam ekanligining sir-asrorini bilish, u zotning aynan arab millati orasidan zuhur qilishlarining hikmatlarini anglab yetish va ulkan muvaffaqiyatlarining sabablarini chuqur tushunib olish umidida ham Rasululloh (s.a.v.)ning muborak siyratlarini bahs va munozara maydoniga aylantirganlar. Vaholanki, bu paytda arab millatining kelajagi porloq ekani va turli millatlar orasida yuksak maqomga ega bo'lishi hech kimning xayoliga ham kelmagan edi.

Rasululloh (s.a.v.)ning siyratlari va u zotdan so'ng yashab o'tgan sahobayi kiromlarning bizga meros qilib qoldirib ketgan turmush tarzlarining asoslarini tadqiq etishni boshlar ekanmiz, shu fursatdan foydalanib, bizdan oldin o'tganlar kabi imonu e'tiqod, hikmatu donish bilan yo'g'rilgan, kurashu qurbon berishlarga to'la Payg'ambarimiz alayhissalomning hayotlarini tadqiq etishga o'z hissamizni qo'shib, butun hayotini bashariyatni zalolat botqog'idan qutqarishga sarf qilgan zotning hayot yo'lini tolibi ilmlarga batafsilroq tushintirib bermoqchimiz. Zero, Rasululloh (s.a.v.)ning hayot yo'llari yoshlarga namuna va ibrat bo'lishi aniq. Shuningdek, biz o'quvchilarga Islomning ilk davridayoq uning orasiga suqilib kirib olgan xusumatchilarning nayranglari, Islom aqidasi va unga e'tiqod qiluvchi musulmonlarga nisbatan hasadgo'ylarning fitna va buzg'unchiliklari haqida aytib bermoqchimiz. Chunki islom dushmanlari mo'minlarda o'z dinlariga va birinchi rahnamolarining shaxsiyatlariga, u zotning amalga oshirgan ulkan ishlariga ta'na toshlarini otib, ularning qalbida shubha uyg'otishga intilganliklarini so'zlab bermoqchimiz. Biz mana shu ta'na toshlarining yo'liga g'ov bo'lishga harakat qildik va biror muarrixni haqiqat yo'lidan og'ishgan paytida tolibi ilmlarga: To'xtang, ogoh bo'ling, bu muarrix samimiy emas! U diniy mutaassiblik yoki siyosiy aqidaparastlik yoki



musulmonlar rahnamolariga nisbatan ig'vo va hasad uyg'otishni maqsad qilib olgan badkirdor rivoyatchi, - dedik.

Biz endi barcha musulmon birodarlarimizning saflarini birlashtirishga va o'zaro ularning ixtiloflariga barham berish yo'lida qadam tashladik. Maqsadimiz yoshlarimiz qalbida ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan islomiy javonmardlik tuyg'usini tuydirish, Moziydagi kurashlarimizni eslatib, tariximiz bilan faxrlanish hissiyotini uyg'otishdan iborat. Toki ular din va millat manfaatlaridan kelib chiqib, yangi xayot qurib uning samarasidan bahramand bo'lsinlar.

Hozirgi zamon yoshlari o'z ajdodlarining hayotlarini chuqur o'rganish, ularning mardonavor kurash yo'llari bilan yaqindan tanishishga bel bog'lasalar, biz aminmizki, ular so'zsiz davlat miqyosida ham, taraqqiyot maydonida ham beqiyos natijalarga erishishlari aniq.

Yosh avlodni tarbiya qilishda ota-bobolarimizning dunyo miqyosida ulug' siymolar va tengsiz ulamoyu fuzalolar bo'lganliklari bilan tanishtirishdan ham afzalroq yo'l bormikan!?

Alloh taolodan boshlanayotgan juda ahamiyatli bahsimizni oson qilishini ezgu va xayrli ishimizda madadkor bo'lishini va muvaffaqiyat ato qilishini so'rab qolamiz. Zero, U tavfiq va hidoyat sohibidir.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BERILADIGAN SAVOLLAR:

1. Аллоҳ таоло Қуръони каримда шукроналик ҳақида нима деган?
2. Қайси сийрат китобларни биласиз?
3. Пайғамбаримиз (с.а.в) сийратларини ёзиш қачон бошланган?
4. Сийрат уламоларига Росулulloҳ (с.а.в) тарихи нубуватларини ёзишдан асосий мақсадлари нима эди?

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абдул Азим Зиёуддин. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам ва аҳли байт. – Т.: 2014. Тошкент ислом университети. 94 б.
2. Алихонтўра Соғуний. Тарихи Муҳаммадий. 2-нашр. – Т.: 1997. Мовароуннаҳр, Abdul Bosit. 637 б.
3. Иброҳим Али Шаут Маҳмуд Муҳаммад Зийёда. Исломда олтин давр. – Т.: Ғафур Ғулом. 2017. – 594 б.
4. Муҳаммад ибн ал-Ҳузарий. Нурул яқин. (Расулуллоҳ алайҳиссалом сийратлари). – Т.: Ғафур Ғулом. 2017. – 351 б.
5. Панова В., Вахтин Ю. Жизнь Мухаммеда. – Москва. Издательство политической литературы. 1990. 496 б.
6. Сафиюрраҳмон Муборакфурий. Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи ва саллам сийратлари. Ар-раҳиқул махтум (Муҳрланган жаннат шароби). – Т.: Ғафур Ғулом. 2016. – 654 б.



7-MAVZU. HADIS TO'PLAMLARI ISLOM SHUNOSLIK MANBALARI SIFATIDA

Reja:

1. Hadis to'plamlarining tasnif etilish navlari
2. Hadis asarlarining turlari
3. Buxoriy va Termiziygacha yozilgan ilk hadis to'plamlari

Asosiy tushunchalar: Islom, Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallamning hadisi muboraklari, musulmonlar, "al-Jomi'", "Sahih", "Ma'ojim", "Ajzo'u" hadis turlari, muhaddislar.

1. Hadis to'plamlarining tasnif etilish navlari

Islom dini yer yuziga tarqalib, ko'p o'lka mamlakatlarga islom qadami yetib borgandan keyin sahobalar ham o'sha yurtlarga ilm tarqatish maqsadida tarqalib ketdilar. Shu bilan birga hadislar sahobalar borgan joylarga asl holda, o'zgartirilmasdan tarqatildi. Hadislar ommaviy ravishda musulmonlarning hayotiy ehtiyojiga aylanib, ijtimoiy hayotning turli sohalariga jadal kirib kela boshladi. Hadislarga tayanib ish tutish ommaviy tus ola boshladi. Natijada to'g'ri hadislarni aniqlab jamlashdek mas'uliyatli, ulug' bir ishga qo'l urgan muhaddislar, ya'ni hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar paydo bo'ldi. Ular hadislarni ishonchli manbalar asosida qayta ko'rib chiqib, haqiqiylarini soxtalaridan ajratishdek ezgu va mas'uliyatli ishga qo'l urdilar. Shunday qilib islom olamida muhaddislar paydo bo'ldi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak hadislari boshlab ma'lum bir tartibga keltirilmagan, boblarga ajratilmagan holda to'plangan. Keyinchalik muhaddislar hadis to'plashdagi ma'lum bir afzallik va xususiyatlarni e'tiborga olgan, muayyan tartib-qoidalariga



asoslangan holda ilmiy ravishda hadis to'plamlarini tasnif eta boshladilar.

Muayyan qoidalar asosida to'plangan bu hadis to'plamlari tabiiyki, navlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Hadis to'plamini tartiblashdagi qoidalar bir necha turli bo'lib, tartiblashda asosan to'plamning keng qamrovli ekanligi, ma'lum fiqhiy boblar asosida yozilganligi, hadislarni kitobdan izlashda ma'lum yengilliklarga ega ekanligi, sahobalar yoshi yoki ismiga ko'ra tartiblanganligi va boshqa ko'plab usullarni o'z ichiga oladi. Biz quyida hadis ilmi olamida eng mashhur bo'lgan hadis to'plamlarini tasniflash usullariga to'xtalib o'tamiz.

“Jomi’ - Barcha masalalarni o'zida jamlovchi” uslubiga ko'ra tasnif qilingan hadis to'plamlari hadis tasnif etishdagi usullarni eng mashhuri va mukammalidir. Muallif bu uslubda yozilgan hadis to'plamida aqid, ibodatlar, muamolotlar, tarix, tafsir, siyrat, odob-axloq, manoqib (martaba)lar, fitnalar, qiyomat xabarlar va bundan boshqa jamiyatdagi aqidaviy, fiqhiy, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy va iqtisodiy muamolotlarga doir hadislarni jamlagan. Imom Buxoriyning “al-Jomi’”, imom Muslimning “Sahih” hadis to'plamlari shu uslubda tasnif etilgan kitoblardir.

“Musnad - suyantirilgan” uslubiga ko'ra yozilgan hadis to'plamlari. Bu uslubda yozilgan hadis to'plamlarida avval sahobani ismi va undan so'ng o'sha sahobadan rivoyat qilingan hamma hadis keltiriladi. Bunda hadisni qaysi mavzuga taalluqli ekanligi inobatga olinmaydi. Imom Ahmad ibn Hanbalning “Musnad” hadis to'plami, Abd ibn Humayd Keshiyning “Musnad” hadis to'plami shu uslubda yozilgan.

“Sunan - Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamni ibodatlarda tutgan yo'llari” uslubiga ko'ra tasnif etilgan hadis to'plamlari. Bu uslubda yozilgan hadis to'plamlarida hadislar fiqhiy tartibga ko'ra boblarga ajratilgan bo'lib, ularda ma'lum mazhab ahkomlarini dalillovchi hadislar



ifoda etilgan. Bu uslubda tasnif etilgan hadis to'plamlari "Jomi" uslubida yozilganlaridan farq qilib, ularda aqida, odob-axloq, tarix, siyrat va shunga o'xshash masalalarga oid hadislarni uchratmaysiz. Balki, unda faqat fiqhiy masalaga oid hadislar va ahkom hadislar bilan chegaralangan. Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Imom Abu Dovudlarning "Sunan" hadis to'plamlari shu uslubda yozilgan.

"Ma'ojim – alfavit tartibi" uslubida tasnif etilgan hadis to'plamlari. Bu turdagi hadis to'plamlarida ko'pincha musannifning ustozlarining ismlari rivoyat qilgan hadislari bilan alfavit harflari tartibiga ko'ra joylashtirilgan. Imom Tabaroniyning "al-Mo'jamu-l-asg'ar", "al-Mo'jamu-l-avsat", "al-Mo'jamu-l-akabiyr" hadis to'plami hamda Imom Buxoriyning "Kitob az-zuafo as-sag'iyr" ("Zaif roviylar haqida kichik kitob") risolasi ham shu uslubda tasnif qilingan. Bu kitobda hadis rivoyat qiluvchilar ichida Imom Buxoriy nazarida ishonchlilik jihatidan zaif – kuchsiz hisoblangan shaxslar haqida ma'lumotlar berilgan. Muallif ushbu asarida zaif roviylarning ismlarini alifbo tartibida keltirgan.

"Ilal – illatli hadislar". Hadislarni tasnif etilishida bu uslub ham alohida ahamiyatga molik bo'lib, sahih hadisni illatli hadisdan ajratish uchun juda zarur bo'lgan uslubdir³¹. Bunday hadis to'plamlarida faqat illatli, zaif hadislar jamlangan bo'ladi. Abu Hotim Muhammad ibn Hibbonning "al-Ilal" hadis to'plami va Imom Doru Qutniyning "al-Ilal" hadis to'plamlari shular jumlasidandir.

"Ажзоъу – juzlar" uslubida yozilgan hadis to'plamlari. Hadis roviylari orasidan bir roviyning rivoyati yoki ma'lum bir mavzuda chegaralangan holda to'plangan hadis to'plami shu uslubda tasnif etilgandir. Imom Buxoriyning "Raf'u-l-yadayn fi-

³¹ Абдулазиз ибн Абдурроҳман. Ал-Иллату иънда-л-усулийина. Куллияти-ш-шариъа. Риёз – 1980.



s-solat", "Al-Adab al-mufrad", "Halq af'ol al-ibod" kabi asarlari shu uslubda yozilgan.

"Atrof – taraflar" uslubida yozilgan hadis to'plamlarida musannifi hadisning barcha dalolat qiladigan har bir jihatlarini zikr qilib, keyin har bir matnni turli sanadlar bilan yetib kelish yo'llarini hamda ushbu hadis borasida murojaat qilinadigan manbalar haqidagi ma'lumotlarni ham bayon qiladi. Ammo bu uslubda yozilgan kitoblarning ayrimlarida hadis matni to'liq keltirilmaydi. Imom Mizziy (Abu Hajjoj Yusuf ibn Abdurrohman)ning "Tuhfatu-l-ashrof bi ma'rifati-l-atrof" kitobi, Hofiz Ibn Hajar Asqaloniyning "Ittihofu-l-muhrati bi atrof-l-asharati" kitobi, Ibn Asokir (Ali ibn Hasan)ning "Tuhfatu-l-ashrof a'laa ma'rifati-l-atrof" kitobi shu uslubda yozilgan³².

"Mustadrak – izlab topilgan" uslubida yozilgan hadis to'plamlari. Bu turdagi hadis to'plamida uning musannifi sahih hadislar to'plami mualliflari o'z asarlarida keltirmagan sahih hadislarini o'sha muhaddisning shartlariga ko'ra boshqa kitoblardan topib tasnif etilgan bo'ladi.

Bunday asarlarning hadisshunoslikda ahamiyati juda katta bo'lib, shulardan eng asosiysi boshqa sahih hadislarini mavjudligini aniqlash va hukm olishda mutashobeh hadisni tarjih qilish³³ imkonini beradi. Imom Hokim Muhammad ibn Abdulloh Hamdavayhning "al-Mustadrak ala as-sohihayn"³⁴, Abu Zar Abd ibn Ahmad Hiraviyning "al-Mustadrak ala as-sohihayn", Ali Namoziy Shohirudiyning "Mustadraku Safinati Bixor" hadis to'plamlari shunday turdagi kitoblar sirasiga kiradi³⁵.

³² Қаранг: <https://www.islamweb.net/>

³³ Маъноси муқобил ёки маъноси ҳилоф икки ҳадисдан бирини олишда унинг санади, ривоят қилиниш йўллари жиҳатидан энг кучлисини ажратиб олиш.

³⁴ Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ал-Ҳамдавайҳнинг "ал-Мустадрак ала ас-соҳиҳайн". Дору кутуби-л-илмийя. Байрут – 1990.

³⁵ Қаранг: <https://ar.wikipedia.org>



“Mustaxraj – boshqa sanad bilan chiqarilgan” uslubida yozilgan hadis to‘plamlari. Bu turdagi kitoblar muallifi ma’lum bir sahii hadis to‘plami muallifi o‘z to‘plamida keltirgan hadislar matnini u keltirmagan boshqa bir sanad bilan keltiradi. Aksar hollarda bunday hadis sanadining zanjiri o‘sha muhaddisning ustozlari yoki undan yuqoridagi roviy bilan birlashadi. Mustaxraj uslubida yozilgan hadis to‘plamlari asosan ikki sahii yoki ulardan biriga yozilgan. Abu Nuaym Asbahoniyning “al-Mustaxraju a’la as-sahihayn”, Imom Buxoriyning “al-Jomi’ as-sahii” hadis to‘plamiga yozilgan mustaxraj kitoblar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi; Abu Bakr Ismoilij Jurjoniyning “Mustaxraju Jurjoni”, Abu Bakr Barqoniyning “Mustaxraju Barqoni”, Abu Bakr ibn Mardivayh Asbahoniyning “Mustaxraj”i, “Mustaxraju G’atrifiy”, “Mustaxraju Muhammad ibn Abbos” shular jumlasidandir. Imom Muslimning “Sahii” to‘plamiga yozilgan mustaxraj asarlar ham ko‘pchilikni tashkil qilib, Abu Avvona YA’qub ibn Is’hoqning “Mustaxraju al-Isfaroij”, Muhammad ibn Muhammad ibn Rajoning “Mustaxraju Naysoburiy” shular jumlasidandir. Mustaxraj to‘plamlarida ayrim hollarda hadislarining matni aslidagi matndan farq qiladi. Shu sababli shar’iy hukm olishda mustaxraj to‘plamlardagi hadislar sahii to‘plamlaridagi asl matn kabi dalil bo‘lolmaydi. Shunday bo‘lsada mustaxraj hadis to‘plamlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sahii hadis to‘plamlaridagi hadislarini rivoyat qilinish yo‘llarini ko‘paytirib, uning darajasini oliy sanadga ko‘taradi³⁶.

“at-Taqosimu va-l-anva’ – qismlar va navlar” uslubida yozilgan hadis to‘plami. Tadqiqotlarimiz natijasida bu uslubda yozilgan faqat birgina kitob – muhaddis Abu Hotim Muhammad ibn Hibbonning “Sahii Ibn Hibbon” hadis to‘plamini uchratdik.

Muhaddis Abu Hotim Muhammad ibn Hibbonning “Sahii Ibn Hibbon” hadis to‘plami alohida ahamiyatga ega asar bo‘lib,

³⁶ Қараһг: <https://sulaymani.net/?p=2122//>, <https://www.islamweb.net/>



bu asarni ta'lif etilish jarayonida musannif oldin kitoblar tasnifotida ma'lum bo'lmagan, oldin uchramagan o'ziga xos uslubni namoyish etganligidir. U ham bo'lsa hadis to'plamining "qismlar va navlar" uslubiga ko'ra ta'lif etilganligidir. Musannifning bu g'aroyib uslubi undan oldin ham, keyin ham birorta muhaddis tomonidan qo'llanilmagan.

Bu kitob sunan uslubida yozilgan kitoblardan yangicha tartibda ta'lif qilingani bilan alohida ajralib turadi. Masalan, Sahihi Buxoriy, Sahihi Muslim va ikkisiga o'xshagan kitoblar. Muallif Ibn Hibbon rahimahulloh Nabiylar sollallohu alayhi vasallamdan vorid bo'lgan hadislarini besh qismga ajratgan, ular; Nabiylar sollallohu alayhi vasallam buyurgan ishlar (buyruqlar va qaytariqlar), Nabiylar sollallohu alayhi vasallam bergan xabarlar (axbor), Nabiylar sollallohu alayhi vasallam muboh sanagan ishlar (ruxsatlari) va Nabiylar sollallohu alayhi vasallam qilgan ishlari (af'ol).

Har bir qismni quyidagi navlarga ajratgan:

Amrlar (buyruqlar) bir yuz o'n nav;

Nahiylar (qaytariqlar) bir yuz o'n nav;

Xabarlar sakson nav;

Mubohlar (ruxsatlar) ellik nav;

Fe'llar (qilgan ishlari) ellik navdan iborat.

Ushbu besh qism jami to'rt yuz navdan iborat bo'lib, hadislar yuqoridagi navlarning barchasini o'z ichiga oladi³⁷.

"Sulosiyot – uch roviyli hadislar" uslubida yozilgan hadis to'plamlari. Muhaddislar nazdida o'zi bilan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam o'rtasida faqat uch roviy bo'lgan hadislar "sulosiyy hadislar" deb sanalgan. Sanadi 3 ta roviy orqali rivoyat qilingan hadislar eng sahih deb topilgan hadislar bo'lib, hadis sanadidagi tabaqalarda roviylarning oz bo'lishi hadisning sahihligiga dalolat qilgan. Masalan, hadis sanaddagi tobi'iynlar

³⁷ Абу Хотим Муҳаммад ибн Ҳиббон. Саҳиҳ ибн Ҳиббон. Муҳаммад Али Сўнмаз ва Холисой Демир тадқиқи. "Дору Ибн Ҳазм" нашриёти. 2012. – Б 52.



tabaqasida ikki roviy orqali rivoyat qilingan bo'lsa, u holda hadis "hasan" (rivoyat qilinish uslubi chiroyli) martabasida bo'lgan. Agar bu tabaqada bir roviy orqali yetib kelgan bo'lsa, u hadisni "sahih" deb e'tirof etilgan. Sanaddagi roviylar ozligi muhaddisni sanad jihatidan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga yaqinlashtiradi. Tabiiyki, bu hadisning mutlaqo sahligini ta'minlaydi. Shu sababli muhaddis olimlar o'zlaridan oldingi imom muhaddislarni to'plamlari orasidan ana shunday sanadi uch roviyli hadislarni ajratib olib, ularni alohida kitob shakliga keltirganlar. Imom Buxoriyning "al-Jomi' as-sahih" hadis to'plamidan ajratib olingan "Sulosiyotu-l-Buxoriy", Imom Termiziyning "Sunan" hadis to'plamidan ajratib olingan "Sulosiyotu-t-Termiziy", Imom Muslimning "Sahih"idan olingan "Sulosiyotu Muslim" shunday hadis to'plamlariga kiradi.

"Arba'iyn – qirq hadis" uslubida yozilgan kichik hajmdagi hadis to'plamlari ham mavjud bo'lib, unda musannif hadis sohasida boshlang'ich ta'limdagi ilmi tolibga yodlash oson bo'lishi uchun ma'lum bir mavzularga oid qirq dona hadisni keltiradi. Shuningdek, "Ming bir hadis", "Yuz bir hadis" shaklidagi kichik hadis to'plamlari ham mavjud bo'lib, bunday hadis to'plamlari xalq orasida keng tarqalgan.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak hadislarini to'plab ularni kitob holiga keltirish yo'lida muhaddislar nafaqat ularni yig'ib to'plam holiga keltirishni, balki bu hadislarni o'rganuvchi ilmi toliblarni yod olishlarini osonlashtirish, hadislarni kitobdan topishni osonlashtirish yo'llarini ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Yuqorida biz keltirgan turli uslubdagi hadis to'plamlarini ham har birini o'ziga xos afzallik jihatlari bor. Ularni ayrimlari haqida o'z o'rnida qisqacha ma'lumotlarni berib o'tdik. Albatta, bu asarlarning xususiyatlari va afzallik jihatlari biz aytgan qisqa ta'riflar bilan cheklanib qolmaydi. Hadis to'plamlarini har birini



boshqasidan afzallik jihatlari alohida tadqiqotlar natijasida yanada aniqroq va batafsilroq namoyon bo'ladi.

Xullas, bashariyat butun tarixi mobaynida ojiz qolib kelgan nuqtani Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'z siyratlarida amalda ko'rsatib ketdilar. U zotning barcha ishlari ilohiy ilhom bilan tartib etilgan bo'lib, bamisoli hayot davom qilmog'i uchun samoga quyosh ilib qo'yilganidek, ular ham hayot mazmun-mohiyatining to'laqonli ifodasi uchun tarixga muhrlab qo'yilgan oliy sifatlardir.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BERILADIGAN SAVOLLAR:

1. Hadis o'zi nima va uning asoschisi kim?
2. Islomda hadis qanday o'rin tutadi?
3. Hadis ilmi olamida eng mashhur bo'lgan hadis to'plamlarini tasniflash usullariga to'xtalib o'tsangiz.
4. Muhaddislardan kimlarni va ularni qaysi asarlarini bilasiz?
5. Hozirda yurtimizda hadisshunoslik rivojlanganmi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдулазиз ибн Абдурроҳман. Ал-Иллату иънда-л-усулийина. Куллияти-ш-шариъа. Риёз – 1980.
2. Абу Ҳотим Муҳаммад ибн Ҳиббон. Саҳиҳ ибн Ҳиббон. Муҳаммад Али Сўнмаз ва Холисой Демир тадқиқи. “Дору Ибн Ҳазм” нашриёти. 2012. – Б 52.
3. Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ал-Ҳамдавайҳнинг “ал-Мустадрак ала ас-соҳиҳайн”. Дору кутуби-л-илмийя. Байрут – 1990.
4. <https://ar.wikipedia.org>

TAVSIYA ETILADIGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. “Муъжамул мусталаҳотул ҳадийсийя”, Саййид Абдулмажид Ғоврий роҳматуллоҳи алайҳ. “Дор Ибн Касийр, Байрут. 2012-й. –Б.704.



2. “Тайсийру мустолахул ҳадийс”, Маҳмуд Тоҳҳан. “Мактабаул Маъариф”. Ар-Риёз. 2004 й. –Б.209.

3. “Шарҳул Манзуматил Байқуния”, Абдуллоҳ Сирожиддин. “Мактабату Дорил фалаҳ” 2009-й.-Б.14. “Муқаддимату Тухфатул Аҳфазий”, “Ар-Рисалатул Мустатрофату” ва “Ат-Тадриб” ga qarang. Kim hadis ilmiga oid tasnif qilingan kitoblarni oʻrganmoqchi boʻlsa, “Муқаддимату Тухфатул Аҳфазий”, “Ар-Рисалатул Мустатрофату” kitoblariga murojaat qilsin.

DURDONA



INTERFAOL METODLAR

“T-JADVAL” grafik organayzer

“T-jadval” grafik organayzeri tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samarali yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.


Mashg‘ulotlarda “T-jadval” grafik organayzeridan foydalanish uchun o‘quvchi (tinglovchi va talaba)larning e‘tiboriga quyidagi sxema taqdim etiladi:

O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.

“YAGONA DAVRA” strategiyasi

“Yagona davra” strategiyasi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan mustaqil, mantiqiy fikrlash, boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tinglash, ularni to‘ldirish, shaxsiy fikrlarini asoslash, xulosa chiqarish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Mavzu yuzasidan har bir o‘quvchi (tinglovchi va kursant)ning fikrini bilish muhim. Shuning uchun har bir o‘quvchi (tinglovchi va kursant) fikr bildirayotganda uning so‘zini bo‘lish, qo‘shimcha qilish hech kimga, hatto o‘qituvchiga ham ruxsat etilmaydi.

Strategiyani qo‘llashda quyidagi shartlarga rioya etish shart:



“QARORLAR SHAJARASI” (“QAROR QABUL QILISH”) strategiyasi

Ushbu strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta'limda strategiyani qo'llash o'rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun o'quvchi (tinglovchi va kursant)lar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Unga ko'ra mashg'ulotlarda o'quvchi (talaba)lar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

MUAMMO		
1-g'oya	2-g'oya	3-g'oya
QAROR		

Mazkur strategiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Loyiha quyidagi ko'rinishga ega:



UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
QAROR:					

DURDONA



IZOHLI LUG'AT (GLOSSARIY)

Amir Temur Qur'oni - Hozirgacha yaratilgan eng katta Qur'on. Har bir satr muhaqqaq xatida yozilgan. Xat (yozuv) uzunligi 3 futdan oshadi va har bir sahifa 7 fut balandlikda. Bu Qur'on Temuriylar sulolasining asoschisi Amir Temurga tegishli edi. Xattot Umar Aqto Amir Temurning shaxsiy kotibi sifatida ishlagan. Manbalarga ko'ra, Umar Aqto juda kichik bo'lgan Qur'onni muhr uzuk tagiga sig'dira oladigan darajada yozgan. Temur Qur'on o'qishni hohlagan va hayratga tushmagan. Shuning uchun xattot Temurni lol qoldirish uchun shunday katta Qur'on yozganki, uni Temur huzuriga aravada olib kelishga to'g'ri kelgan. Quvonchli Temur xattotni dabdaba bilan mukofotladi. Bugungi kunda Qur'on varoqlarini Britaniyadagi Met muzeyida topish mumkin.

Aqliy bilimlar - inson o'z tafakkuri bilan yetishgan bilimlari. Ular ham o'z navbatida bir nechta turga bo'linadi: (1) - hayotni kuzatib va tahlil etib hosil qilingan bilimlar, (2) - mantiqiy, ya'ni bilgan narsalarini o'zaro fikriy qiyoslash va tahlil qilish orqali hosil qilingan bilimlar, (3) - amaliy faoliyat jarayonida va yoki o'rganish bilan hosil qilingan malaka va ko'nikmalar shaklidagi bilim.

Asotir tafakkur - Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo'lib, ibtidoiy jamoa, qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar odamining fikrlash tarziga xosdir. Bu davrlarda aksariyat insonlar g'ayb olamiga oid narsa-hodisalar va mavhum tushunchalarni moddiy voqelik ashyolaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar, mushriklikning kelib chiqish sababi ham shunda³⁸.

³⁸ Имомназаров М. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи (Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма) / - Т.: 2008.



Falsafa – Borliq haqiqatini (Borliqning mohiyati, unda insonning o'rne va vazifasi kabi eng umumiy muammolarni) mantiqiy tafakkur asosida anglab yetish va anglatishga urinish, aniqroq aytganda, Borliq haqiqatini turlicha xususiy timsoltushunchalar asosida modellashirishga urinish. Islom mintaqa madaniyati doirasida qadim yunon falsafiy maktabi an'analarini tavhid ta'limoti doirasida rivojlantirgan Forobiy, Ibn Sino kabi allomalarimiz merosi shu nom bilan atalgan.

Falsafiy tafakkur – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkur asosida Borliq haqiqatini modellashirishga urinish.

Fozil shahar – Abu Nasr Forobiy talqinida "Insonlari haqiqiy saodatga erishish yo'lida bir-biriga yordam berish uchun birlashgan shahar". Har bir inson Haq oldidagi mas'uliyatini to'g'ri anglab, kamolot sari o'zi intilar ekan, o'zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko'makdosh bo'lishga astoydil urinsa, natijada "fozil shahar" (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi. Ulug' allomaning bu qarashlari bugungi kundagi "fuqarolik jamiyati" tushunchasini mukammal ifodalaydi.

Ilm – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, Borliq haqiqatini anglab yetishda bilimga, aql va tafakkurga tayanish. Ilm nuri bilan yorishmagan e'tiqod "taqlidiy imon" hisoblanadi va takabburlik bilan birlashsa, aqidaparastlikka olib boradi.

Iymon – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati, o'zi anglab yetgan va to'g'ri deb bilgan Borliq haqiqatiga samimiy e'tiqod. Iymon-e'tiqod ma'naviyatning o'zak tomiri bo'lib, shaxs ma'naviyati iymondan boshlanadi. Xalqimiz tilida "iymonsiz" degan so'z eng og'ir haqorat sanalishi bejiz emas.

Islom - (arabcha: الإسلام, al-'Islām – „bo'ysunish“, „itoat etish“) – jahonda keng tarqalgan uch dindand (xristianlik va buddaviylik bilan bir qatorda) biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha „muslim“ („sadoqatli“; ko'pligi



„muslimun“) deb ataladi[1]. „Muslim“, „muslimun“ soʻzining boshqa xalqlar orasida oʻzgacha talaffuz etish (masalan, forslarda – musulmon, oʻzbeklarda – musulmon, qirgʻiz va qozoqlarda – musulmon, Ukraina va Rossiyada – basurman) natijasida bu dinga eʼtiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi, lekin ularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.

Islom VII asrda Hijoz (Gʻarbiy Arabiston)da paydo boʻldi. Uning asoschisi Muhammad sanaladi. Islom dinining paydo boʻlishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy anʼanada u ilohiy hodisa, insonlarni toʻgʻri yoʻlga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi taʼlimot deb hisoblanadi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar eʼtiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu Xudo, yaʼni Alloh odamlarga paygʻambarlar va elchilar yuborgan, ammo insonlar paygʻambarlar taʼlimotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammadni tanladi, unga oʻzining kalomi – Qurʼon nozil qildi. Muhammad oldin oʻz hamshaharlarini, soʻng barcha arablarni koʻplab qabila xudolariga sigʻinishdan voz kechish va yagona Xudo – Allohga eʼtiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga daʼvat etdi. Qurʼonga koʻra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim Allohga birinchi boʻlib imon keltirgan. Demak, Islom batamom yangi eʼtiqod emas, balki Ibrohimga nozil boʻlgan dinidir.

Islomning asosiy aqidasi – „Allohdan boshqa iloh yoʻq va Muhammad uning rasuli“. Islom ilohiyotining ilk shakli – kalom boʻlib, VIII asrda Arab xalifaligida vujudga kelgan. Mutakallimlar Islom dini aqidalarini ishlab chiqqanlar.

Islomning muqaddas kitobi Qurʼondir. Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Allohning vahiy qilgan dalolati deb tushuniladi. Islomning aqidalari, eʼtiqod talablari, huquqiy va axloqiy meʼyorlari, cheklash va taʼqiqiqlari Qurʼon bilan birga uning tafsirlarida, hadis toʻplamlari va shariat qoʻllanmalarida,



shuningdek, VIII-XII asrlarda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan.

Jahonda dunyo aholising 24,9%i, ya'ni 1,1 – 1,8 milliard kishi Islomga e'tiqod qiladi[2][3]. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20%idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qit'a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi – Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Isroil, mustasno), Senegal, Gambiya, Niger, Somali, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshqa ba'zi mamlakatlarda aholining 80%dan ortig'i musulmonlardir; bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80%igacha tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlar (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina-faso, Serra-Leone va boshqa)da musulmonlar ozchilikni tashkil qilsa ham, ta'sir doirasi kuchli. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar – Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; musulmonlarning anchasi Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Bosniya va Gersegovina, Albaniya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya va boshqa), Amerika qit'asi mamlakatlari (AQSH, Kanada, Argentina, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, Avstraliyada, Fiji orollarida yashaydi.

Mehr - shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, insonlarga, tabiatga, har bir ishga beg'araz fidoiylilik bilan munosabatda bo'lish. Mehr ma'rifati 1) inson ko'nglini anglab yetish va unga mehr ko'rgazish bilan tarbiyalash, 2) insonning boshqa bir



insonga bo'lgan beg'araz muhabbati tufayli xudbinlik balosidan forig' bo'lishi va Borliq haqiqatini anglab yetishi (Alisher Navoiy talqinida) ma'nolarini anglatadi.

Mifologiya — muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Mas, yunon M.si, hind M.si, o'zbek Mifologiya Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan M. ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. M.ning asosini qad. odamning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi. M.ning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qad. e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-ik/shmiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qad. Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo'lgan M. insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan. Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qad. shakllari M. bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan M. qad. diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda ilmiy talqinlar, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan



ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so'z san'-ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga qamrab olgan. U qad. odamning borliq olamni idrok etishga doyr tasavvur va qarashlarini o'zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g'oyasi bo'lib xizmat qilgan. M. ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois M. folklor, yozma adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini o'tagan.

Muhammad (s.a.v)ga, 40 yoshida (milodiy 610 yil) vahiy (ilohiy ko'rsatma) kelishni boshladi, biroq bir necha nufuzli yaqin qarindoshlarini hisobga olmaganda, Makkaning ko'pchilik aholisi, ayniqsa, Quraysh qabilasining zodagonlari uning targ'ibotlariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar. Muhammadni yolg'onchiga chiqarib juda katta zulm ko'rsatildi. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga hijrat qilishdi, Yasribdagi Banu Avs va Banu Hazraj qabilalarining vakillari 622 yilda musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammadni payg'ambar va Allohni yagona deb tan olishdi. Hijrat nomini olgan bu voqea Islom tarixida burilish yasadi. Ko'chib o'tgan kishilar muhojirlar (ko'chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi (qarang Badr jangi, Uhud jangi, Xandaq jangi va boshqa). 628 yilda Makka zodagonlari Muhammad bilan kelishishga majbur bo'ldilar (qarang Xudaybiya sulhi). 630 yilda musulmonlar qo'shini hech qanday qarshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammadni Allohning elchisi deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islom dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) vafot etgan 632 yilda Arabiston yarimoroli to'la birlashtirilgan, uning aksariyat



aholisi Islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Muhammad vafotidan so'ng, Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib payg'ambarning o'rinbosari (xalifa) sifatida hukmronlik qildilar. Ular va ulardan keyingi xalifalar VII-VIII asrlarda Iroq, Falastin, Suriya, Eron, Movarounnahr, Misr, Shimoliy Afrika, Pireney yarimoroli, Shimoliy Hindistonni fath qilishdi. Bir asrdan kamroq vaqt davomida Shimoliy Xitoydan Ispaniyagacha, Kavkazortidan Hind okeanigacha bo'lgan katta hududni zabt etdilar va Islom dinini yoydilar (qarang Arab xalifaligi).

Naqliy bilimlar – ilohiy kitoblar orqali yoki turli yo'llar bilan (asosan, yozma manbalarda) o'tmish ajdodlardan yetib kelgan bilimlar.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ

ҚАДИМИЙ ЁЗМА МАНБАЛАРНИ САҚЛАШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ДОИР ҚЎШИМЧА ЧОРА- ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА

Сўнги йилларда мамлакатимизда Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази, Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказлари ҳамда Ўзбекистон халқаро ислом академияси фаолиятининг ташкил этилиши ўзбек заминида таваллуд топиб, илмий фаолият олиб борган буюк аллома ва мутафаккирлар меросини илмий тадқиқ этиш ва унинг натижаларидан амалий фойдаланиш жараёнида янги босқични бошлаб берди.

Янги Ўзбекистон тараққиётининг бугунги босқичида улуғ аллома ва мутафаккирларимизнинг кўплаб бебаҳо асарларини, ноёб ёзма манбаларни сақлаш, ўрганиш ва келажак авлодга безавол етказиш борасидаги ишларни янада жадаллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Халқимизнинг бебаҳо мулки ҳисобланган ноёб ёзма ва тошбосма меросни сақлаш ва тадқиқ қилиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда бу жараёнга рақамли технологияларни кенг жорий этиш мақсадида:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-5186-сон қарорига мувофиқ Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази, Фанлар академияси Абу



Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қадимий ёзма манбаларни марказлашган ҳолда сақлаш, тадқиқ этиш, уларнинг ҳолатини доимий мониторинг қилиш бўйича масъул давлат муассасалари этиб белгиланганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислom цивилизацияси маркази (кейинги ўринларда — Марказ), Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти (кейинги ўринларда — Шарқшунослик институти) ва Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонасининг (кейинги ўринларда — Миллий кутубхона) жамоатчилик учун очик бўлган Қадимий ёзма манбалар давлат реестрини (кейинги ўринларда — Давлат реестри) шакллантириш ва давлат тасарруфидаги музейлар, кутубхоналар ва архив фондлари фаолиятига интеграция қилиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

Марказ Давлат реестрини шакллантириш ва юритиш, шунингдек, қадимий ёзма манбаларни босқичма-босқич рақамлаштириш учун масъул давлат муассасаси этиб белгилансин.

3. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ Марказ: республика ҳудудидаги барча музейлар, кутубхоналар ва архив фондларида сақланаётган қадимий ёзма манбаларнинг давлат реестрини тузади ва доимий мониторингини юритади;

Давлат реестри асосида қадимий ёзма манбаларнинг турлари бўйича (қўлёзма, тошбосма манбалар, тарихий ҳужжатлар) каталоглари ва электрон нусхаларини яратади, уларни Қадимий ёзма манбалар давлат реестрини юритиш бўйича ягона ахборот тизимига киритиш ҳамда мунтазам тўлдириб бориш чораларини кўради;



Марказ ва Шарқшунослик институтида марказлашган ҳолда сақланадиган ва Давлат реестрига киритилган қадимий ёзма манбаларнинг ҳолати, доимий мониторинг ва тадқиқ этилиши натижалари ҳақидаги маълумотларнинг мунтазам равишда махсус порталлар ва оммавий ахборот воситаларида эълон қилинишини таъминлайди;

Ўзбекистон халқаро ислом академияси ва Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти билан биргаликда қадимий ёзма манбаларнинг консервацияси ва реставрацияси билан шуғулланаётган соҳа ходимларининг мунтазам равишда касбий салоҳияти ва малакасини ошириш, шунингдек, соҳа учун етук мутахассис кадрларни тайёрлаш бўйича чора-тадбирларни амалга оширади.

4. Марказ:

а) бир ой муддатда Туризм ва спорт вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Инновацион ривожланиш вазирлиги, Фанлар академияси ва «Ўзархив» агентлиги билан биргаликда Қадимий ёзма манбалар давлат реестрини юритиш бўйича ягона ахборот тизимини (кейинги ўринларда — ягона ахборот тизими) яратиш концепцияси ва техник топшириқ лойиҳасини ишлаб чиқсин ҳамда лойиҳа техник ҳужжатларининг белгиланган тартибда экспертизадан ўтказилишини таъминласин;

б) икки ой муддатда:

Шарқшунослик институти, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, Маданий мерос агентлиги ва «Ўзархив» агентлиги билан биргаликда Қадимий ёзма манбалар давлат реестри тўғрисидаги низомни ишлаб чиқсин ва тасдиқлаш учун белгиланган тартибда Вазирлар Маҳкамасига киритсин;



республика ҳудудидаги музейлар, кутубхоналар, архив фондлари ва бошқа муассасаларда сақланаётган қадимий ёзма манбаларнинг илмий долзарблиги ва муҳимлигига қараб, уларни таржима ва тадқиқ қилиш жадвалини ишлаб чиқиб, тасдиқласин ҳамда халқчил тилда босқичма-босқич нашр этилишини йўлга қўйсин.

5. Вазирлар Маҳкамаси Марказ билан биргаликда:

икки ой муддатда давлат тасарруфидаги музейлар, кутубхоналар, архив фондлари ва бошқа муассасаларда сақланаётган қадимий ёзма манбаларни Марказ тасарруфига ўтказиш бўйича режани тасдиқлаб, босқичма-босқич амалга оширсин;

Марказга сақлаш ва тадқиқ қилиш учун олиб келинган қадимий ёзма манбаларнинг тегишли (ҳудудий, идоравий, шахсий ва бошқа) мансублигидан келиб чиқиб, алоҳида коллекция ҳолида муҳофаза қилинишини таъминласин;

режа-график асосида хорижий мамлакатларга илмий экспедициялар уюштириш орқали аҳоли ва турли фондларда сақланаётган юртимиз алломалари ва мутафаккирларининг ижодига мансуб бўлган қадимий ёзма манбаларнинг каталогларини ва электрон нусхаларини аниқлаш, Марказ фондига олиб келиш ва илмий муомалага киритиш чораларини кўрсин;

икки ой муддатда жисмоний ва юридик шахслардан қадимий ёзма манбаларни харид қилиш, уларни давлат тасарруфига топшириш механизмларини ишлаб чиқсин.

6. Марказ ҳузурида юридик шахс мақомига эга бўлмаган Қадимий ёзма манбаларни консервация ва реставрация қилиш лабораторияси (кейинги ўринларда — Лаборатория) ташкил этилсин ва Лаборатория томонидан ўтказиладиган тадқиқот синовларининг асосий йўналишлари 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Белгилаб қўйилсинки:



Лаборатория республика ҳудудидаги музейлар, кутубхоналар ва бошқа муассасаларнинг архив фондларида, жисмоний ва юридик шахсларда сақланаётган қадимий ёзма манбаларни уларнинг буюртмаси асосида таъмирлаш ишларини амалга оширади;

қадимий ёзма манбаларни таъмирлашдан тушган маблағлар Марказ ва Лаборатория фаолиятини ривожлантиришга сарфланади;

Лабораторияни ташкил этиш, зарур асбоб-ускуналар, бутловчи материаллар билан таъминлаш ва уларни ўрнатиш, шунингдек, ўз ташаббусига кўра Марказ фондида сақланаётган қадимий ёзма манбаларни таъмирлаш билан боғлиқ харажатлар Марказ учун Давлат бюджетидан ажратилган маблағлар доирасида, Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси марказини ривожлантириш жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) маблағлари, халқаро молия институтлари ва ташкилотларининг техник кўмак маблағлари (грантлари) ҳамда қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилади;

Лаборатория фаолиятига ёзма манбалар консервацияси ва реставрацияси йўналишида етарли даражадаги билим ва иш тажрибасига эга бўлган малакали мутахассислар Марказ томонидан Жамғарма ҳисобидан фуқаролик-ҳуқуқий шартномалар асосида жалб қилинади.

Лаборатория Тошкент шаҳар, Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй манзилидаги Ўзбекистон халқаро ислом академияси биносига бепул фойдаланиш ҳуқуқи асосида вақтинча жойлаштирилсин.

Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги (Б. Абидов, Ш. Вафаев) Лаборатория фаолияти учун халқаро молия институтлари ва ташкилотларининг техник кўмак маблағлари (грантлари)ни жалб қилишга кўмаклашсин.



7. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги, Ўзбекистон Бадиий академияси:

2022/2023 ўқув йилидан бошлаб Камолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институтида «Қадимий ёзма манбалар консервацияси ва реставрацияси» таълим йўналишида кадрлар тайёрлашни йўлга қўйсин;

Шарқшунослик институти ва Марказ билан биргаликда икки ой муддатда республикадаги илмий марказлар, музейлар, кутубхоналар ва бошқа муассасаларнинг қўлёзма фондларидаги ҳолатни ўрганиб, манбашунос-реставраторларга бўлган мавжуд эҳтиёжни аниқласин ҳамда 2022/2023 ўқув йили учун таълим йўналишига квота ажратиш тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклиф киритсин.

Олдинги таҳрирга қаранг.

8. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Дин ишлари бўйича қўмита 2022/2023 ўқув йилидан бошлаб Тошкент давлат шарқшунослик университети, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Бухоро давлат университети ва Ўзбекистон халқаро ислом академиясида «Матншунослик ва адабий манбашунослик» таълим йўналиши ва мутахассислиги бўйича бакалавриат ва магистратура босқичлари учун зарур квоталар доимий ажратиб борилишини таъминласин.

(8-банднинг биринчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 23 майдаги ПФ-75-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.05.2023 й., 06/23/75/0292-сон)

Белгилансинки:

«Матншунослик ва адабий манбашунослик» ҳамда «Филология ва тилларни ўқитиш (мумтоз филология)»



таълим йўналишлари ва мутахассисликлари бўйича талабаларнинг ўқув жараёни, амалиёти, диплом иши ва магистрлик диссертациялари ҳимоялари Шарқшунослик институти, Марказ, Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи ва бошқа қўлёзма фондларида соҳанинг етук мутахассислари ва олимлари иштирокида ўтказилади;

Ўзбекистон халқаро ислом академияси «Матншунослик ва адабий манбашунослик» таълим йўналиши бўйича таянч олий таълим муассасаси ҳисобланади.

9. Инновацион ривожланиш вазирлиги уч ой муддатда:

Марказ, Шарқшунослик институти, Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази учун қадимий ёзма манбаларни ўрганиш бўйича илмий-тадқиқот ишларига давлат буюртмаси белгиланган тартибда шакллантирилишини;

илмий фаолиятга оид давлат дастурлари доирасида бажариладиган мақсадли илмий лойиҳаларга Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан маблағлар ажратилишини таъминласин.

10. Марказ Шарқшунослик институти, Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, «Эл-юрт умиди» жамғармаси, Инновацион ривожланиш вазирлиги билан биргаликда 2022 йилдан бошлаб қўлёзмаларни сақлаш ва тадқиқ этиш билан шуғулланувчи илмий ходим ва реставраторларнинг ҳар йили хорижда амалиёт ўташи ва стажировкасини ташкил этиш чораларини кўриб борсин.

Илмий ходим ва реставраторларнинг хорижда амалиёт ўташи ва стажировкаси буюртмачи ташкилотлар учун Давлат бюджетидан ажратилган маблағлар доирасида, шунингдек, бюджетдан ташқари маблағлар ва қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан ташкил этилиши белгилаб қўйилсин.



11. Мамлакатимиз ҳудудида яшаб ўтган буюк аллома ва мутафаккирларнинг илмий меросини аҳоли, айниқса ёшлар орасида янада оммалаштириш, улар тўғрисидаги маълумотларни замонавий усуллар орқали жамоатчиликка етказиш, шунингдек, мазкур йўналишда олиб бориладиган тадқиқотлар учун янада қулай имкониятлар яратиш мақсадида Интернет жаҳон ахборот тармоғида Юртимиз алломалари ва мутафаккирларининг ҳаёти ҳамда маънавий мероси ҳақидаги илмий-маърифий портал (кейинги ўринларда — илмий-маърифий портал) ва унинг мобиль иловаси ишга туширилсин.

Белгилаб қўйилсинки, Давлат реестрини шакллантириш, илмий-маърифий портал ва унинг мобиль иловасини ишга тушириш билан боғлиқ харажатлар Марказ учун Давлат бюджетида назарда тутилган мақсадли маблағлар ҳамда кейинчалик уни сақлаш ва фаолиятини таъминлаш билан боғлиқ харажатлар Жамғарма маблағлари ҳисобидан қопланади.

12. Қуйидагилар:

а) Марказ Миллий кутубхона, Кинематография агентлиги ва Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги билан биргаликда икки ой муддатда:

илмий-маърифий порталнинг ишга туширилишини;

илмий-маърифий порталга буюк аллома ва мутафаккирларнинг ҳаёти, илмий мероси ҳақидаги маълумотлар, уларнинг фаолиятига оид чоп этилган китобларнинг электрон нусхалари, фильмлар ҳамда ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга хизмат қиладиган бошқа турдаги маълумотлар жойлаштирилишини;

б) Ёшлар ишлари агентлиги Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги, Марказ ва Миллий кутубхона билан



биргаликда икки ой муддатда ҳудудларда ёшлар етакчилари томонидан буюк аллома ва мутафаккирларнинг ҳаёти ҳамда илмий меросини ёшлар орасида кенг тарғиб қилиш ва оммалаштириш бўйича маҳаллалар кесимида «йўл харита»лари ишлаб чиқирилиши ва амалга оширилишини таъминласин.

13. Шарқшунослик институти, Марказ, Ўзбекистон халқаро ислом академияси ЮНЕСКО, Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича Ислом олами ташкилоти (ICESCO), Ислом тарихи, маданияти ва санъатини тадқиқ этиш маркази (IRCICA) каби нуфузли халқаро ташкилотлар ва илмий-тадқиқот муассасалари билан ҳамкорликда анъанавий тарзда қадимий ёзма манбаларни муҳофаза қилиш ва тадқиқ этишнинг долзарб масалаларига бағишланган халқаро конференцияни ташкил этсин.

14. Марказ Фанлар академияси ва Ташқи ишлар вазирлиги билан биргаликда 2022 йил якунига қадар Марказий Осиё минтақаси доирасида қадимий ёзма манбаларни сақлаш ва тадқиқ этиш соҳасида қўшни давлатлар билан ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиш бўйича Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

15. Марказ ва Фанлар академияси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги билан биргаликда қадимий ёзма манбаларни сақлаш ва тадқиқ этиш соҳасини янада ривожлантириш мақсадида Ислом тараққиёт банки ва бошқа жамғармалар, донор ташкилотларнинг беғараз маблағлари ҳамда ёрдамларини жалб этиш чораларини кўрсин.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча



чора-тадбирлар тўғрисида» ПҚ-5186-сон қарорига 2-иловага мувофиқ қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин.

17. Марказ манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

18. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси М.М. Камиллов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,

2022 йил 10 февраль,

ПҚ-126-сон

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 10
февралдаги ПҚ-126-сон қарорига
1-ИЛОВА

Қадимий ёзма манбаларни консервация ва реставрация қилиш лабораторияси томонидан ўтказиладиган тадқиқот
синовларининг

АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

1. Ўзбекистон Республикасининг кутубхона, архив ва қўлёзмалар фондларида сақланаётган қоғоз ва пергамент асосга эга бўлган қадимий ёзма манбаларни консервация ва реставрация қилиш бўйича консултатив, методик ва амалий ёрдам кўрсатиш.

2. Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислон цивилизацияси маркази фондида ва бошқа муассасаларда сақланаётган қадимий ёзма манбаларнинг кимёвий, биологик ва бошқа омиллар таъсирида зарарланишининг олдини олиш.



3. Қўлёзма ва тошбосма манбалар, тарихий ҳужжатлар, нодир ҳамда алоҳида қимматга эга нашрларни превентив ва стабиллаштирувчи консервация ва реставрация қилиш, уларнинг шикастсиз сақланишини таъминлаш.

4. Қадимий ёзма манбалар, нодир ва алоҳида қимматга эга нашрларнинг зарарланиш даражасини баҳолаш ва уларни реставрация қилиш чора-тадбирларини белгилаш.

5. Қоғоз ва пергамент асосга эга бўлган қўлёзма, тошбосма манбалар, тарихий ҳужжатлар, нодир ва алоҳида қимматга эга нашрларнинг жисмоний ҳолати (кондициялари) ва кодикологик маълумотларини қайд этиш.

6. Қадимий ёзма манбаларни тозалаш, дезинфекция ва дезинсекция қилиш, муқова ва жилдларни таъмирлаш, намлик ва бошқа техник зарар етказувчи таъсирларни бартараф қилиш.

7. Қўлёзма ва тошбосма манбалар ҳамда тарихий ҳужжатларнинг жилдларини кўп минг йиллик саҳҳофлик ва муқовасозлик анъаналари асосида тиклаш ҳамда таъмирлаш.

8. Ноёб ва алоҳида қийматга эга бўлган манбаларни ҳимоялаш мақсадида, рН нейтрал ашёлардан превентив қутилар, ҳимоя воситалари ва жилдлар ясаш.

9. Консервация ва реставрация ҳамда анъанавий китобат санъатининг саҳҳофлик, хаттотлик, музаҳҳиблик, қоғозгарлик ва абручилик соҳаларида мутахассисларни «устоз-шогирд» тизими асосида тайёрлаш.

10. Қадимий ёзма манбаларни деасидификация қилиш ва ортиқча лигниндан тозалаш орқали нейтраллаштириш.

11. Мамлакатимиз ва хориждаги музей, кутубхона ва бошқа архив фондларининг буюртмаларига асосан қадимий ёзма манбаларнинг муляжларини тайёрлаш.



Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 10
февралдаги ПҚ-126-сон қарорига
2-ИЛОВА

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислон цивилизацияси маркази фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-5186-сон қарорига киритилаётган қўшимча ва ўзгартиришлар

1. 5-банд:

а) қуйидаги мазмундаги ўн иккинчи — ўн тўртинчи хатбошилар билан тўлдирилсин:

«Қадимий ёзма манбалар давлат реестрини юритиш бўйича ягона ахборот тизими фаолиятини таъминлаш;

қадимий қўлёзма асарлар, тошбосма китоблар ва тарихий ҳужжатларни таъмирлаш, муқовалаш ва тиклаш ишлари бўйича замонавий технологияларга асосланган лабораторияни ташкил этиш, уни зарур асбоб-ускуналар ва махсус материаллар билан таъминлаш ҳамда мутахассисларни лаборатория фаолиятига фуқаролик-ҳуқуқий шартномалар асосида жалб этиш;

Интернет жаҳон ахборот тармоғида буюк алломалар ва мутафаккирлар ҳақида маълумот берувчи ва янги тадқиқот натижаларини тарғиб этишга қаратилган илмий-маърифий портал ва унинг мобиль иловаси фаолиятини таъминлаш»;

б) ўн иккинчи-ўн учинчи хатбошилар тегишлича ўн бешинчи-ўн олтинчи хатбошилар деб ҳисоблансин.

2. 2-банднинг ўн биринчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ислон тарихи ва маданияти йўналишига оид билимларни ошириш, қадимий қўлёзма, тошбосма ва тарихий ҳужжатларни консервация ва реставрация қилиш,



қоғоз, муқовасозлик, хаттотлик санъатини тиклаш, ислом манбаларини ўрганиш бўйича ўқув курслари ва Китобат илми мактабини ташкил этиш».

3. 12-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Марказ унинг асосий биноси бўйича қурилиш-монтаж ишлари якунига етгунга қадар Тошкент шаҳар, Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй манзилидаги Ўзбекистон халқаро ислом академияси биносига бепул фойдаланиш ҳуқуқи асосида жойлаштирилсин».

(Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 11.02.2022 й., 07/22/126/0125-сон; 24.05.2023 й., 06/23/75/0292-сон)



MUNDARIJA

So'zboshi.....	4
Muqaddima	6
1-mavzu. Kirish. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni ...	9
1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad.	9
2. Islom va manbashunosligi fanning maqsad va vazifalari. ...	10
3. Islomshunoslikning asosiy vazifalari.....	12
4. Islom tarixi va manbashunosligi mustaqillik yillarida.	14
2-mavzu. Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari .	19
1. Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad.	19
2. Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari.....	20
3. Manbalar turlari.....	21
4. Manbashunoslikka oid adabiyotlarni tahlili.....	26
3-mavzu. Johiliyat davri manbalari tahlili.....	31
1. Yozma yodgorliklar, she'riyat va og'zaki ijod.....	31
2. Johiliya davri.....	37
3. Islomgacha bo'lgan arablar.....	39
4. Qur'ondan keyin arablarda, yangi boshqa qo'lyozma kitoblar paydo bo'la boshladi.....	41
4-mavzu. Qur'oni Karim islom manbashunosligining asosiy manbai	47
1. Qur'on karim haqida ma'lumotlari	47
2. Qur'oni karimning kitob holatida jamlanishi.	49
3. Qur'oni karimning asosiy g'oyasi.....	51
4. Qur'oni karimning ko'paytirish maqsadida ko'chirilgan qo'lyozmalar.....	56



5-mavzu. Tafsirlar islomshunoslik manbalari sifatida	67
1. Tafsir ilmining vujudga kelishi	67
2. Tafsir ilmining maqsadi.....	75
3. Manbalarda Islomshunoslik	76
6-mavzu. Siyarlar – islomshunoslikning muhim manbalari .	79
1. Payg'ambar alayhisalomning tarixi yozilgan kitoblar.	79
2. Ilmi siyar haqida	83
3. Rasululloh (s.a.v.)ning muborak siyratlari.....	86
7-mavzu. Hadis to'plamlari islomshunoslik manbalari	
sifatida	90
1. Hadis to'plamlarining tasnif etilish navlari	90
Interfaol metodlar	99
Izohli lug'at (Glossariy)	102
Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори.....	109

Husen Xayrulloevich JO'RAYEV

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: A. Qalandarov
Texnik muharrir: G. Samiyeva
Musahhih: Sh. Qahhorov
Sahialovchi: M. Bafoyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 20.05.2024. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tobog'i 7,7. Adadi 100. Buyurtma №281.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45